

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

S. B. XO‘JAQULOV

ICHKI ISHLAR ORGANLARI PROFILAKTIKA
XIZMATLARINING JISMONIY VA YURIDIK
SHAXSLAR MUROJAATLARINI KO‘RIB
CHIQUISH FAOLIYATI

O‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2016

Mas’ul muharrir

yuridik fanlar doktori, dotsent **O‘. H. Muxamedov**

Taqrizchilar:

IIV Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi
bo‘lim boshlig‘i, polkovnik **I. I. Ximmatov**;

Toshkent shahar IIBB Huquqbuzarliklarning oldini olish
boshqarmasi boshlig‘i, podpolkovnik **D. Akramov**;
yuridik fanlar doktori, professor **I. Ismailov**;
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **J. S. Muxtorov**

X – 89 Xo‘jaqulov S.B.

Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish faoliyati: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 112 b.

Ushbu qo‘llanma ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan ko‘rib chiqiladigan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining mazmuni, turi va shakllari, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlari va protsessual tartibini, xususan, huquqbuzarliklar (ma‘muriy huquqbuzarlik va jinoyat)ga oid murojaatlarni ko‘rib chiqishga doir qonun va qonunosti hujjatlari talablarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, «Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati faoliyati» fanini qo‘shimcha o‘rganish maqsadida tayyorlandi.

Qo‘llanma yuridik oliy ta‘lim muassasalarining tinglovchi va talabalari, tadqiqotchilar, shuningdek amaliyot xodimlariga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)8ya73

Demokratik jamiyatda fuqarolarning hech bir murojaati e'tiborsiz qolishi kerak emas.

Islom Karimov

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari natijasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida bir qancha yutuqlarga erishib kelinmoqda. Ana shunday yutuqlardan biri – fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilishi bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy tartibga solinishidir.

Bu borada, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qat’iy va ustuvor qoidalar belgilab berildi. So‘ngra ushbu qoidalarga asoslanib 1994-yil 6-mayda O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi va hayotga tatbiq etildi. Sal kam o‘n yil amalda bo‘lgan mazkur qonunda muayyan kamchilik va ziddiyatlarning mavjudligi, shuningdek kuchli fuqarolik jamiyat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan davlatimizda olib borilgan keng qamrovli islohotlar qonunni 2002-yilda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritib, yangi tahrirda qabul qilishni taqozo etdi.

Yangi tahrirda qabul qilingan mazkur qonunni to‘liq ijroga yo‘naldirish maqsadida 2003-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasi IIVning «O‘zbekiston Respublikasi IIV idoralari, o‘quv yurtlari, ichki va qorovul qo‘shinlari, muassasalari, tashkilotlarida fuqarolarni qabul qilish va ularning takliflari, arizalari hamda shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi haqidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i qabul qilindi.

Fan-texnikaning rivojlanishi, mamlakatimizning iqtisodiy o‘sishi hamda tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlarining tobora kengayishi murojaatlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishni yangi bir bosqichga ko‘tarish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Chunki endi murojaat qiluvchi nafaqat fuqaro va hattoki, jismoniy shaxs, balki yuridik shaxs ham bo‘lishi mumkinligi e’tirof etildi. Natijada 2014-yil 3-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi va unda O‘zbekiston Respublikasi davlat organlariga murojaatlar jismoniy va yuridik shaxslar, shuning-

dek xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan berilishi alohida belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, yangi qonunda, avvalgisidan farqli o'laroq, murojaat etish shakli og'zaki va yozma bo'lishi bilan birga, elektron shaklda ham bo'lishi mumkinligi, shuningdek elektron murojaatlarga qo'yiladigan talablar hamda ular bilan ishlash tartibi o'z ifodasini topdi. Biroq, yangi qabul qilingan, qolaversa, undan oldingi qonunlar hamda ular ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan qonunosti hujjatlarda ham nazarda tutilgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, xo'jalik protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga, shuningdek davlat organlari hamda ulardagi tarkibiy bo'linmalarning o'zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmasligiga o'xshash mazmundagi cheklovlarni kuzatish mumkin.

Ammo bu qoida ichki ishlar idoralari xodimlari, ayniqsa, tizimning fuqarolar bilan bevosita uzluksiz muloqotda bo'luvchi profilaktika xizmati xodimlarini murojaatlar bilan ishlash faoliyatida ayrim tushunmovchiliklar kuzatilishi ehtimolini keltirib chiqaradi. Chunki profilaktika inspektorlari murojaat shakli va mazmuniga ega bo'lgan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi xabarlarini ham bevosita ko'rib chiqadi yoki bu jarayonda ishtirok etadi. Shu bois mazkur o'quv qo'llanmada ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan ko'rib chiqiladigan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini kompleks tarzda o'rganishga, ayniqsa, ushbu xizmatning, xususan, profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatga oid murojaatlarni ko'rib chiqish faoliyatini atroflicha yoritishga harakat qilindi. Qo'llanmada profilaktika xizmatlarining ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyatga oid ishlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatining yoritilishi faqatgina murojaat bilan aloqadorligi uchun emas, balki ayni paytda profilaktika xizmatlarining ushbu faoliyat yo'nalishida mavjud bo'lgan tushunmovchiliklar, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish hamda unga yo'l qo'ymaslik maqsadini ham ko'zlaydi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan «Asosiy vazifamiz – jamiyatni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat» mavzusidagi ma'ruzasida «..., joriy yilning to'qqiz oyi davomida fuqarolarimizdan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining mansabdor shaxslari ustidan kelib tushgan 500 ga

yaqin shikoyatning beshtadan bittasi ichki ishlar organlari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlariga tegishlidir.

Odamlar nima haqida ariza yozmoqda? Murojaatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ular huquqni muhofaza qiluvchi organlar noqonuniy qarorlar qabul qilayotganidan, bu idoralarning mansabdor shaxslari qo'pol muomalada bo'layotganidan, aholi murojaatlari ular tomonidan to'liq, sifatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilmayotganidan shikoyat qilmoqda»¹, degan fikrlari ushbu qo'llanmaning ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur qo'llanma tinglovchi va kursantlarda ushbu mavzuga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash, shuningdek profilaktika inspektorlarida amaliy ish faoliyatlarida foydalanishlari uchun xizmat qiladi.

¹ *Каримов И. А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат: О'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza (2015-yil 6-dekabr) // POSTDA. – T., 2015. – № 49. –B. 1–4.*

I. PROFILAKTIKA XIZMATLARINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLAR MUROJAATLARINI KO‘RIB CHIQISH FAOLIYATI

1.1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tushunchasi, turlari, ularni qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi

Mustaqillikka erishgan O‘zbekistonda «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish» pirovard maqsad qilib belgilab olindi. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatining asosiy mezoniga aylanib ulgurdi.

Bosh qomusimizning 13-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», deb belgilab quyildi. Darhaqiqat, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash har qanday demokratik davlatning asosiy belgisi hisoblanadi.

Aynan shu nuqtai nazardan Konstitutsiyamizda «Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilishga haqli. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart»ligi (35-modda) hamda «Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish kafolatlanganligi» (44-modda) singari qoidalar belgilab qo‘yilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilishi va ushbu murojaatlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabr kuni qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonunda O‘zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslari bilan birga, xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslari ham O‘zbekiston Respublikasi davlat organlariga murojaat etish huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Qonunda qayd etilishicha, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qilinadigan murojaatlarining quyidagi turlari mavjud:

Ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat.

Taklif – davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat.

Shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- og‘zaki shaklda;
- yozma shaklda;
- elektron shaklda.

Og‘zaki shakldagi murojaatlar, odatda, shaxs tomonidan yuzma-yuz yoki telefon orqali qilinib, murojaatning mazmuni ichki ishlar idoralarida yuritiladigan maxsus kitoblarda (masalan, MTPda yuritiladigan «Fuqarolarning murojaatlarini qayd qilish» kitobida) yoki og‘zaki murojaatni qabul qilish bayonnomasi kabi hujjatlarda qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning «Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi buyrug‘i VI bobining 51-bandiga asosan har bir MTPda profilaktika (katta) inspektori tomonidan «Fuqarolarni qabul qilish kitobi» yuritiladi. Murojaat qilgan fuqarolar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (murojaat qilingan sana, murojaat qilgan fuqaroning familiya, ismi, sharifi, yashash manzili, murojaatning qisqacha mazmuni va ko‘rilgan chora-tadbirlar) ushbu kitobda qayd etib boriladi.

Jismoniy shaxs og‘zaki murojaat etayotganda o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, yuridik shaxsning vakili esa o‘z vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatni, shuningdek o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishi kerak.

Og‘zaki murojaat bilan kelgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ichki ishlar organlarining boshliqlari yoki ular tomonidan belgilangan boshqa mas’ul xodimlar, shuningdek ichki ishlar organlarining tarkibiy bo‘linmalari (bundan buyon matnda tarkibiy bo‘linma deb yuritiladi) boshliqlari tomonidan qabul qilinadi.

Qabulga kelgan murojaat qiluvchining shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlar tekshirilishi shart, shundan so‘nggina Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qayd etish kartochkasi to‘ldiriladi. To‘ldirilgan har bir kartochka og‘zaki murojaat sifatida ro‘yxatga olinadi.

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ichki ishlar organlariga og‘zaki murojaat etganlarida ular tomonidan taqdim qilingan yozma murojaatlar hamda boshqa materiallar qabul qilinishi va to‘ldirilgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qayd etish kartochkasiga ilova qilinishi talab etiladi.

Yozma shakldagi murojaatlar esa arizalarda o‘z ifodasini topadi. Ma’lumki, qonunda bir-biriga o‘xshash bo‘lgan «arz», «ariza», «og‘zaki ariza bayonnomasi» kabi atamalar uchraydi. Shu o‘rinda oydinlik kiritadigan bo‘lsak, «arz» fuqaro murojaatining mazmunini aks ettirsa, «ariza» esa mazkur murojaat qayd etilgan protsessual hujjatni ifodalaydi.

Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki yuridik shaxs rahbarining yoxud vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo‘lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yilishi kerak.

Amaliyotda ko‘pgina holatlarda yozma shakldagi murojaatlar ariza tarzida amalga oshiriladi. Biroq, har doim ham murojaat ariza shaklida bo‘lavermaydi. Qonunda davlat organlariga ommaviy axborot vositalari tahririyatlaridan ham murojaatlar kelib tushishi nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu murojaatlarni ham belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 322-moddasining birinchi qismi 2 va 3-bandlarida esa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar yoki ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘lishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Demak, murojaat «xabar» mazmunida ham bo‘lishi mumkin.

Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan elektron hujjat shaklida bo‘lishi kerak. Murojaatni elektron murojaat tarzida qayd etish uchun u O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Hukumat portali) yoki rasmiy veb-sayt orqali yoxud rasmiy elektron pochta manziliga kelib tushgan bo‘lishi talab etiladi.

Jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan, shuningdek imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan murojaat *anonim murojaat* hisoblanadi va bunday murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi.

Aynan bir jismoniy yoki yuridik shaxsning murojaati nusxasi – *murojaatning dublikati* deyiladi. Agar murojaatni ko‘rib chiqish jarayonida murojaatning dublikati kelib tushsa, ushbu murojaat avval tushgan

murojaat bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi hamda natijasi bo‘yicha bitta javob beriladi.

Agar murojaatning dublikati murojaat ko‘rib chiqilgan va javob yuborilgandan keyin kelib tushsa, u holda ichki ishlar organi murojaat qiluvchini bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi.

Avvalgi murojaatlar bo‘yicha qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilingan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilgan, shuningdek agar takroriy murojaat kelib tushgan paytda ko‘rib chiqishning qonun hujjatlari-da belgilangan muddati tugagan bo‘lsa, avvalgi murojaat o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmaganligi haqida xabar qilingan, aynan bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan murojaat – *takroriy murojaat* hisoblanadi.

Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta‘minlashda xodimning qonunga xilof xatti-harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan aloqa vositasi orqali qilgan og‘zaki murojaati – «*ishonch telefoni*» orqali murojaat sifatida e‘tirof etiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari quyidagi muddatlarda ko‘rib chiqiladi:

Ariza yoki shikoyat masalani mazmuni bo‘yicha hal etishi shart bo‘lgan ichki ishlar organiga kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n besh kun mobaynida, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari tegishli ichki ishlar organi rahbari tomonidan, istisno tariqasida, ko‘pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif ichki ishlar organiga kelib tushgan kundan e‘tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o‘n kun muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

Ayrim hollarda ichki ishlar organining rahbari yoki uning o‘rinbosarlari murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirishlari ham mumkin.

Murojaatlar bilan ishlash muddatlari ular ichki ishlar organiga kelib tushgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tegishli muddatning oxirgi kuni dam olish yoki bayram kunlariga to‘g‘ri kelsa, navbatdagi ish kuni muddat tugaydigan kun hisoblanadi.

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan jinoyat haqidagi ariza yoki xabarni hal etish uchun maxsus tekshiruv o‘tkazish, qo‘shimcha material-

lar talab qilib olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan holalarda (*O'zbekiston Respublikasining JPKning 329-moddasida nazarda tutilgan holatlardan biri mavjud bo'lganda*) ariza yoki xabarni ko'rib chiqish muddatini uzaytirishni so'rab prokurorga murojaat qilinadi, ko'rib chiqish muddati uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin va bu haqda ariza yoki shikoyat qilgan shaxsga xabar qilinadi.

Ichki ishlar organlariga kelib tushgan xatlar kotibiyatda o'sha kunning o'zida qayd qilinishi shart. Xatning 1-betiga, matndan bo'sh qolgan joyga ichki ishlar organining to'rtburchak muhri bosiladi, xat kelgan kun va qayd qilingan tartib raqami yozib qo'yiladi.

Kelib tushgan va qayd qilingan xatlar qidirish, tahlil etish va saqlashni ta'minlovchi boshqa belgilar bilan to'ldirilishi mumkin. Masalan, xat muallifi Abdullayev A. bo'lsa, (a-25), sohaviy xizmatning mos raqami (1/A-25).

Murojaatlar ichki ishlar organlarining avtomatlashtirilgan elektron hujjat aylanuv dasturida ham ro'yxatga olinishi mumkin.

Murojaatlarni qayd etish daftarida murojaatning tartib raqami, murojaat qilgan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, uning yashash joyi, yuridik shaxsning nomi, uning manzili, murojaatning qisqacha mazmuni, murojaat qabul qilingan sana, dublikat yoki murojaatlarning takroriyliigi, nazoratga olinganligi to'g'risidagi belgi, ijrochi etib belgilangan ichki ishlar organi tarkibiy bo'linmasi nomi, sana ko'rsatilgan holda ijro etish to'g'risidagi belgi ko'rsatiladi.

Agar murojaat, murojaat etuvchining ishonchli vakili tomonidan taqdim etilsa, ro'yxatda murojaat etuvchining murojaati va ishonchli vakilning murojaati alohida kiritiladi.

Murojaatning qabul qilinganligi qayd etish shtampi bilan tasdiqlanadi. Ushbu shtampda ichki ishlar organlarining rasmiy nomi (agar ichki ishlar organlarining rasmiy nomi uzun bo'lsa umumqabul qilingan qisqartirilgan nom yoki qisqartma ko'rsatilishi mumkin (masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi – O'z. Res. IIV Akademiyasi), murojaatning kelib tushgan sanasi va qayd raqami ko'rsatiladi. Murojaatlarga beriladigan tartib raqamlari yil boshidan yangidan hisoblanadi.

Murojaatlar pochta orqali ham berilishi mumkin, bu holatda pochta orqali kelib tushgan konvertda murojaat va uning ilovalari borligini sinchiklab tekshirish talab etiladi. Agar konvertda murojaatning mavjud emasligi yoki uning yaroqsizligi, shuningdek murojaatda ko'rsatilgan ilovalarning yo'qligi aniqlansa, unda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ular-

dan biri murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'linmada qoladi, ikkinchisi murojaat qiluvchiga konvertida ko'rsatilgan manzil bo'yicha jo'natiladi.

Pochta orqali kelib tushgan murojaatlarning konvertlari, kelajakda murojaat etuvchining manzilini, murojaatning jo'natilgan va olingan vaqtini aniqlash uchun alohida saqlab qo'yilishi ham mumkin.

Boshqa organ yoki xizmatga tegishli murojaat adashib kelib tushgan holatlarda murojaatni olgan organ birga kelgan konvertni ilova qilgan holda, uni yangi konvertida tegishliligi bo'yicha jo'natadi yoki murojaat etuvchiga qaytaradi.

Ichki ishlar bo'limi kotibiyati va kanselariyalari yoki mas'ul xodimlariga (bundan buyon matnda murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'linma deb yuritiladi) pochta, telegraf, qo'lda, shuningdek jazoni ijro etish muassasalarida senzura tekshirishlari orqali olingan, kelib tushgan xatlar kirish kitobiga belgilangan tartibda qayddan o'tkaziladi.

Ro'yxatga olingan murojaat kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kunidan kechikmay ichki ishlar organi rahbariga, uning o'rinbosariga yoki tarkibiy bo'linma rahbariga kiritiladi. Mazkur rahbar mas'ul tarkibiy bo'linma (xodim)ni belgilab, murojaatni ko'rib chiqish uchun rezolyutsiya (topshiriqnomani) qo'yadi.

Rezolyutsiya (topshiriqnoma) qo'yilgan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida bo'linma murojaatni ijro etuvchi sifatida belgilangan tarkibiy xizmat (xodim)ga imzo qo'ydirgan holda beradi.

Kelib tushgan murojaat ichki ishlar organining ish yurituviga qabul qilinadi, bo'ysunish tartibida ichki ishlar organining quyi bo'linmasiga yoki tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organiga yuboriladi. Bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar berilishi shart.

Murojaatlarni nazoratga olish ishlari Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qayd etish kartochkasi orqali amalga oshiriladi. Nazoratga olingan har qanday murojaat mazkur murojaatni nazoratga olgan rahbar yoki mansabdor shaxs tomonidan nazoratdan yoki ijrodan olinadi. Murojaatni ko'rib chiqqan xodimning murojaatga aloqador holatni atroflicha o'rganib qilgan asosli xulosasi yoki qarori, shuningdek bu haqda ma'lumot beruvchi bildirgisi yoki ma'lumotnomasi uni nazoratdan yoki ijrodan olish uchun asos bo'ladi.

Yuqori turuvchi ichki ishlar organi nazoratida turgan murojaatlar bo'yicha murojaatni ko'rib chiqqan organ ushbu yuqori turuvchi organga murojaatni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida axborotni yozma shaklda beradi va unga murojaat qiluvchiga yuborilgan javob xatining nusxasi ilova qilinadi.

Umuman olganda, besh kundan kech bo‘lmagan muddat ichida har bir xat bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinishi kerak:

- 1) tekshirish o‘tkazish uchun o‘zida qoldirish;
- 2) hal etish uchun o‘ziga bo‘ysunadigan yoki boshqa ichki ishlar organiga yuborish;
- 3) agar xatda ko‘rsatilgan masalalar ichki ishlar idoralari vakolatiga kirmaydigan bo‘lsa, unda uni tegishliligi bo‘yicha boshqa idoraga jo‘natish;
- 4) avval kelgan xatga qo‘shib qo‘yish;
- 5) xat boshqa ichki ishlar idorasiga yoki umuman boshqa idoraga yuborilganligi haqida arizachiga ma‘lum qilish.

Ichki ishlar organlariga kelgan takroriy xatlar ham birinchisi kabi qayd qilinadi, jurnalda «takroriy» degan belgi qo‘yiladi. Xatning birinchi betidagi ochiq joyiga «takroriy» degan shtamp bosiladi, ilgari qayerga yuborilgani yozib qo‘yiladi.

Aynan bir shaxs tomonidan ayni bir masala yuzasidan kelgan xatlarda:

- ushbu ichki ishlar idorasiga yuborilgan avvalgi xat bo‘yicha chiqarilgan qarordan shikoyat qilinsa;
- agar xatda avvalgi xat kelib tushgandan so‘ng qonunda belgilangan ko‘rib chiqish muddati o‘tib ketgan va u o‘z vaqtida hal etilmaganligi haqida xabar qilinsa;
- avvalgi xatni ko‘rib chiqish va hal etishda yo‘l qo‘yilgan boshqa kamchiliklar ko‘rsatilgan bo‘lsa, bu holatlar *takroriy* hisoblanadi.

Garchi, «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonunda qayd etilgan ko‘rib chiqish tartibi ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, xo‘jalik protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga nisbatan tatbiq etilmasligi qat‘iy belgilangan bo‘lsa-da, biroq mazkur qonun hujjatlarida belgilangan murojaatlar ham shaklan murojaat sifatida e‘tirof etiladi. Biroq, bu murojaatlar mazmuniga ko‘ra alohidalik, individuallik (o‘ziga xoslik) kasb etadi. Shulardan eng ahamiyatlisi jinoyat haqidagi murojaatlardir.

Ko‘rinib turibdiki, ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va qayd etish belgilangan tartib va qoidalarga asoslanib amalga oshiriladi. Mazkur tartib va qoidalarning mazmunini yoritish uchun murojaatni tur va shakllarga bo‘lish, qolaversa, tasniflash katta ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, tasniflash belgilangan obyektning o‘ziga xos xususiyatlari yoki ma‘lum bir mezonlar asosida amalga oshirilib, obyektini, shuningdek

uning tarkibidagi elementlarni kengroq va imkon qadar batafsilroq o'rganish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, ichki ishlar organlari tomonidan qabul qilinadigan, qayd etiladigan va ko'rib chiqiladigan murojaatlarni ham mazmunan shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

- jinoyat va hodisalar haqidagi murojaatlar;
- ma'muriy huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlar;
- huquqbuzarlik alomatiga ega bo'lmagan ijtimoiy munosabatlar hamda maishiy turmush sohasi bilan bog'liq murojaatlar;
- buzilgan huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni tiklash yuzasidan qilinadigan murojaatlar;
- davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaatlar;
- ichki ishlar organlaridan davlat xizmati ko'rsatilishini talab etuvchi (elektron) so'rov (murojaat)lar.

Yuqorida ko'rsatilganlardan jinoyat va hodisalar to'g'risidagi murojaatlar ariza va boshqa xabarlar shaklida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bir qator buyruqlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Ushbu buyruqlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ham bu borada ayrim kamchiliklarni uchratish mumkin. Masalan, ularda bir-biriga o'xshash bo'lgan «arz», «ariza», «og'zaki ariza bayonnomasi» kabi atamalar o'z ifodasini topgan. Shu bois O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunida arizaga berilgan ta'rifning mazmunidan kelib chiqib, jinoyat haqidagi arizaga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Jinoyat haqidagi ariza – fuqarolarning jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan yozma shakldagi murojaati (arzi).

Ushbu holatda «arz» tushunchasi fuqaro murojaatining mazmunini aks ettirsa, «ariza» mazkur murojaat qayd etilgan protsessual hujjatni ifodalaydi.

Fuqarolar ichki ishlar organlariga jinoyat va hodisalar to'g'risidagi arzlarni og'zaki shaklda ham berishlari mumkin, u «og'zaki arzni qabul qilish bayonnomasi»da qayd etiladi (JPKning 324-m.). Ariza va og'zaki arzni qabul qilish bayonnomasi bir-biridan faqat protsessual shakl va tartibi bilangina farq qiladi.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksning 113-moddasida jinoyat sodir etgan shaxsning davlat organlariga aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz asosida murojaat qilish tartibi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, *aybini*

bo'yniga olish to'g'risidagi arz – ariza beruvchining o'zi sodir etgan jinoyati to'g'risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e'lon etilmasdan oldin bergan xabari.

Jinoyatdan jabrlangan fuqarolarning arzi kabi jinoyat sodir etgan shaxsning aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arzi ham og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Bu holatda ham yozma arz arizada ifodalansa, og'zaki arz bayonnomada aks ettiriladi.

Jinoyat haqidagi xabar – protsessual hujjatlarni rasmiylashtirmasdan, balki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan jinoyat va hodisalar haqida telefon va telegraf orqali berilgan, shuningdek signal beradigan qo'riqlash moslamalarining ishlab ketishi natijasida va boshqa signallar orqali kelib tushgan hamda anonim xabarlar.

Jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozma ravishda bildirilgan arz, garchi shakl bo'yicha ariza tariqasida e'tirof etilsa-da, imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilib, anonim xususiyatga ega bo'lganligi bois ariza deb tan olinmaydi.

Jinoyat haqidagi boshqa ma'lumot – bu surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning bevosita o'zi tomonidan aniqlangan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi izlar va ma'lumotlar (JPKning 322-m., 4-b.).

Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar mohiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

– jinoyat to'g'risida ichki ishlar organlari, jazoni ijro etish muassasalariga kelib tushgan va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq jinoyat ishi qo'zg'atilishiga asos bo'ladigan ariza va xabarlar;

– jinoyat va hodisalar to'g'risidagi boshqa xabarlar.

Jinoyat ishi qo'zg'atilishiga asos bo'ladigan ariza va xabarlarga quyidagilar kiradi:

– qonun asosida bayonnoma orqali hujjatlashtirilgan va arizachi tomonidan imzolangan og'zaki arizalar;

– O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda yozilgan fuqarolarning ariza va xabarlari;

– fuqarolarning bedarak yo'qolganligi bo'yicha ariza va xabarlar;

– jamoatchilik (axloq-odob va intizom) sudlari, mahalla posbonlari va boshqa jamoat tashkilotlarining yozma xabarlari;

– korxonalar, tashkilot va muassasalar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning yozma xabarlari;

– jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda yozilgan va rasmiylashtirilgan fuqarolarning chin ko‘ngildan pushaymonlik bo‘yicha arizalari;

– fuqarolarning jinoyat sodir etganligini bildirib, aybini bo‘yniga olish haqidagi arzlari;

– jinoyat sodir etilganligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmasa-da, biroq jinoyat alomatlari mavjudligini tekshirib chiqishni talab etadigan xabarlar.

Jinoyat haqidagi boshqa xabarlariga qo‘shimcha tekshiruv olib borishni talab etadigan xabarlar kiradi. Bularga telefon, telefaks, telegraf, teleradio orqali tushgan xabarlar, XCHK va FR bo‘limlariga pasport yo‘qolganligi bo‘yicha tushgan shubhali xabarlar, YHXB xodimlarining yo‘l-transport hodisasi va uning oqibatlari bo‘yicha, qo‘riqlash bo‘limining qo‘riqlov signalizatsiyasining ishlab ketishi haqida, YOXBlarining yong‘inlar bo‘yicha, ro‘yxat-imtihon bo‘limining fuqarolar tomonidan shubhali ravishda texnik pasport va haydovchilik guvohnomalarini yo‘qotganlik bo‘yicha, matbuotda chop etilgan xat, maqola, xabarlar, davlat sug‘urta kompaniyalarining qonun buzilishi bo‘yicha murojaatlari, jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan barcha xabarlar, epizootiya, favqulodda holat, ommaviy tartibsizliklar, baxtsiz hodisalar hamda IIB xodimlarining jinoyat haqidagi bildirgilari kiradi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari mazmunida huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘lsa, u holda huquqbuzarlikning ma‘muriy yoki jinoiy ekanligiga qarab arizani ichki ishlar organlarining Navbatchilik qismida yuritiladigan «Ichki ishlar bo‘limiga telefon, telegraf, signal beradigan qo‘riqlash moslamalarining ishlab ketishi natijasida va boshqa signallar orqali kelib tushgan hodisalar bo‘yicha ma‘lumotlarni hisobga olish jurnali (2-shakl)»ga yoki «Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qayd etish kitobi (1-shakl)»ga qayd etish choralari ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1993-yil 5-yanvar va 1996-yil 17-iyul buyruqlari talablariga asosan, shahar-tuman ichki ishlar bo‘limlarida jinoyat haqidagi ariza va xabar to‘g‘ridan-to‘g‘ri 1-shakl kitobiga qayd etilishi, shuningdek 2-shakl jurnaliga qayd etilgan materiallar bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan hollarda bu material tegishli tartibda 1-shakl kitobiga o‘tkazilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan buyruqlar bilan tasdiqlangan Yo‘riqnomaning 1.3-bandida ko‘rsatilgan jinoyatga oid ariza, xabar, ma‘lumotlar 1-shakl kitobiga qayd etiladi. Yo‘riqnomaning 1.4-bandida ko‘rsatilgan telefon, telefaks, telegraf, teleradio orqali tushgan xabarlar, davolash muassasalaridan tan jarohati bo‘yicha tushgan xabarlar, XCHK va FRB bo‘limlariga

pasport yo‘qolganligi bo‘yicha tushgan shubhali xabarlar, YHXB xodimlarining yo‘l-transport hodisasi va uning oqibatlari bo‘yicha, qo‘riqlash bo‘limining qo‘riqlov signalizatsiyasining ishlab ketishi haqida, YOXB-larining yong‘inlar bo‘yicha, ro‘yxat-imtixon bo‘limining fuqarolar tomonidan shubhali ravishda texnik pasport va haydovchilik guvohnomalarini yo‘qotganligi bo‘yicha, matbuotda chop etilgan xat, maqola, xabarlar, davlat sug‘urta kompaniyalarining qonun buzilishi bo‘yicha murojaatlari, jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan barcha xabarlar, epizootiya, favqulodda holat, ommaviy tartibsizliklar, baxtsiz hodisalar hamda IIB xodimlarining jinoyat haqidagi bildirgilari *2-shakl jurnaliga* qayd etiladi.

Yo‘riqnomaning 3.3-bandi talablariga asosan 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali qat’iy belgilangan tartibda yuritiladi. Navbatchilik qismining 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali faqatgina shahar-tuman IIB navbatchilik qismi navbatchisi yoki ularning yordamchilari tomonidan to‘ldiriladi hamda shahar-tuman IIB navbatchilik qismlarida saqlanishi shart. Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisalar to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumotlar zudlik bilan IIB navbatchilari tomonidan Yo‘riqnoma talablariga muvofiq ravishda qayd etilishi talab etiladi. 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 17-iyul buyrug‘i talablariga muvofiq doimiy ravishda saqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 1-noyabr buyrug‘ining 324 va 325-bandlariga asosan 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali to‘lganidan so‘ng 5 yil muddat saqlanishi lozim.

Yo‘riqnomaning 3.4-bandiga muvofiq, agar sodir bo‘lgan voqea-hodisa o‘z mohiyati bo‘yicha hal etilishi ichki ishlar organlariga tegishli bo‘lmasa yoki hududiy jihatdan boshqa shahar-tuman IIBga tegishliligi aniqlansa, tegishli tartibda 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnaliga ro‘yxatga olingach, bu borada kitob yoki jurnalga belgi qo‘ygan holda tegishli shahar-tuman IIB navbatchisi bilan bog‘lanib, darhol xabar qilinishi, ularda mavjud bo‘lgan kitob va jurnalda qayd etilishi, qayd qilinganlik tartib raqami olinishi va ular tomonidan jinoyatning oldini olish yoki fosh etish choralari ko‘rilgunga qadar hodisa sodir etilgan joydagi jinoyat izlarining saqlanishini ta‘minlash choralari ko‘rilishi lozim.

Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisalar to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumot ayrim sabablarga ko‘ra kechroq qabul qilinganda (masalan, hududiy profilaktika inspektorida relyefning noqulayligi sababli xabarni o‘z vaqtida uzatishning imkoni bo‘lmagan taqdirda), 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalinig 2-grafasiga jinoyat va hodisa aniq sodir etilgan va kelib tushgan vaqti – soati ko‘rsatiladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, 1-shakl kitobi ham 2-shakl jurnaliga tergov-tezkor guruhi tarkibida voqea joyiga chiqqan ekspert, kinolog va boshqa mutaxassislar, shuningdek voqea joyidan olingan izlar, daliliy ashyolar, kinologning xizmat iti to'g'risidagi ma'lumotlar ham yozib qo'yiladi.

Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar yozma ravishda kelib tushganda mazkur arizada ichki ishlar organi navbatchilik qismining shtampi qo'yilib, unda qabul qilingan sana, qayd raqami, navbatchining ismi, familiyasi, otasining ismi yozilib, navbatchi tomonidan imzolanadi.

Jinoyatga oid ariza va boshqa xabarlarni qayd etish bo'yicha 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali yuritilishiga to'liq javobgarlik shaxsan shahar-tuman IIB boshlig'i va navbatchi inspektor zimmasiga yuklatiladi.

Jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning ro'yxatga olinishi bo'yicha kunlik nazorat bevosita ichki ishlar bo'limi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois har kuni tezkor navbatchi kun (sutka) davomidagi tezkor vaziyat to'g'risida IIB boshlig'iga ma'lumot beradi. IIB boshlig'i 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalining to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi, bu haqda o'z fikrini bildiradi va imzo qo'yadi. Hal etilmagan materiallar bo'yicha tegishli sohaviy xizmat rahbarlariga topshiriqlar beradi.

Navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnalida qayd etilmagan ariza va xabarlar bo'yicha ichki ishlar organlari xodimlariga, jumladan profilaktika inspektorlariga topshiriqlar berilishi qat'iy taqiqlanadi.

Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarning belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi va uning 2-Y shakl hisoboti har yarim yilda va yillik hisobot shaklida shahar-tuman IIBlari hisob-qayd etish inspektori tomonidan olib boriladi.

1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnalida qayd etilmagan ariza va xabarlar yuzasidan qonuniy choralar ko'rilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu kitoblarning oxirgi ustunida qayd etiladi va hisob-qayd etish inspektori tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib boriladi. Bu borada sud, prokuratura organlari va Axborot markazi bilan taqqoslash-solishtiruv ishlari olib boriladi.

Yuqorida qayd etilganidek, jinoyatga oid arizlar ariza va bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi. Bunda arz fuqarolarning shaxsan o'z qo'li bilan yozilganda ariza shaklida ifodalanadi. Bordi-yu, arz qiluvchi o'z arzini og'zaki tarzda bayon etsa, u holda arz bayonnoma shaklida qayd

etilishi talab etiladi. Bu talab aybini bo‘yniga olish haqidagi arzni qabul qilish tartibiga ham birdek amal qiladi.

Yozma arizada arz bildirilayotgan organ boshlig‘ining unvoni va familiyasi, ismi, otasining ismi, arz qiluvchi, uning yashash va ishlash joyi, shuningdek shaxsiy hujjatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettirilishi, shundan so‘ng arz qiluvchi jinoyat to‘g‘risida bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilishi va bu xususda bayonnomada qayd qilinib, uning imzosi bilan tasdiqlanishi, so‘ngra bayonnomada jinoyat sodir etish holatlariga doir ma‘lumotlar arz qiluvchi nomidan qisqacha yozilishi, shuningdek ariza arz qiluvchi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi talab etiladi.

Og‘zaki arzning bayonnomada qayd etilishi mazmunan arizadan farq qilmasa-da, protsessual shakl jihatdan o‘zgachadir.

Bayonnomada bayonnoma qachon, qayerda, kim tomonidan (lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, sharifi), Jinoyat-protsessual kodeksining qaysi moddasiga asosan tuzilayotganligi, arz qiluvchi, uning yashash va ishlash joyi, shuningdek shaxsiy hujjatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettirilishi (basharti arz qiluvchi hujjat ko‘rsata olmasa, uning shaxsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni boshqa yo‘llar bilan tekshirish chorasi ko‘rilishi kerak), og‘zaki arzni qabul qilish qachon boshlanib, qachon tugaganligi ko‘rsatilib, arz qiluvchi jinoyat to‘g‘risida bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilishi va bu xususda bayonnomada qayd qilinib, uning imzosi bilan tasdiqlanishi, so‘ngra bayonnomada jinoyat holatlari xususidagi ma‘lumotlar arz qiluvchi nomidan, iloji boricha so‘zma-so‘z aks ettirilib, bayonnoma arz qiluvchi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi talab etiladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, aybini bo‘yniga olish haqidagi arz ham jinoiy qilmishdan moddiy, ma‘naviy yoki jismoniy zarar ko‘rgan shaxsning arzi singari og‘zaki yoki yozma ravishda bo‘lishi mumkin. Bunda ham yozma arz arizada ifodalansa, og‘zaki arz bayonnomada aks ettiriladi. Faqatgina bu holatda aybini bo‘yniga olib arz qiluvchi shaxs bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Huquqbuzarlikka oid ariza va xabarlarning IIB kotibiyatida qayd etilishi qat‘iyan man etiladi.

Ma‘muriy hududda sodir etilgan jinoyat haqida profilaktika (katta) inspektoriga xabar berilganida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- jinoyat haqida xabar olgandan so‘ng profilaktika inspektori bu haqda aloqa vositalari (*ratsiya, telefon va boshqa turdagi aloqa vositalari*)

orqali ichki ishlar organining navbatchilik qismiga xabar berib, zudlik bilan unga yordam ko'rsatayotgan ko'ngilli mahalla faollari, mahalla posbonlari yoxud mazkur hududda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda xizmat olib borayotgan boshqa sohaviy xizmat xodimlari (*post-patrul va jamoat tartibini saqlash xizmati, yo'l harakati xavfsizligi xizmati, yong'in xavfsizligi xizmati*) bilan voqea joyiga yetib boradi;

- tergov-tezkor guruhi hodisa joyiga yetib kelgunga qadar profilaktika inspektori, shu ma'muriy hududda xizmat qilayotgan boshqa xodimlarini jalb qilgan holda jinoyat izlari saqlanib qolinishini ta'minlash uchun voqea joyiga hech kimni kiritmaydi, u yerdagilarni zarur bo'lmasa voqea joyidagi holatni o'zgartirmasliklari va ortiqcha harakat qilmasliklari to'g'risida ogohlantiradi;

- jinoyat natijasida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etadi va zarur bo'lsa, tez tibbiy yordamni chaqiradi;

- guvohlarni, voqea shohidlarini, gumon qilinuvchi shaxslarni, ashyoviy dalillar va jinoyat holati bo'yicha boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi;

- tergov-tezkor guruhi yetib kelganda guruh rahbariga voqea tafsilotini yetkazish bilan bir vaqtda, guvohlar, voqea shohidlari, gumonlanuvchi shaxslar, ashyoviy dalillar va jinoyat holati bo'yicha boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi;

- tergov-tezkor guruhi rahbarining topshirig'i asosida voqea joyiga yaqin joylashgan xonadonlarda yashaydigan, korxonalar, tashkilot va muassasalarda ishlaydigan fuqarolar orasida surishtiruv ishlarini olib boradi va zarur hollarda surishtirilgan fuqarolardan tushuntirish xatlari oladi, ularni tergov-tezkor guruhi rahbarining oldiga suhbat uchun taklif qiladi;

- tergov-tezkor guruhi rahbarining topshirig'iga asosan muqaddam sodir etilgan jinoyatlar uchun sudlangan va ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turuvchilar bilan surishtiruv ishlarini olib boradi va ulardan tushuntirish xatlari oladi;

- gumon qilinuvchi shaxslar bilan suhbat o'tkazib, jinoyat sodir etilgan paytda ularning qayerda bo'lganliklarini aniqlaydi, bergan ko'rsatmalarini tekshiradi va zarur hollarda ulardan tushuntirish xatlari oladi hamda ularni suhbat uchun tergov-tezkor guruhi rahbari oldiga olib keladi;

- jinoyat bo'yicha dastlabki tergov harakatlarini amalga oshirishda va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda yordam ko'rsatadi;

- tergovdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni tergovchining huzuriga olib kelish choralarini ko'radi.

Ma'muriy hududda sodir etilgan mazkur jinoyat bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan IIB boshlig'iga bildirgi orqali axborot beradi.

Yuqorida biz bevosita profilaktika inspektorlarining jinoyatga oid murojaatlarni ko‘rib chiqish faoliyatiga to‘xtalib o‘tdik. Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi murojaatlarni esa alohida bob tariqasida quyida ko‘rib chiqamiz.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, *ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari¹ning huquqbuzarlik alomatiga ega bo‘lmagan ijtimoiy munosabatlar hamda maishiy turmush sohasi bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqish faoliyatini* alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu murojaatlar alohida qonun va qonunosti me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarga asosan ko‘rib chiqiladi.

Profilaktika xizmati, xususan, profilaktika inspektorlari ko‘rib chiqadigan ushbu yo‘nalishdagi murojaatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan bemorning shaxsiy tashabbusi, shuningdek yaqin qarindoshlari, mahalla fuqarolar yig‘ini, mehnat jamoasi yoki sog‘liqni saqlash muassasalarining iltimosnomalari bilan ushbu toifadagi bemorlarni majburiy davolashga yuborish yuzasidan qilingan murojaatlarni.

Mazkur holatda murojaatlar O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-may hamda «Surunkali alkogolizm hamda giyohvandlikka yoki zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi IIV va Sog‘liqni saqlash vazirligining 1994-yil 27-dekabrda 326/599sonli «Surunkali alkogolizm hamda giyohvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi qo‘shma buyrug‘i talablari asosida ko‘rib chiqiladi.

2. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning o‘z bolalarini tarbiyalashga imkoni yo‘qligini bildirgan ota-onaning yoki ta‘lim jarayoniga jalb eta olmayotgan ta‘lim muassasalarining mazkur toifadagi voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish yuzasidan qilgan murojaatini.

Ushbu murojaatlar O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010-yil 29-avgust qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 268-sonli «Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 2010-yil 26-noyabr qarorida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

¹Bundan keyin matnda profilaktika xizmati deb qo‘llaniladi.

Profilaktika xizmati, xususan, profilaktika inspektorlariga buzilgan huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan qilinadigan murojaatlar va ularni hal etish tartibi.

1. Fuqarolar tomonidan «Mahalla posboni» jamoat tuzulmasining o'z vazifasini bajarmagan, faoliyati salbiy baholangan, qonunga zid xatti-harakatlar qilgan a'zosiga nisbatan qilingan murojaatlar. Bu kabi murojaatlar fuqarolar yig'ini raisining tavsiyasiga ko'ra fuqarolar yig'ini kengashida ko'rib chiqiladi hamda kengash qarori bilan o'z vazifasini bajarmagan, faoliyati salbiy baholangan, qonunga zid xatti-harakatlar qilgan shaxs tuzulma a'zolidan chiqariladi. So'ngra bu haqda profilaktika inspektori tomonidan «Mahalla posboni» jamoat tuzulmasi a'zolidan qabul qilish va a'zolikdan chiqarishni qayd etish» daftarida qayd etiladi.

2. Profilaktika (katta) inspektorining huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati rahbarlaridan biri yoki huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati apparati xodimlari ishtirokida o'tkaziladigan aholi oldidagi hisobot uchrashtirishida fuqarolarning profilaktika inspektorlarining xizmat faoliyatiga nisbatan sovuqqonligi yuzasidan bildirgan murojaatlari. Ushbu yo'nalishdagi murojaatlar IIVning shaxsiy tarkib bilan ishlashni tartibga soluvchi ichki buyruqlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va tegishli choralar ko'riladi.

Davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaatlarga taalluqliligiga ko'ra, ma'muriy hududda jamoat tartibin saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga doir militsiya tayanch punkti yoki profilaktika inspektorining yoxud ularning hamkorlikdagi faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaatlarni keltirish mumkin.

Ichki ishlar organlari, xususan, profilaktika xizmatlaridan davlat xizmati ko'rsatilishini talab etuvchi (elektron) so'rov (murojaat)lar ham mavjud bo'lib, bu borada ichki ishlar organlari jismoniy va yuridik shaxslarning (elektron) so'roviga ko'ra muayyan vazifalarni bajarish yo'li bilan xizmat ko'rsatadilar.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron hukumat to'g'risida»gi 2015-yil 9-dekabr qonunining 18-moddasiga binoan, elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari tarzida bo'lishi mumkin.

Axborot davlat xizmati jismoniy va yuridik shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan bo'lib, davlat organining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati esa jismoniy va yuridik shaxslarga jismoniy va yuridik shaxslar va elektron davlat xizmati ko'rsatuvchi davlat organi o'rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmati hisoblanadi.

Ushbu yo'nalishdagi xizmatlarga fuqarolarning so'roviga ko'ra huquqiy maslahatlar berish, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarga o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabar qilish, jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar orqali profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi-ning zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish kabi-larni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, profilaktika xizmatlaridan davlat xizmati ko'rsatili-shini talab etuvchi so'rov (murojaat)larga jismoniy shaxslarning fuqarolik pasportini olishni, almashtirishni, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini olishni so'rab qilingan murojaatlarini ham kiritish o'rinlidir.

Xullas, profilaktika xizmati, xususan, profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan ko'rib chiqiladigan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari shartli ravishda guruhlashtirildi. Ushbu guruhlarni murojaatning yoki uni ko'rib chiqish tartibining xususiyatidan kelib chiqib yanada takomillashti-rish mumkin.

Yuqorida biz murojaatlarni mazmunan muayyan guruhga mansubli-gini ko'rib chiqqan bo'lsak, quyida militsiya tayanch punkti (MTP), shu jumladan profilaktika (katta) inspektorlarining murojaatlar bilan ishlash faoliyatining individual tartibini yoritishga harakat qilamiz,

Ma'lumki mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari, xususan, profi-laktika xizmati tizimida olib borilgan islohotlar natijasida har bir mahalla-da militsiya tayanch punktlari faoliyat yuritmoqda. Mazkur militsiya tayanch punktlari faoliyatini tartibga solib turuvchi normativ hujjatlar, jumladan IIVning «Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnomani tasdiqlash haqi-da»gi buyrug'i talablari asosida profilaktika inspektorlari fuqarolarni MTPlarda ham qabul qilish va ularning murojaatlarini ko'rib chiqishga haqli hisoblanadi. Chunki fuqarolarni qabul qilish va murojaatlarini ko'rib chiqish profilaktika (katta) inspektorlarining xizmat faoliyati shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Profilaktika (katta) inspektorlari o'ziga birikti-rilgan ma'muriy hududdagi MTPda fuqarolarni tasdiqlangan jadval asosi-da va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qabul qiladi.

Binobarin, qabul qilish tartibi va jadvali, qabulni o'tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish tartibi to'g'risidagi axborot ichki ishlar organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish, shuningdek ularning ma'muriy binosida hamma kirishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilishi mumkin.

Fuqarolarni qabul qilish jadvali ichki ishlar organi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Jadvalda IIB rahbariyati, uning yuqori organlari rahbariyati tomonidan haftaning qaysi kunlari, kunning qaysi vaqtlarida fuqarolarni qabul qilishga oid ma'lumotlar o'z ifodasini topmog'i lozim.

Umuman olganda, fuqarolar ichki ishlar organlari vakolati doirasidagi masalalarni hal etish huquqiga ega bo'lgan rahbarlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinadi. Qabul avvaldan belgilangan kun va soatlarda, fuqarolar uchun qulay bo'lgan vaqtda o'tkazilishi lozim. Fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida ichki ishlar organining rahbari yoki boshqa vakolatli shaxslari tomonidan sayyor shaxsiy qabullar ham tashkil etilishi mumkin.

Sayyor shaxsiy qabullarni o'tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish tartibi to'g'risidagi axborotlar ham yuqorida keltirib o'tilgan tartibda manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilishi, shuningdek mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin.

Sayyor shaxsiy qabullar ichki ishlar organi rahbari tomonidan tasdiqlanadigan jadvalga muvofiq, zarur hollarda esa jadvalda nazarda tutilmagan bo'lsa ham o'tkazilishi va bu qabullarda bevosita mazkur ma'muriy hudud profilaktika (katta) inspektori ham ishtirok etishi mumkin.

Ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar talabiga ko'ra, har bir MTPda fuqarolarni qabul qilish uchun munosib, qulay shart-sharoitlarga ega maxsus xonalar ajratilgan, shuningdek fuqarolarning ariza va shikoyatlari uchun maxsus quti o'rnatilgan bo'lishi kerak. Fuqarolarning maxsus xonalarga hech qanday ruxsatsiz va erkin kirishi ta'minlanishi zarur.

Fuqarolarni qabul qilish chog'ida profilaktika inspektorlari yuksak kasbiy va insoniy fazilatlarini namoyon qilishi, fuqarolar bilan xushmuomalada bo'lishi, estetika qoidalariga rioya qilishi (fuqarolarga e'tiborsiz bo'lmasligi, qabul vaqtida tamaki mahsulotlarini chekmaslik va boshqa ishlar bilan chalg'imasligi kabilar) talab etiladi.

Ma'lumki, MTPlarda profilaktika (katta) inspektori tomonidan «Fuqarolarni qabul qilish kitobi» yuritilib, kitobda murojaat qilgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar, sana va murojaatlarning qisqacha mazmuni qayd etib boriladi.

Kitobda fuqarolar tomonidan maxsus qutiga tashlab ketilgan muayyan shakldagi murojaatlar yoki to'g'ridan-to'g'ri qilingan murojaatlar, og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, bir xil tartibda qayd etib boriladi.

Agar profilaktika (katta) inspektoriga fuqarolar jinoyat haqidagi ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilsa, profilaktika (katta) inspektori bu haqda zudlik bilan ichki ishlar organi navbatchilik qismiga telefon orqali, xabarlar tafsiloti yozib olinadigan telefon aloqalari o'rnatilgan organlarda esa shunday telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib, xabar beradi. Bordi-yu, murojaatlar sodir etilgan jinoyatlar va bedarak yo'qolgan shaxslar bilan bog'liq ariza yoki xabar shaklida bo'lsa, u holda murojaatlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa tegishli qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida va tartibda qabul qiladi.

Jinoyat haqidagi ariza va shikoyatlar bilan bog'liq murojaatlardan tashqari boshqa barcha shakldagi yozma murojaatlar ichki ishlar organi kotibiyatida shu kunning o'zida qayd qilinishi shart.

Agar profilaktika inspektoriga MTPga o'rnatilgan murojaatlarni qabul qilish qutisi yoki boshqa yo'llar orqali anonim tarzda yozilgan xatlar kelib tushsa, profilaktika inspektori bu haqda bildirgi asosida zudlik bilan IIB rahbariyatiga axborot beradi. Bordi-yu, murojaatda tezkor qiziqish uyg'otadigan ma'lumotlar mavjudligi kuzatilsa, u holda rahbariyatning siporishi asosida ushbu anonim murojaat ro'yxatga olinmasdan bevosita profilaktika inspektori yoki tezkor xizmat xodimlariga tezkor yo'llar orqali tekshirib ko'rish uchun taqdim etilishi mumkin.

Agar fuqaroning bir necha bor qilgan murojaati asossiz yoki qonunga xilof xususiyatga ega bo'lsa yoxud uning murojaati bo'yicha qaror qabul qilingan bo'lsa, u holda profilaktika (katta) inspektori uni qabul qilishni rad etishi mumkin.

Profilaktika (katta) inspektori fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlaridagi ma'lumotlardan ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarni fosh etish, qidiruvdagi va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va o'z xizmat faoliyatini takomillashtirishda foydalanishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, fuqarolarning murojaatlari hamma vaqt qonuniy tartibda, o'z vaqtida, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqilishi lozim. Aks holda qonunchilikdagi demokratizm, insonparvarlik va adolat kabi prinsiplarning qo'pol tarzda buzilishi kelib chiqadi.

1.2. Profilaktika inspektorlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ko‘rib chiqilishining ta‘minlanishi

Qo‘llanmaning avvalida «jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari» tushunchasi, ularning turlari, muddatlari, murojaatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi kabi masalalarga to‘xtaldik. Endi esa bevosita ushbu murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibini mazmunan va protsessual jihatdan o‘rganishga harakat qilamiz.

Yuridik adabiyotlarda «ish yuritish», «ko‘rib chiqish» tushunchalari mavjud bo‘lib, mazkur tushunchalar mazmun va hajm jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Qolaversa, «ish yuritish» tushunchasi aksariyat hollarda huquqbuzarlikka oid murojaatlarda qo‘llaniladi. Chunki sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat bo‘yicha dastlabki tekshiruv natijalariga ko‘ra ma‘muriy yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi bilan to‘plangan hujjatlar shaklan «ish» maqomiga ega bo‘ladi. Biroq, ushbu holatda ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda bayonnoma tuzilib, ba‘zan tuzilmasdan ham tegishli ma‘muriy ta‘sir choralari ko‘rilishi mumkin bo‘lgan holatlar istisno etiladi.

Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, profilaktika inspektorlari garchi amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasi 2-qism 4-bandiga asosan ma‘muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiquvchi subyekt sifatida e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, ammo har doim ham ma‘muriy huquqbuzarlik ishlarini ko‘rib chiqavermaydi va qonunda belgilangan to‘qqiz turdagi ma‘muriy huquqbuzarlik ishlarinigina ko‘rib chiqish vakolatiga ega.

Mazkur holatda «ko‘rib chiqish» tushunchasi tor ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lib, asosan sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘yicha uni sodir etgan shaxsning qilmishini baholash va qilmishiga yarasha ma‘muriy ta‘sir chorasini qo‘llash vazifasini amalga oshirish doirasi bilan chegaralanadi. Jinoyat ishlari bo‘yicha esa profilaktika inspektorlari hech qanday «ko‘rib chiqish» vakolatiga ega emaslar.

Masalaga bu tarzda yondashuv «ish yuritish» «ko‘rib chiqish»ga nisbatan kengroq tushuncha ekanligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, profilaktika inspektorlari vaziyatga qarab jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini bevosita ko‘rib chiqishi, ko‘rib chiqish yuzasidan dastlabki tekshiruvni amalga oshirishi yoki ish yurituvini olib borishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari mazmunan huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lmagan murojaatlar hamda huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan murojaatlar ga bo‘linishi mumkin.

Huquqbuzarlik alomati mavjud bo'lmagan murojaatlar – jismoniy va yuridik shaxslarning sodir etilib, tarkibida ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat tarkibi mavjud bo'lmagan g'ayriijtimoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) yoki ijtimoiy hayotga oid boshqa masalalar bilan bog'liq murojaatlar.

Profilaktika inspektori har qanday masala, jumladan o'z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha ham fuqarolarning murojaatlarini rad etishga haqli emas. Bu borada jismoniy va yuridik shaxsning shunday xususiyatga ega bo'lgan ilgarigi murojaati bo'yicha qaror qabul qilinganlik va bu haqda ularga belgilangan tartibda xabar qilinganlik holati istisno etiladi.

Shu bois kelib tushgan murojaatga doir holatni to'liq o'rganib chiqish, murojaatni ko'rib chiqish yuzasidan taalluqlilik masalasini hal qilish, murojaatni ko'rib chiqish jarayonida doimiy ravishda qonuniylik, insonparvarlik, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplarga rioya qilish, tomonlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash va qoplash choralarini ko'rish kabilarning amalga oshirilishini ta'minlash talab etiladi.

Profilaktika inspektori o'zi shaxsan ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lmagan murojaatlar bo'yicha quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1. Murojaat bilan tanishish jarayonida unda bayon etilgan masalani hal etish vakolatiga kirmasligini aniqlasa, murojaat etuvchiga murojaatda bayon etilgan masalani hal etish uchun qaysi organ yoki tashkilotga murojaat qilish kerakligini tushuntiradi.

2. Dastlabki yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirib, to'planagan hujjatlarni tegishli chora ko'rish uchun murojaatni ko'rib chiqish vakolatiga ega davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuborish choralarini ko'radi.

Huquqbuzarlik alomati mavjud bo'lgan murojaatlar – jismoniy va yuridik shaxslarning sodir etilib, tarkibida ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyatning tarkibiy qismlari mavjud bo'lgan g'ayriijtimoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) bilan bog'liq murojaatlari.

Jismoniy va yuridik shaxslarning ma'muriy yoki jinoiy huquqbuzarlikka oid murojaatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Shu o'rinda profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyat haqidagi murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatini atroflicha yoritishga harakat qilamiz. Chunki bugungi kun amaliyotida ba'zida profilaktika inspektorlarining e'tiborsizligi, tajribasizligi yoki bu boradagi

huquqiy bilimlarining yetishmasligi sababli fuqarolarning jinoyat haqidagi murojaatlarini ko'rib chiqishda xato va kamchiliklar uchrab turibdi. Natijada profilaktika inspektorlari intizomiy, eng achinarlisi, ba'zida jinoiy javobgarlikka tortilmoqdalar.

Fuqarolar profilaktika (katta) inspektoriga jinoyat haqidagi ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilganlarida, u IIVning 131-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaning 12-bobi talablari asosida harakat qiladi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyat haqidagi murojaatlarini ko'rib chiqish ish yuritishning tergovga qadar tekshiruv bosqichini o'z ichiga oladi.

Mazkur normaga asosan, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va *darhol*, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sababning qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa *o'n sutkadan* kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari Jinoyat-protsessual kodeksining 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va ekspertiza o'tkazish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatini o'tkazish taqiqlanadi.

Tergovga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga ko'ra, prokuror tomonidan *bir oygacha* uzaytirilishi mumkin:

- 1) o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qilinadigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, hujjatli taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa;
- 2) olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo'lsa;
- 3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo'shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa (JPK 329-m.).

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi «Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibi» deb nomlanganligi hamda ushbu normada faqat tergovga qadar tekshiruv va uni olib borish muddatlari bayon etilganligi e'tiborga olinsa, u holda jinoyat

protsessida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish va tergovga qadar tekshiruv bir xil mazmunga egaligi oydinlashadi.

Demak, tergovga qadar tekshiruv bosqichining muddati o'n sutkagacha etib belgilangan bo'lib, alohida hollarda ushbu muddat prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi ham mumkin va bu muddat bir vaqtning o'zida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish muddatini ham o'zida ifodalaydi.

Jinoyatga oid ariza va xabarlarni ko'rib chiqish natijasida profilaktika inspektorlari tomonidan quyidagi qarorlardan birining qabul qilinishi talab etiladi:

- 1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida;
- 2) ishni qo'zg'atishni rad qilish haqida;
- 3) ariza yoki xabarni tegishliligiga qarab tergovga yuborish haqida (JPK 330-m.).

Jinoyat ishini qo'zg'atish. Jinoyat ishini qo'zg'atish amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning 321 va 322-moddalari asosida amalga oshiriladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishga quyidagilar sabab bo'ladi:

- 1) shaxslarning arizalari;
- 2) korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar;
- 3) ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar;
- 4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning bevosita o'zi aniqlashi;
- 5) aybini bo'yniga olish haqidagi arz.

Tergovga qadar tekshiruv davomida aniqlangan jinoyat belgilari (tarkibi)ning mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun *asos* bo'lib xizmat qiladi.

Agar, jinoyat haqida xabar kelib tushganligiga qaramay, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning 84-moddasi 1-qismining 6-bandiga asosan (JPK 325-m.) jabrlanuvchining shikoyati bo'lmasa, u holda ushbu xabar jinoyat ishini qo'zg'atishga asos bo'lmaydi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish. Tergovga qadar tekshiruv natijasida jinoyat belgilari (tarkibi)ning mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar aniqlanmasa, boshqacha aytganda, jinoyat ishini qo'zg'atishga yetarlicha asos bo'lmasa, unda profilaktika inspektori tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish qarori chiqariladi (JPK 333-m.).

Ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish. Agar ariza yoki xabar tergovga taalluqli bo'lsa, u holda profilaktika inspektori

vakolati doirasida tergovga qadar tekshiruvni o'tkazib va kechiktirib bo'lmaydigan protsessual harakatlarni amalga oshirib yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirmasdan ham JPKning 344 va 345-moddalari talablari asosida tergovga tegishliligi bo'yicha yuborilishi talab etiladi.

Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar ichki ishlar organlariga kelib tushishi bilan 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnaliga qayd etilgach, zudlik bilan shahar-tuman IIB boshlig'iga ma'lum qilinadi va jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga amal qilgan holda tekshiruv ishlari tashkil etiladi.

Agar xabar tasdiqlanmasa, uydirma yoki yolg'on bo'lsa, «Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish qarori» tuzilib, yig'majild yopiladi. Qaror IIB boshlig'i tomonidan tasdiqlanganidan so'ng hisob-qayd etish inspektori tomonidan yuritiladigan «jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish materiallarini qayd etish kitobi»da navbatdagi raqam bilan hisobga olinadi va hududiy prokurorga o'rganib chiqish uchun yo'naltiruvchi xat bilan taqdim etiladi.

Taqdim etilgan materiallar prokuror tomonidan o'rganib chiqiladi, agar qabul qilingan qaror bo'yicha rozilik bildirilsa, u holda to'plangan materiallar yana xat orqali hisob-qayd etish inspektoriga qaytarib yuboriladi va arxivda uch yil saqlanadi.

Bordi-yu, qabul qilingan qarordan prokuror norozi bo'lsa, u holda materiallarni qayta ko'rib chiqish va jinoyat alomatlari mavjudligi bois jinoyat ishini qo'zg'atish uchun yoki prokuror tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan holda xat orqali qaytariladi. Ushbu holatda jinoyat markazlashgan hisobdan yashirilgan deb topiladi hamda hisobotda aks ettiriladi.

Ichki ishlar organiga kelib tushgan jinoyatga oid har bir ariza, xabar, hodisa to'g'risidagi yozma ma'lumot ijrosi shahar-tuman IIB boshlig'i yoki uning vazifasi yuklatilgan shaxslar tomonidan muayyan bir xodim (jumladan, profilaktika inspektori)ga yuklatilib, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ko'rsatilgan muddatlarda ijro etilishi belgilanib, yozma topshiriq beriladi.

2-shakl jurnalida har bir tushgan xabar bo'yicha tekshiruv muddatlari qayd etilib boriladi. Ichki ishlar bo'limi navbatchisi navbatchilikni topshirishda 2-shakl jurnali asosida navbatchilik kuniga qadar muddati o'tgan yoki tugagan xabarlar ro'yxatini tuzadi va bu haqda o'z bildirgisida ko'rsatib, IIB boshlig'iga yoki keyingi navbatchiga ma'lum qiladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan materiallar ichki ishlar organlarida jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan materiallarni hisobga olish jurnaliga qayd etiladi va shahar-tuman IIB hisob-qayd etish inspektori tomonidan yuritiladi. Unga ham hisobot yili boshidan tartib raqami beriladi.

Profilaktika inspektori jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan barcha materiallar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarorini chiqarishi va surishtiruv organi boshlig'i (IIB boshlig'i yoki xizmat boshlig'i) yoki uning vakolatli o'rinbosariga tasdiqlatishi lozim. Surishtiruv organi boshlig'i profilaktika inspektori tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilishi rad etilgan materialni tasdiqlashdan oldin uning asosligini tekshirib, tergov organi tomonidan o'rganib chiqilgani to'g'risida imzo borligiga ishonch hosil qilgach, prokuratura organi bilan qonuniyligini kelishgan holda tasdiqlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yilgi buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaning 12-bandiga asosan, faqat chaqiruv o'z tasdig'ini topmasa va yolg'on xabar bo'lgandagina xulosa chiqariladi¹. Shunda ham hodisa sodir bo'lgan joyga chiqilgach, uni ko'zdan kechirish haqida bayonnoma tuzilib, barcha tegishli hujjatlar yig'iladi, so'ngra surishtiruv organi boshlig'iga tasdiqlatib, maxsus nomenklatura yig'majildiga to'plani va saqlash uchun statistika kichik noziriga topshiriladi.

Qolgan barcha holatlarda, shu jumladan tibbiyot muassasalari bilan bo'lgan taqqoslash davomida ham, xabar o'z tasdig'ini topmasa, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror chiqarilishi shart.

Jinoyat haqida kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish davrida jinoyatlarni markazlashgan hisobdan yashirish holatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ochiqdan-ochiq jinoyat haqidagi arizani qabul qilmaslik yoki qabul qilib, hech qayerda qayd etmaslikda;

– hududiylik bo'yicha jinoyat haqidagi hujjatlarni yuborish asoslarini soxtalashtirib, chiqish xati bilan jinoyatni hisobdan chiqarib yashirishda;

– jinoyat haqidagi arizada jinoyat alomatlari mavjud emas deb, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasining 2-bandi asosida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish qarorini chiqarish hamda ma'muriy tartibda ko'rib chiqish uchun hujjatlarni soxtalashtirishda;

– pochta orqali kelgan jinoyat haqidagi arizani ko'rish jarayonida jinoyat alomatlari yo'q degan vajga asoslangan holda xulosa chiqarish yo'li bilan markazlashgan hisobdan yashirishda.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksiga «Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish» nomli 241¹-moddaning kiritilishi jinoyatlar to'g'risidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish,

¹ Amalda har bir holat bo'yicha «Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish» qarori qabul qilinadi.

ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilab berdi.

Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi, *birinchidan*, odil sudlov organlarining normal ishlash faoliyatini buzadi, ularni obro'sizlantiradi va mavqeiga putur yetkazadi. Bu esa fuqarolarning adolat qaror topishiga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchi yo'qolishiga olib keladi. Fuqarolarda jinoyat qonunining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan javobgarlik muqarrarligiga shubha uyg'otadi va aybdorlarning javobgarlikka tortilmay qolishiga imkon yaratadi. *Ikkinchidan*, jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish adolatning qaror topishiga to'sqinlik qiladi, jinoyatning latentlik darajasini oshiradi va odil sudlov organlarining obro'sini tushiradi.

Jinoyat haqida kelib tushgan ariza va xabarlarni qabul qilishda jinoyatni hisobdan yashirish holatlarining oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezident Devoni topshirig'iga binoan, 2008–2009-yillarda izlanishlar olib borildi. Natijada soha mutaxassislari hamda kompyuter texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarni jalb qilgan holda Toshkent shahrida IIBB Navbatchilik qismining markazlashgan «102» xizmati bazasida «Jinoyat va hodisalar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimi» joriy etildi. Bu tizimni bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududlarida joriy etish belgilangan.

Biriktirilgan ma'muriy hududda faoliyat olib boradigan profilaktika inspektorlariga aksariyat hollarda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar bo'yicha ham murojaatlar bo'lib turadi. Bunday paytlarda, huquqbuzarlik ma'muriy yoki jinoiy bo'lishidan qat'i nazar, profilaktika inspektoridan, avvalo, tartibbuzarlikni to'xtatish, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va doimiy ravishda shaxsiy xavfsizlik choralari ko'rish talab etiladi. Bu borada vaziyatga qarab ma'muriy hududga sohaviy xizmatlardan biriktirilgan va jamoat tuzulmalaridan iborat qo'shimcha kuchlar imkoniyatidan foydalanish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida protsessual harakatlarni amalga oshirish hamda protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishda qonun talablariga qat'iy rioya qilishlari talab etiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyat haqidagi ariza yoki xabari yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atish va zudlikda zarur hamda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini o'tkazish talab qilinadigan vaziyatlar profilaktika inspektori uchun murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki profilaktika inspektori aksariyat hollarda hodisa sodir bo'lgan joyga birinchi

bo‘lib yetib keladi va shu bois zudlik bilan hodisa tafsilotlari haqida birlamchi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, jinoyat sodir etgan shaxs haqida ma‘lumotlar to‘plash choralarini ko‘rishi talab etiladi. Tergov-tezkor guruhi zudlik bilan yetib bora olmaydigan olis qishloq va ovullarda jinoyat sodir etilishi esa ushbu masalani yanada murakkablashtiradi. Qolaversa, amaliyotda ko‘pchilik holatlarda tergovga qadar tekshiruv profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois profilaktika inspektorining tergovga qadar tekshiruv faoliyatini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat ishi bo‘yicha profilaktika inspektorining tergov-tezkor guruhsiz hodisa sodir bo‘lgan joyga chiqishi, u yerni ko‘zdan kechirishi va boshqa harakatlarni bir o‘zi amalga oshirishini eng qiyin vaziyat deb hisoblash mumkin. Bunday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun profilaktika inspektoridan bilim, qobiliyat, fazilat, malaka va ko‘nikmalar: ishlar bo‘yicha samarali reja tuzish, his-tuyg‘ularni jilovlash, ruhiy tetiklik, hissiy barqarorlik va o‘zini uyushtira bilish kabi sifatlar talab etiladi.

Jinoyat ishi yurituvining tergovga qadar tekshiruv bosqichi, Jinoyat-protsessual kodeksning 329-moddasiga asosan, qo‘shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish va ekspertiza o‘tkazish protsessual harakatlarining sifatli va samarali amalga oshirilishi talab etiladi.

Ma‘lumki, tergovga qadar tekshiruvni profilaktika inspektorlari ham surishtiruvchi sifatida bevosita yoki bilvosita amalga oshiradi. Bunda profilaktika inspektorlari surishtiruvchi tariqasida bevosita harakat qilsa, bilvosita harakatni surishtiruv organi boshlig‘i, tergovchi yoki prokurorning topshirig‘i asosida amalga oshiradi.

Har ikkala holatda ham profilaktika inspektorlaridan sinchkovlik, ziyaraklik, muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirish va unda ishtirok etishda professional yondashuv talab etiladi. Profilaktika inspektorlarining tergovga qadar tekshiruv jarayonida «issiq izlar»ni saqlab qolmasligi, protsessual harakatlarni to‘liq va sifatli amalga oshirmasligi va shu orqali zarur ma‘lumotlarni to‘plamasligi ko‘pchilik hollarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Profilaktika inspektori tergovga qadar tekshiruv jarayonida bevosita harakatlanganda uning tafakkuri faqat o‘z faoliyatini aks ettirib va yo‘naltiribgina qolmay, ishning barcha ishtirokchilari va ishga daxldor shaxslarning aqliy (intellektual) darajasi, ruhiy holatlarini hisobga olishi, uni qiyoslashi, muvofiqlashtirib borishi lozim. U nafaqat o‘zi, balki o‘zgalar uchun ham fikr yuritishi, qaror va xatti-harakatlarni oldindan ko‘ra olishi, ularni yo‘naltirib turishi hamda ana shu omillardan kelib chiqib, o‘z xulq-

atvorini idora etishi zarur. Ushbu jarayonda manfaatlari turli-tuman, bir-biriga mos kelmaydigan, ba'zan butunlay qarama-qarshi bo'lgan shaxslar: profilaktika inspektori va jinoyat sodir etgan shaxs, tushuntirish beruvchi va tushuntirish olayotgan hamda boshqalar to'qnash keladilar.

Tergovga qadar tekshiruvni olib borish davrida hujjatlar talab qilish protsessual harakati asosan rasmiy so'rov xatlarini tuzish, yuborish va ularga javob olish asosida amalga oshiriladi. Bordi-yu, talab asossiz ravishda rad etilsa, unda belgilangan tartibda chora ko'rish lozim. Talab qilib olinadigan hujjatlar tekshiruv natijasida jinoyat ishini qo'zg'atishga asos bor yoki yo'qligi haqida qaror qabul qilish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatlar asosan korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan talab qilib olinadi.

Aynan shu maqsad yo'lida fuqarolar, mansabdor shaxslar va xizmat-chilardan tushuntirishlar talab qilib olishlari ham mumkin. Ushbu tushuntirishlar vakolatli davlat xizmatchisi tomonidan tushuntirish xatlarini rasmiylashtirish orqali olinadi. Ayni paytda, ushbu tushuntirishlarni talab qilib olish va tushuntirish xatlarini rasmiylashtirishning protsessual tartibi jinoyat-protsessual qonunchilikda o'z aksini topmagan. Mazkur protsessual harakat shu davrgacha amaliyotda shakllangan tartib va talablar asosida amalga oshirilib kelinmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, amaliyotda ham ushbu protsessual harakat turli joylarda turlicha amalga oshirilib va rasmiylashtirilib kelinmoqda. Fikrimizcha, qonun talablari va amaliyotda o'rnatilgan tartibga mantiqiy va asosli tarzda yondashib, namuna sifatida tushuntirish xatlarini rasmiylashtirishning quyidagi tartibda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

Profilaktika inspektori jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqishda tergovga qadar tekshiruv yuzasidan belgilangan tartibda hodisa shohidlari yoki ishga taalluqli boshqa shaxslarni so'rovdan o'tkazib, yozma ravishda tushuntirishlar oladilar. Mazkur tushuntirishlar tushuntirish xatlari orqali rasmiylashtiriladi.

So'rov natijasida olingan ma'lumotlar mavjud boshqa ma'lumotlarga zid kelmasagina jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun daliliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumot sifatida xizmat qiladi.

Tushuntirish xatlarida: tushuntirish beruvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan joyi va sanasi, ish joyi, lavozimi, unvoni, yashash joyi), holat yoki ish yuzasidan unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning tavsifi, tushuntirishlarga aniqlik kiritish

maqsadida berilgan qo‘shimcha savollar (kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo‘naltirish mazmunidagi savollar berish taqiqlanadi) va ularga javoblar, tushuntirish beruvchining tushuntirish xatini o‘z so‘zidan yoki o‘z qo‘li bilan yozilganligini tasdiqlashi, tushuntirish xati olingan sana va tushuntirish xatini olayotgan profilaktika inspektorining imzosi aks ettiriladi. Basharti, tushuntirish xati bir necha sahifadan iborat bo‘lsa, har bir sahifaga alohida imzo chekiladi, agar tarjimon ishtirok etgan bo‘lsa, u holda tarjimon ham xuddi shu tartibda imzo chekadi.

Olingan tushuntirish xatlari profilaktika inspektori tomonidan holat yuzasidan to‘plangan hujjatlarga qo‘shiladi.

Yuqorida biz tergovga qadar tekshiruv bir vaqtning o‘zida jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyat haqidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish mazmuniga egaligi haqida fikr yuritdik. Shunday ekan, mazkur jarayon hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, qo‘shimcha hujjatlar va tushuntirishlar talab qilish olish bilan bir qatorda shaxsni ushlab turish va ekspertiza o‘tkazish protsessual harakatlarining ham amalga oshirilishini talab etadi. Ushbu protsessual harakatlar Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan umumiy asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi. Murojaatni ko‘rib chiqish natijasida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- 1) jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqida;
- 2) ishni qo‘zg‘atishni rad qilish haqida;
- 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida.

Mazkur qarorlarning yetarlicha asoslantirilganligi va belgilangan muddatda qabul qilinganligi murojaatning qonunlar talablariga rioya etilgan holda to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilganligini anglatadi.

1.3. Profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqishning huquqiy asoslari haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, barcha qonunlarning asosi hisoblangan Konstitutsiyamizning moddalariga murojaat etsak, o‘rinli bo‘ladi. Jumladan, Asosiy qonunning quyidagi moddalari jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayonini bevosita tartibga solinishini ta‘minlaydi hamda yo‘naltiruvchi bosh qoida va talab sifatida namoyon bo‘ladi:

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir (24-m.).

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (25-m.).

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas (26-m.).

Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas (27-m.).

O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim (30-m.).

Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart (35-m.).

Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi (43-m.).

Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi (44-m.).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan **«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuni** ham bu borada muhim ahamiyat kasb etib, unda fuqarolarning murojaat etish huquqi, murojaatning shakllari, turlari, murojaatlarga qo'yiladigan talablar, uni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari, murojaatlarni ko'rib chiqishda fuqarolarning huquqlari va davlat organlari-

ning majburiyatlari, fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik kabi masalalar to'liq o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonuni ham bu yo'nalishda muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun jismoniy va yuridik shaxslarga erkin murojaat qilish, murojaat qilish huquqidan foydalanish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov (og'zaki, yozma yoki elektron hujjat shaklida)ni amalga oshirish kabi imkoniyatlarni beradi.

Qonunning 14-moddasida belgilangan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'zlari egallab turgan hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarda va (yoki) boshqa ajratilgan joylarda tegishli organning faoliyati to'g'risidagi axborot bilan axborotdan foydalanuvchilar tanishishi uchun axborot stendlarini va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan boshqa texnik vositalarni joylashtirishi shart» mazmunidagi qoidaga ko'ra, har bir MTPning hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalari va (yoki) boshqa ajratilgan joylarda joylashtirilgan axborot stendlari va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan boshqa texnik vositalarda quyidagilar bo'lishi talab etiladi:

- ichki ishlar organlari, xususan, MTPning huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati;

- yuqori turuvchi ichki ishlar organlari, xususan, MTPning ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar, ma'lumot xizmati, ishonch telefonlarining raqamlari;

- ariza, taklif hamda shikoyatlarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi axborot;

- ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovni qabul qilish tartibi haqidagi axborot;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining ro'yxati.

Bundan tashqari, shuni alohida ta'kidlash joizki, Qonunning 19-moddasiga asosan jismoniy va yuridik shaxslar ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish uchun og'zaki, yozma yoki elektron hujjat shaklida so'rovlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu murojaatlar o'n besh kunlik muddat ichida ko'rib chiqilishi kerak. Faqat ommaviy axborot vositalarining so'rovigina yetti kunlik muddat ichida ko'rib chiqilishi talab etiladi.

Qonunning 20-moddasida bevosita so‘rovga qo‘yiladigan talablar o‘z ifodasini topgan.

E‘tiborli tomoni shundaki, jismoniy va yuridik shaxslarning bu tarz-dagi murojaati ularning ariza, taklif va shikoyat mazmuniga ega murojaati-dan farqlanadigan alohida yo‘nalishga ega murojaat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risi-da»gi qonuni. Mazkur qonunda elektron hujjat, elektron hujjat aylanishi, elektron hujjatning rekvizitlari, elektron hujjatning yuridik kuchi va uning qog‘oz nusxasi kabilar bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tartib-ga solingan.

Modomiki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ichki ishlar organlarining muayyan xizmatni ko‘rsatishiga yoki muayyan vazifani amalga oshirishiga asos bo‘lar ekan, unda ushbu murojaatlar ham, qanday shaklda bo‘lishidan qat’i nazar, hujjat maqomiga ega bo‘ladi. Qonunda esa elektron hujjatning majburiy rekvizitlari tariqasida quyidagilar keltirilgan:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo‘natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Shu o‘rinda ***O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi qonunini*** ko‘rib chiqish mantiqan o‘rinli hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilganidek, elektron hujjatga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri elektron raqamli imzo sanaladi. Ushbu Qonun bilan aynan elektron raqamli imzoning qo‘lda qo‘yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga egaligi, elektron raqamli imzoning vositalari, elektron raqamli imzo kaliti-ning sertifikatini kabilar bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tartib-ga solingan

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabr kuni qabul qilingan «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi qonuni. Ushbu Qonun, *avvalo*, davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir fao-liyatini tartibga solish, *ikkinchidan*, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chor-tadbirlar va texnik vositalar tizimini yaratishga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunning «Asosiy tushunchalar»ga bag‘ishlangan normasida davlat xizmati, so‘rov (ya‘ni elektron so‘rov), ariza beruvchi, idoralararo hamkorlik qilish, elektron hukumatning yagona identifikatorlari, elektron davlat

xizmatining reglamenti, elektron davlat xizmati kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. «*Davlat xizmati* – ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarning vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat», «*so'rov* – ariza beruvchining davlat xizmati ko'rsatilishi to'g'risida davlat organlariga yuboriladigan talabi», «*ariza beruvchi* – davlat organiga so'rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs» mazmunida tushunchalarga berilgan ta'rif shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, Qonunning 6-moddasida «Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi prinsipi» hayd etilgan bo'lib, ushbu prinsipga asosan elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari ariza beruvchi so'rovining ko'rib chiqilishi holati va xizmatlar ko'rsatilishi natijalari to'g'risidagi axborotni tegishli xabarlarni elektron shaklda yuborish yo'li bilan uning talabiga ko'ra taqdim etadi.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, Qonunning 28-moddasiga asosan, elektron davlat xizmatlari jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organlarining rasmiy veb-saytlari orqali hamda davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishning yagona nuqtasi bo'lgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladi.

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi axborotni o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi.

Qonunning to'rtinchi bo'limi «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish» deb nomlanib, unda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning protsessual tartibi belgilanganligini inobatga olsak, O'zbekiston Respublikasining ***Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi*** ham murojaatlarni ko'rib chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Binobarin, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining «Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi» deb nomlangan XVIII bobining 248-moddasi 2-hismi 4-bandida profilaktika inspektorlari to'qqiz turdagi ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolatiga egaligi belgilangan.

O'z navbatida, aksariyat hollarda ma'muriy huquqbuzarliklar aynan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida ko'rib chiqiladi. Shuni inobatga oladigan bo'lsak, mazkur Qonunning profilaktika inspektorlarining murojaatlarni ko'rib chiqish faoliyatini tartibga solish va tashkil etishdagi ahamiyati naqadar kattaligini anglaymiz.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining amaldagi ***Jinoyat-protsessual kodeksi*** ham asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri sanaladi. Uning 329-moddasida jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ko'rib chiqish

ish yuritishning tergovga qadar tekshirish bosqichida amalga oshirilishi, tergovga qadar tekshiruv bosqichi esa, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilganiga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari ushbu Kodeksning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilganiga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga olishi belgilangan. Shu bois kodeksning «Jinoyat ishini qo'zg'atish» deb nomlangan 41-bobini hamda tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi belgilangan 587-moddasini bevosita jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ko'rib chiqish tartibi belgilangan normalar tariqasida keltirib o'tish mumkin.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlarida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning ko'rib chiqilishi hamda jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qaror qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi JPKning 329 va 330-moddalari bilan bir qatorda 1993-yilning 5-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Ichki ishlar vaziri hamkorlikda qabul qilgan «*Ichki ishlar idoralarida jinoyat haqidagi ariza, shikoyat va boshqa turdagi xabarlarni qabul qilish, hisobga olish, qayd etish va hal etish tartibi*» to'g'risidagi buyrug'i, shuningdek mazkur buyruqqa o'zgartirish va qo'shimcha tariqasida 1996-yilning 17-iyul kuni qabul qilingan buyruq talablari asosida amalga oshiriladi.

Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining barcha turdagi boshqarma, muassasa va mustaqil bo'limlari, tergov hibsonalari, jazoni ijro etish muassasalari uchun yagona tartibni belgilaydi, ya'ni unga asosan:

– ichki ishlar organlariga kelib tushgan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi har bir holat bo'yicha ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan tekshiruv harakatlari o'tkazilishining majburiyligi;

– ular ustidan tegishli tartibda nazorat ishlarini yuritish;

– ichki ishlar organlariga kelib tushgan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi har bir holat o'z vaqtida qayd etilishi, ular bo'yicha tegishli tartibda qonuniy qaror qabul qilinishi hamda uning statistik hisobotini olib borish vazifalari yuklatilgan.

Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv jarayonida jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos keltirish maqsadida ekspertiza o'tkazilishi mumkinligi bizga ma'lum. Ekspertizani o'tkazish asoslari va protsessual tartibi esa Jinoyat-protsessual kodeksi (22-bob, 67, 68-m,) bilan birga, O'zbekiston

Respublikasining «*Sud ekspertizasi to'g'risida*»gi qonuni bilan ham tartibga solinadi.

Qonunning 3-moddasida «sud ekspertizasi – fuqarolik, xo'jalik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat» ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, qonunda sud ekspertizasining turlari (qo'shimcha, qayta, komissiyaviy hamda kompleks sud ekspertizalari), sud ekspertining huquq va majburiyatlari, sud ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlari kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Aynan ekspertizalarning o'z vaqtida tayinlanishi, ekspertlar oldiga aniq va to'liq savollarning qo'yilishi, aniqlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarning batafsil tekshirilishi murojaatlarning har tomonlama va to'liq ko'rib chiqilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-martdagi «*Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida*»gi 73-sonli qarori ham ushbu sohadagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Ushbu qaror bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizom tasdiqlangan. Ushbu Namunaviy nizomga asosida 2015-yil 5-may kuni IIVning «Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni takomillashtirish to'g'risida»gi 72-sonli buyruq qabul qilingan. Mazkur buyruqning mazmuniga quyida alohida to'xtalamiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda «*Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi qarori. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2012-yil 21-mart qarori talablarini bajarish, shuningdek elektron shaklda ma'lumotlarning to'liq ayirboshlashni, so'rovlarni rasmiylashtirish tartiblarini jadallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari va aholining o'zaro hamkorligi samarador-

ligini oshirishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasining «Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risida Nizom» tasdiqlangan. Nizomda «Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Yagona portal)» tushunchasiga ta'rif berilgan, shuningdek yagona portalning maqsadi va vazifalari, murojaatlarni berish va ushbu murojaatlarni ko'rib chiqish tartib-qoidalar o'z aksini topgan.

Jumladan, foydalanuvchi o'z murojaatiga murojaat shakli to'ldirilganda ko'rsatilgan pochta manziliga elektron shaklda yoxud yozma ravishda javob olish turini tanlash imkoniyatiga ega.

Shaxsiy kabinet¹dan murojaat olingandan keyin uni ko'rib chiqish ishlari yozma murojaatlar uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Quyidagilar foydalanuvchining shaxsiy kabinet orqali tushgan murojaatini ko'rib chiqishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

– odobsizlik mazmunidagi murojaatlar (uyatsiz yoxud haqoratli iboralar, tahdidlar, mantiq va ma'nosi bo'lmagan takliflar va shunga o'xshash murojaatlar);

– murojaat matnida tushunarsiz qisqartirishlar yoki reklama materiallari mavjud bo'lgan, tarkibida aniq arizalar, shikoyatlar yoki takliflar bo'lmagan murojaatlar.

Oluvchi tomonidan murojaatni ko'rib chiqish rad etilganda bir ish kuni mobaynida murojaatni ko'rib chiqishni rad etishning asoslangan sabablari ko'rsatilgan holda foydalanuvchiga elektron shaklda rad etish to'g'risida xabarnoma yuboriladi.

Foydalanuvchi tomonidan shaxsiy kabinet orqali yuborilgan murojaat unda ko'rsatilgan masalalarni hal etish vakolatiga kirmaydigan davlat organlariga tushganda, besh kun muddatdan kechiktirmasdan, tanlangan xabar berish turiga asosan, bu to'g'rida foydalanuvchini xabardor qilgan holda tegishli organga yuborish lozim.

Shaxsiy kabinet orqali berilgan murojaatning qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi majburiydir, biroq qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ushbu holatda murojaat qabul qilingan sana murojaatni oluvchining elektron pochta-siga kelib tushgan sana bilan belgilanadi.

¹ *Foydalanuvchining shaxsiy kabine-ti* – interaktiv davlat xizmatlari olishda davlat organlari bilan o'zaro munosabatlar uchun o'zida foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan shaxsiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan Yagona portaldagi elektron resurs.

Oluvchiga shaxsiy kabinet orqali kelib tushgan foydalanuvchining murojaati davlat organi rahbarining ichki buyrug'iga asosan tayinlangan mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqiladi.

Davlat organi bitta va aynan o'sha foydalanuvchining oluvchi bir necha bor ushbu masala bo'yicha javob bergan murojaatini, agar unda yangi vajlar yoki holatlar keltirilmagan bo'lsa, ko'rib chiqmaydi.

Yagona portalda «Ko'pincha beriladigan savollar» bo'limi tashkil etiladi. Ushbu bo'limni shakllantirish va saqlash uchun javobgarlik oluvchiga yuklatiladi.

Foydalanuvchining murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari:

takliflar – kelib tushgan kundan bir oygacha, qo'shimcha o'rganishlar talab qilinadigan takliflardan tashqari, bu to'g'rida taklif kiritgan shaxsga o'n kun muddatda xabar beriladi;

arizalar yoki shikoyatlar – oluvchiga kelib tushgan kundan bir oygacha, masalani mohiyati bo'yicha hal etish, qo'shimcha o'rganish va tekshirishlar talab qilmaydiganlari esa – o'n besh kundan kechiktirilmadan hal etilishi shart.

Foydalanuvchining jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar, murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan tashqari, ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatini tartibga soluvchi bir qator O'zbekiston Respublikasi IIVning ichki buyruqlari ham mavjud.

Shulardan biri 2001-yil 28-dekabrda qabul qilingan **«Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida»**gi buyruqdir. Ushbu buyruqda ma'muriy huquqbuzarliklarga oid murojaatlarni ko'rib chiqishning protsessual tartibi, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi hujjatlarning rasmiylashtirilishi, ma'muriy huquqbuzarliklar qaysi muddat va qaysi joylarda ko'rib chiqilishi, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar, profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqiladigan muayyan ma'muriy huquqbuzarliklar, shuningdek ma'muriy jarima jazosini qo'llash va ijrosini ta'minlashga doir qoidalar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 2014-yil 1-sentabr kuni qabul qilingan **«Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnomani tasdiqlash haqida»**gi

buyrug‘i profilaktika (katta) inspektorlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini tartibga solib turuvchi asosiy qonunosti hujjatlardan biri hisoblanadi.

Unda, *birinchidan*, profilaktika (katta) inspektori xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun tuzadigan kunlik ish rejalarida fuqarolarning murojaatlari bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning kiritilishi; *ikkinchidan*, o‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi qo‘llanilayotgan shaxsning unga nisbatan yo‘naltirilgan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarining asoslari va huquqiy oqibatlarini bilish, to‘plangan hujjatlar va boshqa materiallar bilan tanishish, yuridik yordam olish va boshqa iltimoslari bo‘yicha murojaatlarini belgilangan muddat va tartibda ko‘rib chiqilishi; *uchinchidan*, fuqarolarni qabul qilish va murojaatlarini ko‘rib chiqish profilaktika (katta) inspektorlari xizmat faoliyatining bir shakli sifatida e‘tirof etilishi; *to‘rtinchidan*, fuqarolar murojaatlarining kriminogen vaziyatni tahlil qilishdagi ahamiyati belgilangan, *shuningdek* profilaktika (katta) inspektorining fuqarolarni qabul qilish va murojaatlarini ko‘rib chiqish faoliyati tartibga solingan.

Bundan tashqari, IIVning 2015-yil 5-mayda qabul qilingan «***Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni takomillashtirish to‘g‘risida***»gi buyrug‘i ham mavjud.

Ushbu buyruqda fuqarolarni qabul qilish va ularning takliflari, arizalari hamda shikoyatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ichki ishlar organlarining vazifalari, kelib tushgan xatlarni ro‘yxatga olish hamda murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi, murojaatlarni hal etishga qo‘yiladigan talablar, ichki ishlar organlarida fuqarolarni qabul qilish, kelib tushgan xatlarni tahlil qilish va umumlashtirish, shuningdek ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni nazorat qilish tartibiga oid masalalar o‘z aksini topgan.

Chunonchi, ichki ishlar organlarida murojaatlar quyidagi usullarda qabul qilinishi belgilangan:

- jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qilish (og‘zaki murojaati) orqali;
- pochta, feldyegerlik xizmati va maxsus aloqa vositalari orqali;
- rasmiy veb-sayt va elektron pochta manzili orqali;
- «ishonch telefoni» orqali;
- ichki ishlar organining ma‘muriy binosida (xonasida, hududida) jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari uchun qulay joylarga o‘rnatilgan pochta qutisiga kelib tushadigan xatlar orqali.

Buyruqqa asosan, ichki ishlar organlari tizimida murojaatlar bilan ishlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qilish;

– og‘zaki, yozma va elektron murojaatlarni qayd etish, ro‘yxatga va hisobga olish;

– murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida tashkiliy topshiriqlarni tayyorlash;

– murojaatni mohiyati bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda va belgilangan muddatda ko‘rib chiqish hamda murojaat yuzasidan tegishli qaror qabul qilish;

– murojaatlarga javob tayyorlash va ularni arizachiga yoki manfaatdor idoraga jo‘natish;

– murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha to‘plangan hujjatlarni yig‘ish va saqlash;

– murojaatlarni umumlashtirish, tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli idoraviy boshqaruv hujjatlari va tahliliy axborotlarni tayyorlash;

– murojaatni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ijrosi va boshqa idoraga yuborilgan murojaatlarni ko‘rib chiqilishini nazorat qilish.

Murojaat ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rib chiqilayotganda jismoniy va yuridik shaxs murojaat ko‘rib chiqilishining borishi haqida axborot olish, shaxsan vajlarini bayon etish va tushuntirishlar berish, murojaatni tekshirish materiallari hamda uni ko‘rib chiqish natijalari bilan tanishish, qo‘shimcha materiallar taqdim etish yoki ularni boshqa organlardan so‘rab olish to‘g‘risida iltimos qilish, advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega bo‘lsa, murojaatni ko‘rib chiquvchi ichki ishlar organlarining mansabdor shaxslari yoki boshqa vakolatli shaxslar quyidagilarga majburdirlar:

– jismoniy va yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan, agar ularda davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma‘lumotlar mavjud bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, tanishib chiqish imkoniyatini ta‘minlashga;

– murojaatni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, agar jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma‘naviy ziyon yetkazilgan bo‘lsa, qonunda

belgilangan tartibda moddiy zararning o'rnini qoplash yoki ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishga;

– murojaat etuvchiga ko'rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko'rib chiqilganidan so'ng, zudlik bilan yozma yoxud elektron shaklda xabar qilishga.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlari rahbarlari jismoniy va yuridik shaxslarning xatlari bilan ishlash va fuqarolarni qabul qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlarni shaxsan o'zi, shuningdek o'rinbosarlari, tarkibiy xizmatlar rahbarlari hamda kotibiyat orqali nazorat qilib boradilar. Aynan shu maqsadda har bir ichki ishlar organida mazkur organ boshlig'i o'rinbosarlaridan biri boshchiligida fuqarolarning xatlari bilan ishlash bo'yicha doimiy komissiya tuziladi. Komissiya ushbu yo'nalishdagi faoliyatni atroflicha o'rganib, natijalari bo'yicha tegishli tartibda rahbariyatga axborot berib boradi.

IIVning 2015-yil 10-may kuni qabul qilingan **«Ichki ishlar organlarida «Ishonch telefonlari» orqali murojaatlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»**gi buyrug'i O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuni asosida ishlab chiqilgan. O'z o'rnida ichki ishlar organlarida «Ishonch telefonlari» orqali murojaatlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibiga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

«Ishonch telefonlari» orqali murojaatlar yakshanba va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 09.00 dan 13.00 gacha va 14.00 dan 18.00 gacha ichki ishlar organlarining mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi.

«Ishonch telefonlari» orqali qilingan murojaatlar ham kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi. Ushbu murojaatlar navbatchilik qismida navbatchi yordamchisi tomonidan, sohaviy xizmatlarda esa navbatchi xodim tomonidan qabul qilinadi.

Shu narsa e'tiborga molikki, «Ishonch telefonlari» orqali asosan ichki ishlar organlari xodimlarining qonunga xilof xatti-harakatlari xususidagi ariza, taklif va shikoyatlar qabul qilinadi.

Agar kelib tushgan ariza va shikoyatlar profilaktika (katta) inspektorlarining xizmat intizomi va qonunchilikni buzish holatlari bilan bog'liq bo'lsa, unda IIVning 131-sonli buyrug'ining 277-bandiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB va viloyatlar IIB

HOOBlari xizmat tekshiruvlari o'tkazilishini tashkil etish va natijalari bo'yicha belgilangan tartibda xulosalar tayyorlash vakolatiga ega.

Bundan tashqari, buyruqning 276-bandiga asosan shahar-tuman IIO huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati boshlig'ining o'rinbosari ham ushbu murojaatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazilishini tashkil etish hamda bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha rahbariyatga asosli takliflar kiritish huquqiga ega.

Shahar-tuman IIO huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati boshlig'i esa buyruqning 275-bandi bilan xizmat va ijro intizomi, qonun talablarini yetarli yoki umuman bajarmagan yoxud buzgan profilaktika (katta) inspektorlarini esa jazolash bo'yicha ichki ishlar organi boshlig'iga o'rnatilgan tartibda takliflar kiritish vakolatiga ega.

Bordi-yu, tekshiruv davomida «Ishonch telefonlari»ga shaxs haqida berilgan ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlangudek bo'lsa, u holda murojaat ko'rib chiqilmaydi.

Murojaatni ko'rib chiqqan ichki ishlar organining mas'ul xodimi murojaat muallifiga ko'rib chiqish natijalari va qabul qilingan qarorning mazmun-mohiyati to'g'risida yozma shaklda xabar berishi shart. Berilgan javobning nusxasi ichki ishlar organida o'rnatilgan tartibda saqlanadi. Javob yuborilgandan keyin murojaat uni nazoratga olgan shaxsning imzosi bilan nazoratdan chiqariladi va bu haqda «Ishonch telefonlari» orqali kelib tushgan murojaatlarni qayd etish daftariga yozib qo'yiladi.

Xizmat tekshiruvini o'tkazgan mas'ul xodim murojaatni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilishi, shuningdek profilaktika xizmati xodimlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma'naviy ziyon yetkazilgan bo'lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararining o'rnini qoplash yoki ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishi lozim.

Agar «Ishonch telefonlari» orqali berilgan murojaat ko'rib chiqilguniga qadar yoki ko'rib chiqish jarayonida murojaat yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ushbu murojaat yuzasidan yozma yoxud elektron shaklda ariza berilsa, «Ishonch telefonlari» orqali berilgan murojaatning ko'rib chiqilishi to'xtatilishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan murojaatlarni qaytarib olish haqida berilgan ariza vazirlik va viloyat IIBlari sohaviy xizmatlari tomonidan qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rilishini istisno etmaydi.

IIVning 2015-yil 19-aprel kuni qabul qilingan **«Ichki ishlar organlarida elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish va foydalanish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»**gi buyrug'i bilan ichki ishlar organlarida elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish va foydalanish tartibi belgilangan bo'lib, uning doirasi maxfiy bo'lmagan xizmat hujjatlarini jo'natish, qabul qilish, ro'yxatga olish va saqlashga yo'l qo'yilishi bilan chegaralangan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ham elektron hujjat maqomiga ega bo'lishi mumkin. Ularga ham elektron hujjatlarga qo'yiladigan umumiy talablar qo'yiladi. Ushbu talablar buyruqning 7 va 8-bandlarida qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 4-noyabrdagi **«Huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog'liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»**gi 36/18/49/56-sonli qo'shma qarori ham jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Qo'shma qarorda ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, shuningdek davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog'liq boshqa holatlarni aniqlash yo'llaridan biri jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ekanligi belgilangan. Bu esa mazkur murojaatlarni o'z vaqtida, to'liq va xolisona ko'rib chiqishni taqozo etadi. Qo'shma qaror aynan mazkur talabdan kelib chiqib, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining tegishli normalarini amalda qo'llash tartibini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Qo'shma qarorda ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari va davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalariga muayyan holatlar bo'yicha ichki ishlar organlariga xabar berish majburiyati yuklangan. Bundan tashqari, ushbu organlar va muassasalar nimalar asosida huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog'liq boshqa holatlarni aniqlashi, aniqlangan holatlar bo'yicha xabar berish tartibi, usul va vositalari haqidagi masalalar qo'shma qarordan o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2014-yil 26-dekabrda qabul qilgan **«Jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish**

faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv jarayonida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati samaradorligini oshirish to'g'risida»gi buyrug'i ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Chunki, buyruqda tergovga qadar tekshiruv jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni oddiy murojaat sifatida ro'yxatga olinishiga yo'l qo'yilmasligi, tergovga qadar tekshiruv muddatini asossiz o'tkazib yuborgan yoki tekshiruvda asossiz sansalorlikka yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan keskin choralar ko'rilishi kabi masalalar o'rin egallagan.

Jumladan, jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar tomonidan jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal qilishning qonuniyligi qo'shimcha manbalardan ma'lumot olib, solishtirish yo'li bilan har oyda kamida bir marta tekshirilishi, shuningdek bu borada tibbiy muassasalarning qabul qilish bo'limlari, o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa manbalardan tegishli ma'lumotlarni olish va ularni tahlil qilish amaliyotini joriy etish kabilar nazarda tutilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyati bir qator qonun va qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida, kompleks tarzda tartibga solinadi. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni o'rganish jarayoniga ham kompleks yondashish talab etiladi. Aks holda Konstitutsiyamizda belgilangan inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyati chegaralanishi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini to'liq, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishda ayrim muammo va kamchiliklar yuzaga kelish mumkin.

II. PROFILAKTIKA XIZMATLARINING MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLARGA OID MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH FAOLIYATI

2.1. Profilaktika xizmatlarining ma'muriy huquqbuzarliklarga oid murojaatlarni ko'rib chiqish faoliyatining mazmun-mohiyati va ushbu faoliyatda qatnashuvchi shaxslarning tutgan o'rni

Profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatining asosiy qismini ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlar tashkil etadi. Garchi, aksariyat hollarda ma'muriy huquqbuzarliklarning bevosita profilaktika xizmati xodimlari tomonidan aniqlanishi kuzatilsa-da, biroq bu murojaatlarning ma'muriy huquqbuzarliklarga oid qismini o'rganishni inkor etmaydi.

Umuman olganda, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritishning bir ko'rinishi bo'lib, jinoyat ishini yuritishdan o'zining mazmuni, protsessual tartibi, bosqichlari, ishtirokchilari va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi.

Nazariya va amaliyotda «ma'muriy-protsessual faoliyat» tushunchasi mavjud bo'lib, mazmun jihatdan ikkiga bo'linadi:

1) *ma'muriy ish yuritish*. Uning mazmunini ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan ma'muriy huquq normalarida belgilangan ish yuritish bo'yicha farmoyish berish harakatlarini amalga oshirish tashkil etadi;

2) *ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyat*. Uning mazmunini ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan yurisdiksiyaviy harakatlarni amalga oshirish tartibida huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajarish tashkil etadi¹.

Ma'muriy protsess, odil sudlov (fuqarolik, jinoiy, xo'jalik) singari, hokimiyat organi tomonidan qanday masalalarning hal etilishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Hal etilayotgan ishlarning mazmuni bevosita ma'muriy-protsessual shaklga yoki uning ayrim elementlari xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Agar har qanday protsess doirasida ma'lum bir ishlar hal etiladigan bo'lsa, unda maxsus protsessual qoidalarning zarurati vujudga keladi. Aynan mana shu xususiyatlarga qarab protsessda, uning o'ziga xos bo'lgan qismi – *ish yuritish* ajratiladi. Davlat hokimiyati organlari ma'lum bir

¹ Алимов Х.Р. ва бошқ. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т., 2003. – Б.117.

ma'muriy protsess doirasida turli ishlarni hal etishiga to'g'ri keladi. Ularni umumiy protsessual qoidalar bilan tartibga solish mushkul. Shu bois, ma'muriy faoliyatning o'ziga xos turlari, ya'ni ma'lum bir ishlarni hal etishning maxsus protsessual qoidalari mavjud bo'lib, ularning yig'indisini ish yuritish faoliyati tashkil etadi. Masalan, shikoyatlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini tayinlash faoliyatlari ko'p jihatdan umumiy xususiyatlarga ega, lekin bu faoliyat turlari maxsus qoidalarga ham muhtoj bo'ladi. Buni ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish jarayonida ham kuzatish mumkin.

Demak, *ma'muriy ish yuritish* – ma'muriy protsessning bir qismi bo'lib, umumiy va maxsus protsessual normalar yordamida ma'lum bir ishni hal etishga qaratilgan ma'muriy faoliyatning alohida turi hisoblanadi.

Xullas, ma'muriy ish yuritish muayyan sabab mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi. Aks holda ish yurituv qonundan chetga chiqilganlik holati bilan baholanadi. Aynan ushbu sabablardan birini jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tashkil etadi.

Shu o'rinda «ma'muriy huquqbuzarlik» tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Ma'lumki, amaldagi MJtKning 10-moddasida «Ma'muriy huquqbuzarlik» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi».

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish esa aynan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganlik holatiga asoslanib, tegishli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan qonunda belgilangan protsessual tartibda yuritiladi.

Endi «ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish» tushunchasining mohiyatini yoritishga harakat qilamiz. «Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish» tushunchasiga yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatlardan kelib chiqib quyidagicha ta'rif berish mumkin, ya'ni «qonunga ko'ra maxsus vakolatga ega tegishli organlar (mansabdor shaxslar)ning sodir etilgan g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)da ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari bor-yo'qligini aniqlash, huquqbuzar shaxsning aybdorligini isbotlash uchun dalillar to'plash, ma'muriy huquqbuzarlikning sabab va sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish, shuningdek huquqbuzar shaxsning qilmishiga yarasha jazo tayinlanishini ta'minlash kabilarga qaratilgan faoliyatni o'zida ifodalovchi ma'muriy protsessual jarayon».

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar obyektivlik, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslangan holda yuritiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqishning asosiy prinsiplaridan biri obyektivlik bo'lib, bu nafaqat ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama va to'liq aniqlash, balki uning obyektivligini ta'minlashni ham talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari xolisona ko'rib chiqilishi lozimligini anglatadi.

Mazkur prinsipga mazmunan yondashilsa, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar ishning barcha holatlarini aniqlashlari shart ekanligi namoyon bo'ladi.

Obyektivlik ishga nisbatan adolatsizlik, taxminlarga asoslangan holda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab guvohlik beradigan holatlarni mensimaslikni istisno etadi. Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishning obyektivligi – ushbu protsess ishtirokchilariga, ularning shikoyatlari va boshqa murojaatlariga nisbatan hurmat bilan qarashni nazarda tutadi.

Amaliyotda ushbu prinsipni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bilan bir qancha kafolatlar o'rnatilgan (masalan, huquqbuzarlik ishlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin), ma'lum bir holatlarda ishni ko'rib chiquvchi davlat organi (mansabdor shaxslar) hujjatlarni talab qilib olishi, ekspertiza o'tkazishi va boshqa choralarni ko'rishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini qonun hujjatlariga binoan hal etish – ma'muriy faoliyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy qoidalardan biri hisoblanadi. Mazkur qoidaning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasidan kelib chiqadi, fuqaro faqatgina qonun hujjatlarida ko'rsatilgan asoslarda va tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar fuqarolarning tengligi, o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda, ochiq tarzda ko'rib chiqiladi. Ayrim hollarda ko'rib chiqilayotgan ishning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi rolini oshirish maqsadida bunday ishlar huquqbuzarning ish, o'qish joyidagi jamoalarida yoki yashash joyida ko'rib chiqilishi ham mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish quyidagi vazifalarning bajarilishini ko'zlab amalga oshiriladi:

– har bir ishning holatini (murojaatning mazmunini) o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘liq va obyektiv aniqlab chiqish, ishni qonun hujjatlariga muvofiq hal etish;

– chiqarilgan qarorning ijrosini ta‘minlash;

– ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilishining sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlash;

– huquqbuzarliklarning oldini olish;

– fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash;

– qonuniylikni mustahkamlash va hokazo.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘yicha ish yuritish O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash, shuningdek, qonuniylikni mustahkamlashni nazarda tutadi.

Ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlar (ishlar) amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasiga asosan, ichki ishlar organlari tizimidagi boshqa xizmatlar singari, huquqbuzarliklarning oldini olish xizmatlari tomonidan ham tegishliligiga ko‘ra ko‘rib chiqiladi.

Ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlarni ko‘rib chiqish (ishlarni yuritish)da javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakil, advokat, guvoh, ekspert va tarjimondan iborat protsess ishtirokchilari qatnashadi.

Qonunda ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan yoki huquqbuzar shaxsga nisbatan aniq ta‘rif berilmagan. Biroq, ma‘muriy huquqbuzarlikka berilgan ta‘rif, shuningdek ma‘muriy javobgarlikka tortish yoshi 16 yoshdan boshlanishining belgilanganligi hamda ma‘muriy javobgarlikka tortishni istisno etuvchi mavjud holatlarning mazmuni quyidagi ta‘rifni shakllantirish imkoniyatini beradi: *ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs – Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks bilan taqiqlangan g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni sodir etgan 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs.*

Ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishga oid materiallar bilan tanishib chiqishga, izoh berishga, dalillar keltirishga, iltimos qilishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, ish yuritilayotgan tilni bilmagan taqdirda o‘z ona tilida so‘zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berishga haqli. Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokida ko‘rib

chiqiladi. Mazkur shaxs ishni ko‘rib chiqish joyi va vaqti haqida o‘z vaqtida ogohlantiriladi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 294-moddasiga binoan, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vaqtida ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi majburiy. Agar huquqbuzarni ichki ishlar organi yoki tuman (shahar) sudyasi chaqirsa-yu, lekin u kelishdan bo‘yin tovlasa, u holda mazkur shaxs ichki ishlar organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin.

Mazkur shaxsga ishni ko‘rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa va undan ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

Jabrlanuvchi – ma‘muriy huquqbuzarlik natijasida ma‘naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko‘rgan, boshqacha qilib aytganda, o‘ziga nisbatan sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘yicha murojaat etgan shaxs.

Jabrlanuvchi o‘ziga nisbatan sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘yicha davlat organlariga murojaat etish, shuningdek murojaatga asosan yuritilayotgan ishga oid hamma materiallar bilan tanishib chiqish, ko‘rsatmalar berish, dalillar keltirish, iltimoslar qilish, ishni ko‘rib chiqish paytida advokat yordamidan foydalanish, o‘z ona tilida so‘zlash va tarjimon xizmatidan foydalanish, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berish huquqlariga ega.

Ish yurituvi davomida mansabdor shaxs amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 295-moddasiga muvofiq, ma‘muriy huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxsni yuqorida keltirib o‘tilgan huquqlari bilan tanishtirishi shart va undan ishga doir tushuntirishlar olishi mumkin.

Qonuniy vakil – ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan voyaga yetmagan yoki o‘zining jismoniy yoxud ruhiy kamchiliklari bor bo‘lgan ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan yoki ma‘muriy huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxsning manfaatlarini ifodalashga vakolatli shaxs (otona, farzandlikka oluvchi, vasiy, homiy).

Qonuniy vakillar ma‘muriy huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarning manfaatlari ifodalangan murojaatlarni amalga oshirishga, ish materiallari bilan tanishishga, manfaatlari ifodalanayotgan shaxs nomidan iltimoslar qilishga va ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berish huquqiga egadirlar.

Advokat – ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish jarayonida huquqbuzar yoki uning qonuniy vakili yoxud ularning iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif qilingan, advokatlik

guvohnomasiga ega va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderga ega, shuningdek qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxs.

Advokat amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 297-moddasiga asosan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda shu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni ushlab turish paytidan boshlab qatnashishi mumkin. Qatnashuvchi advokat ishga oid barcha materiallar bilan tanishib chiqish, iltimoslar qilish, uni taklif qilgan shaxsning topshirig'iga binoan mazkur shaxs nomidan ishga tegishli qaror ustidan shikoyat berish huquqiga ega.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunda advokat, jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibdan farqli o'laroq, murojaat etuvchining (jabrlanuvchining) huquqlarini himoya etmasa-da, ba'zi hollarda soxta yoki uydirma murojaatlarning obyektiv ko'rib chiqilishini ta'minlovchi protsess ishtirokchisi tariqasida namoyon bo'ladi.

Guvoh – ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi murojaat (ish) bo'yicha aniqlanishi kerak bo'lgan biror-bir holatdan voqif bo'lishi mumkinligi bo'yicha ishga jalb etilgan va ma'muriy huquqbuzarlik holati yuzasidan tushuntirish olingan shaxs.

Guvoh amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 298-moddasiga muvofiq, ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs)ning chaqirig'iga binoan ko'rsatilgan vaqtda kelishga, haqqoniy ko'rsatmalar berishga, shu ish xususida o'ziga ma'lum bo'lgan hamma narsani bayon qilishga va qo'yilgan masalalarga aniq javob berishga majbur.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning «Shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish» deb nomlangan 289-moddasining ikkinchi qismida «xolis guvoh» tushunchasi ishlatilgan bo'lib, bu holatda qonun chiqaruvchi «xolis» haqida so'z yuritmoqdami yoki «guvoh» haqidami, buni anglash bir oz mushkul vaziyatni keltirib chiqargan. Zero, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning «Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar»ga bag'ishlangan 6-bobida «xolis» va «guvoh» o'zining individual huquq va majburiyatiga ega bo'lgan protsessning mustaqil ikki ishtirokchisi tariqasida alohida-alohida moddalarida keltirib o'tilgan. Aynan mazkur xususiyatni, qolaversa, garchi qonunda qatnashchi sifatida alohida e'tirof etilmagan bo'lsa-da, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritishda ham bir qator protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida

qatnashishi talab etilishini inobatga olib, «xolis» sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

Xolis etimologik mazmuniga ko'ra ham, Jinoyat-protsessual kodeksda berilgan ta'rifga ko'ra ham ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan shaxs. U mansabdor shaxs tomonidan o'tkazilgan protsessual harakat jarayoni natijalarini tasdiqlash uchun qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb etiladigan protsess qatnashchisi.

Xolislar kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqarolardan iborat bo'lishi va ularga mansabdor shaxs tomonidan huquq va majburiyatlari tushuntirilishi talab etiladi.

Xolis ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish bo'yicha qonunda nazarda tutilgan muayyan harakatda ishtirok etish, ushbu protsessual harakat bo'yicha rasmiylashtiriladigan bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arz va mulohazalar berish, o'zi ishtirok etgan protsessual harakat bayonnomasi bilan tanishish, mansabdor shaxsning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga ega.

Xolislar, keltirib o'tilgan huquqlar bilan birga, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi organ (mansabdor shaxs)ning chaqiruviga binoan hozir bo'lishlari, protsessual harakatni amalga oshirishda ishtirok etishlari, shuningdek uning o'tkazilganligi, o'tkazish jarayoni va natijalarini tuzilgan bayonnomaga imzo chekib tasdiqlashi kabi majburiyatlarga ham ega bo'ladirlar.

Afsuski, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar» deb nomlangan XXII bobida xolis ishda qatnashuvchi shaxs tariqasida keltirib o'tilmagan va uning huquq va majburiyatlari ifodalangan.

Bundan tashqari, amaliyotda fuqarolarni ishda xolis tariqasida ishtirok etishini ta'minlovchi holatlarni uchratish qiyin. Shu bois, protsessual harakatlarni o'tkazish jarayonini xolislar bilan ta'minlash sohasida bir talay muammolar mavjud. Buning uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka xolis uzrsiz sababga ko'ra o'z vazifasini bajarishdan bosh tortsa, buning uchun qonunda belgilangan ma'muriy javobgarlikka tortilishiga doir qoidani kiritish maqsadga muvofiq. Bu borada xolisning harakatini militsiya xodimlarining qonuniy talabini bajarmaslik huquqbuzarligi deb topib, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 194-moddasi bilan ma'muriy bayonnoma tuzilishi mumkin bo'lgan holatni yuzaga keltirish taklifi ilgari suriladi.

Xolis o‘zi ishtirok etgan protsessual harakatni yuritish bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha guvoh tariqasida tushuntirishlar berishi ham mumkin. U bunday hollarda guvohning huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarini bajaradi.

Ekspert – ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan maxsus bilimlarga zarurat tug‘ilgan hollarda tayinlanadigan, xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, shuningdek davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti sifatida faoliyat yuritayotgan xodim yoki boshqa korxonaga, muassasaga, tashkilot xodimi yoxud boshqa jismoniy shaxs.

Ekspertlar komissiyasi – ekspertizani o‘tkazish uchun bir xil (komissiyaviy ekspertiza) yoki turli xil (kompleks ekspertiza) sud-ekspert ixtisosligidan jalb etilgan bir necha ekspertdan iborat ekspertlar guruhi.

Ekspert chaqiriq bo‘yicha kelishga va o‘z oldiga qo‘yilgan masalalar yuzasidan obyektiv xulosalar berishga majbur. Ekspert ekspertiza predmetiga oid ish materiallari bilan tanishib chiqishga, xulosa berish uchun zarur bo‘lgan materiallarni olishga, javobgarlikka tortilayotgan shaxsga, jabrlanuvchiga, guvohga ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs)ning ruxsati bilan ekspertizaga oid savollar berishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida qatnashishga haqli.

Ekspert boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lib, ular amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 299-moddasida to‘liq o‘z ifodasini topgan.

Ekspert yoki ekspertlar komissiyasi ekspert tekshiruvlarini o‘tkazib bo‘lganidan keyin tegishincha ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi. Xulosani tuzish tartibi amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 299¹-moddasida belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim.

Tarjimon – ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan yoxud kar yoki soqov bo‘lgan protsess ishtirokchilariga o‘z ona tilida yoki o‘zi biladigan boshqa tilda og‘zaki yoki yozma arz qilish, ko‘rsatma va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so‘zlash huquqini ta‘minlash, shuningdek biror matnni boshqa tildan tarjima qilish uchun jalb etilgan mutaxassis.

Tarjimon ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan tayinlanadi. Tarjimon mazkur organ (mansabdor shaxs)ning chaqirig‘iga binoan hozir bo‘lishga va o‘ziga topshirilgan tarjimini to‘la-to‘kis va aniq bajarishga majbur.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonida jalb etilgan jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va tarjimonlarning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ taklifiga binoan kelishi munosabati bilan qilgan xarajatlari qonunga asosan qoplanadi, ya'ni bu shaxslarning ish joyidagi maoshi belgilangan tartibda saqlanib qoladi.

Ekspert va tarjimon, xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollardan tashqari, o'z vazifalarini bajarganligi uchun mukofotlanishi ham mumkin.

Xullas, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonida qatnashchilarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'liq, sifatli, haqqoniy bajarishi, shuningdek ish yurituvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan ularning huquqlarini ta'minlash jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari obyektiv ko'rib chiqilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Profilaktika xizmatlarining ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlarni ko'rib chiqish faoliyatida dalillar va ularning turlari

Huquqbuzarliklarga doir ishlarni yuritish jarayonida, yuqorida ta'kidlanganidek, tegishli organlar (mansabdor shaxslar) ma'muriy huquqbuzarlik holati yuz bergan yoki bermaganligini, muayyan shaxsning uni sodir etishda aybdorligini va ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlaydi. Bu kabi aniqlanadigan holatlarga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

– ma'muriy huquqbuzarlikning ma'muriy javobgarlikni vujudga keltirishi;

– mulkiy zarar keltirilganligi va miqdori;

– ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi;

– huquqbuzar to'g'risidagi, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlar;

– ishni tugatishga olib keladigan holatlarning mavjudligi va boshqalar.

Yuqorida qayd etilgan har bir holat mavjudligining aniqlanishi muayyan daliliy manbalar asosida amalga oshiriladi. Dalil faqat shaxsning aybdor yoki aybsizligini isbotlash emas, balki aynan ish uchun ahamiyatli bo'lgan har bir holatni aniqlash, murojaatning asosli yoki asossiz ekanligiga oydinlik kiritish uchun ham to'planadi, tekshiriladi va baholanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaatni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) dalillarni baholaydi, ishning barcha holatlarini har tomonlama to'la-to'kis va obyektiv tekshirib chiqadi.

Dalillar – ma'muriy huquqbuzarlik ishiga oid bo'lgan barcha faktik ma'lumotlar. Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar: ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risida tuzilgan bayonnoma, shuningdek boshqa materiallar bilan aniqlanadi.

Yuqoridagilar bilan birga, ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish va transport vositalarini ko'zdan kechirishga ham yo'l qo'yiladi.

Muayyan organ (mansabdor shaxs) dalillarga ishning barcha holatlarini har tomonlama, to'liq va obyektiv tekshirishga asoslangan o'zining ichki ishonchi bilan, qonunga amal qilgan holda baho beradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma – shaxs tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganining rasmiy ifodasi bo'lib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 281-moddasida belgilangan tartibda vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan tuziladigan, unda kim, qachon, qaysi turdagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgani, ushbu holatni tasdiqlovchi guvoh yoki xolislar va ularning imzolari hamda sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning tafsiloti kabi ma'lumotlar aks etadigan protsessual hujjat.

Bayonnomada u tuzilgan sana va joy, uni tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, huquqbuzarning shaxsiga oid ma'lumotlar, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va bu huquqbuzarlikning mohiyati, ana shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat, agar guvohlar va jabrlanuvchilar bo'lsa, ularning familiyalari va yashash manzillari, huquqbuzarning tushuntirishi, shuningdek ishni hal qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Agar huquqbuzarlik tufayli moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, bu ham bayonnomada ko'rsatiladi.

Bayonnoma savodli, xatosiz yozilishi, tushunchalar aniq va ravon bayon etilishi zarur. Bayonnomaning tuzilgan vaqti va joyi, tuzuvchining hamda unda tilga olinayotgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, manzili, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, ana

shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat, ishni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi kerak. Bayonnomaga uni tuzgan shaxs va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar ish yuzasidan guvoh va jabrlanuvchilar bo'lsa, ular ham imzo chekadilar.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga bu haqda yozib qo'yiladi. Ushbu holatda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni yuzasidan bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini bildirishga, shuningdek mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqlidir.

Bayonnomani tuzish paytida huquqbuzarga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 294-moddasida nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

Agar sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaatni ko'rib chiqish profilaktika inspektorining vakolat doirasiga kirmasa, bayonnoma ishga aloqador boshqa hujjatlar va ashyoviy dalillar bilan birga, huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan yoxud ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat kelib tushgan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish (murojaat)larni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriladi.

Huquqbuzarlik sodir etilgan joyda bayonnoma tuzishning iloji bo'lmasa, profilaktika inspektori tomonidan huquqbuzar ichki ishlar organi binosiga yoki militsiya tayanch punktiga, shuningdek o'zini o'zi boshqarish organi binosiga olib kelinishi mumkin.

Profilaktika inspektorlarining ma'muriy bayonnoma bilan ishlash tartibiga oid yana quyidagi bir qator tartib-qoidalar ham mavjud:

– tartib raqamiga ega bo'lgan ma'muriy bayonnomalarning koreshok (qirqma qism)lariga doir hisobot qat'iy tartibda olib boriladi. Ularni tayyorlashda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar doirasida ma'muriy bayonnomalarning bir xil raqam tartibi va seriyalari bo'lishi shart.

– profilaktika inspektorlari tartib raqamiga ega bo'lgan ma'muriy bayonnomalarning va ma'muriy bayonnomalarni qayd etish kitoblari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB va viloyat IIBlari tomonidan ta'minlanadi;

– tartib raqamiga ega bo'lgan ma'muriy bayonnomalarni olish, saqlash, hisobini yuritish qat'iy tartibda olib boriladi. Ushbu blankalarning hisoboti ma'muriy bayonnomalarni qayd qilish va kirim-chiqim kitobiga,

profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan to'ldirilgan ma'muriy bayonnomalar esa huquqbuzarlarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnomalarni qayd etish kitobiga qat'iy tartibda qayd etib boriladi (*Izoh:* tartib raqamiga ega bo'lgan ma'muriy bayonnomalarni olish, tarqatish va qayd qilish shahar va tuman ichki ishlar organlari HOOBlarida profilaktika inspektorlari uchun alohida yuritiladi. Har bir olingan ma'muriy bayonnomani tarqatish va qayd qilish hisoboti oyma-oy o'sib boruvchi tartibda olib boriladi va har oyda qancha ma'muriy bayonnoma tarqatildi va oldingi oydan qancha ma'muriy bayonnoma qolganligi hamda profilaktika inspektorlari tomonidan nechta bayonnoma tuzilganligi to'g'risida va solingan jarima miqdori qancha so'mni tashkil etishi, jarima to'lanmagan holatdagi sabablar ma'muriy bayonnomalarni tarqatish kitobida ko'rsatilishi shart);

– ma'muriy bayonnomalarning koreshogi (qirqish qismi) alohida yig'ma jildlarga oyma-oy tikib boriladi va ularning hisobi (balansi) ma'muriy bayonnomalarni tarqatish va qayd qilish kitoblaridagi hisobotlarga to'g'ri kelishi shart;

– ma'muriy bayonnomalarning koreshok (qirqma qism)larini tikish yig'ma jildlari, ma'muriy bayonnomalarni tarqatish va qayd qilish kitoblari har chorakda shahar va tuman IIB boshliqlarining o'rinbosarlari tomonidan nazorat tariqasida tekshirilib, kamchiliklar, takliflar yozma ravishda ko'rsatilib boriladi. Bu haqda yig'majildda, tarqatish va qayd qilish kitoblarida ularning ko'rsatmalari qayd qilinadi;

– ma'muriy amaliyotga mas'ul xodim boshqa ishga o'tsa yoki ichki ishlar organlaridan bo'shatilsa, tartib raqamiga ega bo'lgan ma'muriy bayonnomalarning o'sha kungi holati bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma tuzishda komissiya a'zolari 3 kishidan kam bo'lmasliklari kerak va dalolatnomada ma'muriy bayonnomalarning aniq hisoboti ko'rsatilishi shart (agar obyektiv sabablarga ko'ra ma'muriy bayonnomalar uchun mas'ul xodim yo'q bo'lsa, uning ishtirokisiz tezda dalolatnoma tuzilib, boshqa mas'ul xodim bu faoliyatni olib borish uchun tayinlanishi shart);

– agar obyektiv sabablarga ko'ra tartib raqamiga ega bo'lgan ma'muriy bayonnomalar soni tugab qolsa, tartib raqamiga ega bo'lmagan bayonnomalarga tartib raqami qo'yilib, ular ma'muriy bayonnomalarni qabul qilish kitobida qayd qilinishi kerak;

– ma'muriy bayonnomalarni qabul qilish, tarqatish va ularni qayd qilish kitoblari hamda bayonnomalarning koreshok (qirqma qism)larini tikish yig'majildlari, shahar-tuman IIB kotibiyatida qayd qilinadi va ular to'lgandan so'ng shahar-tuman IIB kotibiyatlariga belgilangan tartibda topshiriladi;

– maʼmuriy bayonnomalarni qabul qilish, tarqatish va qayd qilish kitoblarini yuritish IIB boshligʻining buyrugʻi bilan masʼul etib tayinlangan xodim tomonidan olib boriladi (ular katta ish yurituvchi, maʼmuriy amaliyotga javobgar shaxs, starshina yoki shahar-tuman IIB shaxsiy tarkibidagi boshqa xodimlar boʻlishi mumkin);

– maʼmuriy amaliyot uchun masʼul boʻlgan shaxs profilaktika inspektorlaridan maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi bayonnoma va hujjatlarni olishda maʼmuriy bayonnomaning (koreshogi) qirqma qismiga qoʻl qoʻyib, qabul qilib oladi;

– maʼmuriy huquqbuzarliklarni qayd etish kitobiga bayonnomalar qayd etilganidan soʻng ular boshqa xizmatlar yigʻmajildiga tikish yoki chora koʻrish uchun yuboriladi (XCHK va FB, PP va JTSX, yongʻin xavfsizlik xizmatiga), bu haqda bayonnomalarni olgan xodim kitobga imzo qoʻyadi;

– agar bayonnoma boshqa soha xizmatlariga yuboriladigan boʻlsa, maxsus korespondensiya yoki tarqatish kitobi orqali yuborilganligi toʻgʻrisida kitobning 8-bandiga hamda maʼmuriy bayonnomaning qirqma qismiga belgi qoʻyiladi;

– qabul qilingan qaror toʻgʻrisidagi belgi maʼmuriy bayonnoma qirma qismi (koreshogi)ning orqa tomoniga qoʻyiladi;

– profilaktika inspektori har oyning oxirida yaroqsiz holga kelgan blankalar va maʼmuriy bayonnomalarning qirqma qismini ushbu blankalarni saqlash, berish va hisobotini olib boruvchi masʼul xodimga topshiradi va bu haqda blankalarni kirim-chiqimini qayd etish kitobiga qayd etib boradi. Har bir yaroqsiz holga kelgan maʼmuriy bayonnoma toʻgʻrisida IIB boshligʻiga maʼlum qilinadi va ushbu holat yuzasidan IIB boshligʻining ruxsati bilan yaroqsiz holga kelgan blankalar bekor qilinadi;

– profilaktika inspektori tomonidan maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisida toʻldirilgan bayonnoma yuzasidan qabul qilingan qaror zudlik bilan huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga yetkaziladi va jarima toʻlash tartibi toʻgʻrisida tushuntirish beriladi;

– profilaktika inspektori tomonidan tuzilgan maʼmuriy bayonnoma boʻyicha huquqbuzarlik sodir etgan shaxs nomidan jamgʻarma bankiga borib jarima toʻlanishi qatʼiyan man etiladi;

– maʼmuriy amaliyot uchun masʼul xodimga 7 kun ichida toʻldirilgan tartib raqamiga ega boʻlgan maʼmuriy bayonnomalar topshiriladi;

– agar solingan jarima 15 kun ichida undirilmay qolsa, jarima solish toʻgʻrisidagi qaror huquqbuzarning ish yoki nafaqa olish joyiga majburiy tartibda undirish uchun yuboriladi;

– agar jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo‘lsa yoxud jarimani huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa daromadidan, nafaqasi yoki stipendiyasidan boshqa sabablarga ko‘ra undirib olishning iloji bo‘lmasa, uni undirib olish tuman (shahar) sudining sud ijrochisi tomonidan jarima solish to‘g‘risida tegishli organ (mansabdor shaxs) chiqargan qaror asosida huquqbuzarning shaxsiy mulkidan, shuningdek umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi (MJtKning 332, 333 - m);

– profilaktika (katta) inspektorlarining xizmat jarayonida tartib raqamiga ega bo‘lmagan ma‘muriy bayonnoma bilan ishlashi qat‘iyan man etiladi. Bunday hollarda ularga nisbatan belgilangan tartibda xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi;

– ma‘muriy amaliyot ishlarini yurituvchi xodim bu yo‘nalishda olib borilgan ishlarni umumlashtirib, har oyda IIB rahbariyatiga axborot berib boradi.

Ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish – boshqa ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llanib bo‘linganidan keyin ma‘muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida tuzish imkoni bo‘lmagan taqdirda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish, ishlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta‘minlash va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida shaxsni ushlab turish.

Ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish shaxsga yoki transport vositasiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish ta‘sir chorasiga tushuncha berilmagan bo‘lsa-da, uning 286–288-moddalari mazmuni shaxsga nisbatan qo‘llanilgan ushbu ta‘sir chorasiga – shaxsni qisqa muddatli erkinligini cheklash, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ishlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish hamda ma‘muriy huquqbuzarlik ishi yuzasidan chiqarilgan qaror ijrosini ta‘minlashdan iborat alohida hollarda qo‘llaniladigan ma‘muriy ta‘sir chorasi, deb ta‘rif berishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi-ning 287-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolatiga ega.

Huquqbuzar iloji boricha qisqa muddatda ichki ishlar bo‘limiga olib kelinishi lozim. Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni har jihatdan to‘liq va adolatli hal etish uchun huquqbuzar ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turilishi, ya‘ni shaxsan ko‘rikdan o‘tkazilishi, kiyim-kechaklari ko‘zdan

kechirilishi, ashyo va hujjatlar olib qo'yilishi mumkin. Bunday hollarda huquqbuzarning ma'muriy yo'l bilan ushlab turilishi to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Bayonnoma uni tuzgan mansabdor shaxs va ushlab turilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ushlab turilgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo'yiladi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish bayonnomasida quyidagilar bo'lishi lozim:

- bayonnoma tuzilgan sana va joy;
- bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;
- ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar;
- ushlab turish vaqti, joyi va asoslari;
- bayonnomani tuzgan mansabdor shaxs va ushlab turilgan shaxsning imzolari.

Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat, voyaga yetmagan shaxs ushlab turilganida esa uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar bu haqda albatta xabardor qilinishlari shart va bu bayonnomada qayd etiladi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzar bayonnoma tuzish uchun olib kelingan paytdan (mast holdagi shaxslar uchun ular hushyor tortgan vaqtdan) boshlanadi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash zarurati vujudga kelganda esa, ushlab turish paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilinib uch sutkagacha yoki huquqbuzarda shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan o'n sutkagacha muddatga ushlab turish mumkin.

Transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ushlab turish sababi bartaraf etilgunga va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rilgunga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning murojaatlarni ko'rib chiqishdagi ahamiyati shundaki, ushbu protsessual harakat orqali ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga qat'iy amal qilinishi ta'minlanadi.

Tushuntirish xati – muayyan ma'muriy huquqbuzarlikka oid holat yoki ishga aloqador deb hisoblagan ma'lumotlar, ya'ni ma'muriy javob-

garlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari, shuningdek jabrlanuvchi yoki guvohning ko'rsatmalari aks etgan protsessual hujjat.

Jabrlanuvchining tushuntirish xatida, u qilgan murojaat (ariza)dan farqli o'laroq, hodisa tafsiloti atroflicha yoritiladi

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish) yuzasidan tegishli organ (mansabdor shaxs) hodisa shohidlari yoki ishga taalluqli boshqa shaxslarni so'rovdan o'tkazib, ulardan yozma ravishda tushuntirishlar olishi mumkin. Mazkur tushuntirishlar tushuntirish xatlari orqali rasmiylashtiriladi.

Afsuski, tushuntirish xati protsessual hujjatini rasmiylashtirish qoidasi amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda o'z ifodasini topmagan. Biroq, shu kungacha amaliyotda amaliyot xodimlari tomonidan tushuntirish xatlarini rasmiylashtirishning o'ziga xos tartibi shakllangan.

Tushuntirish xati orqali rasmiylashtirilgan ma'lumotlar mavjud boshqa ma'lumotlarga zid kelmasagina ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish yoki rad etish, shaxsning aybdorligi, aybdorga jazo tayinlash kabi masalalarni hal qilish uchun daliliy ahamiyatga ega ma'lumot sifatida xizmat qiladi.

Tushuntirish xatlarida: tushuntirish kimning nomiga berilayotganligi (lavozimi, unvoni va F.I.Sh.), tushuntirish beruvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan joyi va sanasi, ish joyi, lavozimi, unvoni, yashash joyi), huquq va majburiyatlarning tushuntirilganligi (guvoh, huquqbuzar yoki jabrlanuvchi sifatida), holat yoki ish yuzasidan unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning tavsifi, tushuntirishlarga aniqlik kiritish maqsadida berilgan qo'shimcha savollar (kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo'naltirish mazmunidagi savollar berish taqiqlanadi) va ularga javoblar, tushuntirish beruvchining tushuntirish xatini o'z so'zidan yoki o'z qo'li bilan yozilganligi, tushuntirish xatini olish jarayoniga bo'lgan munosabat (e'tiroz bor yoki yo'qligi)ni tasdiqlashi, tushuntirish xati olingan sana va tushuntirish xati oluvchining imzosi aks ettiriladi. Basharti, tushuntirish xati bir necha sahifadan iborat bo'lsa, tushuntirish beruvchi har bir sahifaga alohida imzo chekadi, agar tarjimon ishtirok etgan bo'lsa, u holda tarjimon ham xuddi shu tartibda imzo chekadi.

Olingan tushuntirish xatlari organ (mansabdor shaxs) tomonidan holat yuzasidan to'plangan hujjatlarga qo'shiladi.

Ekspert xulosasi – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishi va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat.

Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Ekspert ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan maxsus bilimlarga zarurat tug'ilgan holatlarda tayinlanadi.

Korxonalar, muassasalar, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxsni ekspert tariqasida ishtirok etishga jalb etishda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligiga, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmaganlik holatlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Ekspert xulosasi, ayniqsa, yengil tan jarohati yetkazish ma'muriy huquqbuzarligi bilan bog'liq murojaatlarning ko'rib chiqilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekspert quyidagi huquqlarga ega:

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning ekspertiza predmetiga oid materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish; ekspertizani o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) ruxsati bilan ishni ko'rib chiqishda hozir bo'lish, javobgarlikka tortilayotgan shaxsga, jabrlanuvchiga, guvohlarga ekspertiza predmetiga oid savollar berish;

– ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

– o'z xulosasida nafaqat oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki ekspertiza predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham fikrlarini bayon etish;

– uning xulosasi yoki ko'rsatmalari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish;

– agar u ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatmalar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

– agar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organning (mansabdor shaxsning) qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ekspert-

ning huquq va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan shikoyat qilish huquqiga egadir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda ekspertlar quyidagi majburiyatlarga ega:

– o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolis yozma xulosa berishi; ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organning (mansabdor shaxsning) chaqiruviga binoan hozir bo'lishi;

– o'zi o'tkazgan ekspertiza xususida ko'rsatmalar berishi va o'zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo'shimcha savollarga javob berishi;

– ekspertiza o'tkazish munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

– taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari saqlanishini ta'minlashi;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda tartibga rioya qilishi shart.

Sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha sud eksperti yoxud sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir sud eksperti imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuziladi.

Ekspert xulosasida quyidagilar o'z aksini topadi:

– sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy;

– sud ekspertizasini o'tkazish asosi;

– sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;

– sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar;

– sud ekspertining bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;

– sud eksperti oldiga qo'yilgan savollar;

– sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;

– sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar;

– qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;

– tekshirish natijalarining baholanishi, qo‘yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

– ish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko‘ra aniqlangan holatlar ko‘rsatilishi lozim.

Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ham ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo‘shib qo‘yish uchun taqdim etiladi.

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlari, materiallar yoki sud ekspertining maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma‘lum bo‘lib qolsa, xulosa ayrim qo‘yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

Tekshirish tugaganidan so‘ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

Ashyoviy dalillar – ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa. Bunday ashyolarga ov quroli, pornografik mazmundagi asarlar, bosma nashrlar, ashyolarning tasvirlari va kino-video filmlar aks ettirilgan video va ovoz yozilgan materiallar, kino-foto materiallar yoki qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilgan va muomalaga kiritilgan etil spirti, alkogolli, tamaki mahsulotlari va boshqalar misol bo‘la oladi.

Bundan tashqari, ish yurituv davomida shaxslardan muayyan turdagi hujjatlar ham olib quyilishi mumkin (bularga ovchilik yoki haydovchilik huquqini beruvchi hujjatlar, qasddan yaroqsiz holatga keltirilgan fuqarolik pasporti, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazmasdan qonunga xilof ravishda tayyorlangan yoki tarqatilgan ommaviy axborot vositalari mahsulotlari va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin).

Mazkur ashyolar shaxsning aybdorligini isbotlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim holatlarda ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyo ma‘muriy jazo tariqasida haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yilishi yoki musodara qilinishi ham mumkin.

Huquqbuzarni ushlab, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish yoki ashyolarini ko‘zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo va hujjatlar ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolatiga ega shaxslar tomonidan olib qo‘yiladi va bu haqda shaxsni ushlab turish, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish yoki ashyolarini ko‘zdan kechirish bayonnomasida qayd etiladi yoki «Ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish» bayonnomasi tuziladi.

Ashyo va hujjatlarni olib qo‘yish – ma‘muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni to‘la va xolisona yuritish, jarima undirilishi va yetkazilgan zararning qoplanishini ta‘minlash maqsadida belgilangan tartibda musodara qilish yoki muayyan muddat saqlash uchun ishga aloqador ashyo va hujjatlarni olishning protsessual jarayoni.

Ashyo va hujjatlarni olib qo‘yishda kamida ikki nafar xolis ishtirokida bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Olib qo‘yish jarayonida ashyo va hujjatlar ko‘zdan kechiriladi, uning xususiyatlari (turi, rusumi, hajmi, rangi, miqdori kabi) bayonnomada o‘z aksini topadi, o‘ralib, muhrlanadi va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilgunga qadar ichki ishlar organining daliliy ashyolarni saqlash xonasida saqlash uchun mas‘ul xodimga topshiriladi.

Ishni ko‘rib chiqish natijalariga qarab, olib qo‘yilgan ashyo va hujjatlar belgilangan tartibda musodara qilinadi yoki egasiga qaytarib beriladi yoxud yo‘q qilib yuboriladi, ashyolar haq to‘lab olib qo‘yilgan taqdirda esa, sotib yuboriladi.

Agar olib qo‘yilgan ashyolar orden, medal, faxriy unvonning ko‘krakka taqiladigan nishoni bo‘lsa, unda ular qonuniy egasiga qaytarib beriladi, basharti, egasi noma‘lum bo‘lsa, unda tegishli organga jo‘natiladi.

Ayrim hollarda bojxona qoidalari yoki soliq va valuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilsa va huquqbuzar shaxs O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo‘lmasa, u holda jarima undirilishini ta‘minlash maqsadida uning ashyolari (qimmatli buyumlari) olib qo‘yilishi mumkin.

Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish protsessual harakati O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 289-moddasiga asosan amalga oshiriladi.

Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish ichki ishlar organlari, harbiy soqchilik, havo transporti, bojxona organlari va chegara qo‘shinlarining vakolatli shaxslari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shunga vakolati bo‘lgan boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda bo'lgan shaxslar tomonidan va shu jinsdagi ikkita xolis guvoh ishtirok etgan holda amalga oshiriladi, aks holda qonun talablari buzilgan deb topiladi.

Agar profilaktika xizmati xodimi erkak jinsiga, ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs ayol jinsiga mansub bo'lsa, u holda ayol jinsidagi xodima, mahalla faollari yoki boshqa shaxs shaxsni ko'rikdan o'tkazish uchun jalb etilishi mumkin. Ushbu vaziyatda profilaktika inspektori tomonidan ularga shaxsni ko'rikdan o'tkazish maqsadi va tartibi haqida tushuntiriladi. Shu tariqa shaxs ko'rikdan o'tkaziladi, profilaktika inspektori esa bu haqda bayonnomani rasmiylashtiradi va bayonnoma barcha qatnashchilar tomonidan imzolanadi.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish jarayonida uning ust-boshi (kiyim-kechagi), yonida bo'lgan narsa-buyum va hujjatlar obdon tekshirilishi, topilgan ashyolar to'liq ko'zdan kechirilishi shart.

Ashyolarni ko'zdan kechirish protsessual harakati ham ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining vakolatli shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Ashyolar bilan bir qatorda transport vositalari ham ko'zdan kechirilishi mumkin. Bu ko'pincha yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan holatlarda amalga oshiriladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, amaliyotda ko'zdan kechirish bilan bog'liq ayrim muammoli holatlar ham uchrab turadi. Masalan, odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lmagan yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda hodisa ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishi va hodisa sodir bo'lgan joy ko'zdan kechirilishi lozim. Biroq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish istisno etilib, faqat ashyolar va transport vositalarini ko'zdan kechirish tartibi qayd etilgan. Ushbu holatda hodisa sodir bo'lgan joyni jinoyat-protsessual tartibda ko'zdan kechirish mantiqqa zid sanaladi. Shu bois, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan ashyolar va transport vositalarini ko'zdan kechirishning protsessual tartibiga amal qilgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ashyolarni, ov qilish va baliq tutish qurollarini, qo'lga kiritilgan mahsulotlar va boshqa buyumlarni ko'zdan kechirish, odatda, shu ashyo va buyumlar kimning mulki yoki egaligida bo'lsa, o'sha shaxs ishtirokida amalga oshiriladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda mazkur ashyolar va

buyumlarni mulkdorsiz (egasisiz) ikkita xolis guvoh ishtirokida ham koʻzdan kechirib chiqilishi mumkin.

Koʻpchilik holatlarda shaxsni ushlab turish va koʻrikdan oʻtkazish, ashyolarni koʻzdan kechirish jarayoni va natijalari bitta bayonnomada qayd etiladi. Biroq, maʼmuriy hududni koʻzdan kechirish yoki muayyan tadbirni oʻtkazish jarayonida aniqlangan huquqbuzarliklar boʻyicha ashyolar huquqbuzarlik sodir etilgan joyning oʻzida rasmiylashtirilib, olib qoʻyilishi shart.

Olib qoʻyilgan ashyolar (qimmatbaho buyumlar) yuqorida keltirilgan tartibda saqlanadi, shuningdek belgilangan tartibda musodara qilinishi yoki egasiga qaytarilishi, yoʻq qilinishi yoxud yetkazilgan zararni qoplash yoki belgilangan maʼmuriy jarimaning undirilishini taʼminlash maqsadida olib qoʻyilishi mumkin.

Oʻz xizmat burchini bajarish vaqtida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan uning ashyolarini olib qoʻyish, shaxsiy koʻrikdan oʻtkazish va ashyolarini koʻzdan kechirish juda zarur hollardagina qoʻllaniladi.

Maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turish, shaxsni koʻrikdan oʻtkazish, ashyolarni koʻzdan kechirish, transport vositalarini ushlab turish va koʻzdan kechirish, ashyo va hujjatlarni olib qoʻyish, transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish ustidan manfaatdor shaxs yuqori organga (mansabdor shaxsga), prokuror yoki sudga shikoyat berishi mumkin.

Mastlik holatini aniqlash uchun shaxsni tekshiruvdan oʻtkazish – transport vositalarini boshqarayotgan shaxsni mastlik holatida deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud boʻlganda, mastlik holatini aniqlash va transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi va Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladigan tekshiruv jarayoni.

Tekshiruv natijasi ifodalangan hujjat shaxsning qilmishini huquqiy kvalifikatsiya qilishda (masalan, MJTKning 131-moddasida nazarda tutilgan «Transport vositalarini mast holda boshqarish» huquqbuzarligi sifatida) yoki muayyan muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish maʼmuriy jazosini qoʻllashda asos yoki dalil sifatida foydalaniluvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Xullas, yuqorida keltirib oʻtilgan ashyoviy dalillar, protsessual harakat va hujjatlar maʼmuriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)larni koʻrib chiqishda dalillar bazasini tashkil etadi va belgilangan tartib-qoidalarga amal qilgan holda olinsa hamda rasmiylashtirilsagina dalil tariqasida

e'tirof etiladi. Va bu ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat yuzasidan asosli va adolatli qaror qabul qilinishi uchun xizmat qiladi.

2.3. Profilaktika xizmatlarining murojaatlarga asosan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni «yuritish» va «ko'rib chiqish» tushunchalari ishlatiladi. Ayrimlar ushbu tushunchalarni bir xil ma'noga ega deb hisoblashsa, ba'zilar esa ular mazmun va hajm jihatidan farqlanadi, degan fikrni bildirishadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u o'z ichiga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishdan ma'muriy jazo qo'llanilishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu jarayon, hattoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish, shuningdek ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha kassatsiya instansiyasi sudida ko'rib chiqishni ham o'z ichiga oladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish esa mazkur ish yurituvining muayyan bir bosqichi sanaladi va o'z ichiga faqat qonun bilan vakolat berilgan organ (mansabdor shaxs)ning ma'lum bir ma'muriy huquqbuzarlik turi bo'yicha uni sodir etgan huquqbuzar shaxsga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan tartib va qoidalarga asosan muayyan qaror qabul qilishini nazarda tutadi. Misol uchun, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 52-moddasida nazarda tutilgan «Yengil tan jarohati yetkazish» ma'muriy huquqbuzarligi sodir etilgan bo'lsa, ushbu holat bo'yicha dastlabki protsessual hujjatlarni profilaktika inspektorlari rasmiylashtirishi, so'ngra ko'rib chiqish uchun ma'muriy ishlar bo'yicha sudlarga taqdim etishi talab etiladi. Bu borada profilaktika inspektorlarining ham, sudlarning ham faoliyati ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritish hisoblanadi. Biroq, faqat sudlarning faoliyati ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)larni ko'rib chiqish mazmuniga ega, chunki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245-moddasida uning 52-moddasidagi ma'muriy huquqbuzarlikni ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalarda ko'rib chiqishi belgilab quyilgan. Demak, ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)larni «ko'rib chiqish» «yuritish» tushunchasidan tor tushuncha hisoblanadi. Biroq, profilaktika inspektorlari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 248-moddasi

2-qismi 4-bandiga asosan, to‘qqiz turdagi ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘yicha «ish yurituv» bilan birga «ko‘rib chiqish»ni ham amalga oshiradilar.

Aslini olganda, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish, qachonki, bu haqda ish qo‘zg‘atilsagina «ish» maqomiga ega bo‘ladi, aks holda ushbu jarayonni faqatgina ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlarni ko‘rib chiqish deb e‘tirof etish lozim.

Umuman olganda, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning «Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolati bo‘lgan organlar (mansabdor shaxslar)» deb nomlangan uchinchi va «Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish»ga bag‘ishlangan to‘rtinchi bo‘limlari hamda O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2001-yildagi 328-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Profilaktika inspektorlari tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha yo‘riqnoma»ga asosan yuritiladi va ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabr-dagi «Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi qarori ham bu yo‘nalishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi¹.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning uchinchi bo‘limi «Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslar)»ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ularning toifalari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasida ichki ishlar organlari, xususan profilaktika (katta) inspektorlari ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan ma‘muriy huquqbuzarliklar toifalari belgilab berilgan.

Agar bir necha ma‘muriy huquqbuzarliklar sodir etilib, ulardan biror-tasining sudga taalluqligi aniqlansa, ular sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, shaxs tomonidan bir nechta huquqbuzarlik sodir etilganda bunday ishlar og‘irroq jazo chorasi belgilangan huquqbuzarlik ishi ko‘rildigan organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etish vaqtida 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan hujjatlar profilaktika (katta) inspektori tomonidan rasmiylashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 14-moddasiga asosan tegishli organga yuboriladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Маъмурий ҳуқуқ-бuzarlik тўғрисидаги ишларни кўриш бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 2000 йил 15 сентябрь қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди. – Т., 2000. – 16-б.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks bilan taqiqlangan qilmishlarni sodir etgan 16 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarga nisbatan to‘plangan hujjatlar hokimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga yuboriladi.

Profilaktika inspektoriga ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaat amalga oshirilgan bo‘lsa yoki uning shaxsan o‘zi ma‘muriy hududda sodir etilayotgan g‘ayrihuquqiy qilmishni aniqlasa, avvalo, shaxsdan g‘ayrihuquqiy qilmishni to‘xtatishni talab qiladi, huquqbuzarning shaxsini aniqlaydi, ma‘muriy huquqbuzarlik guvohlarini topib, ularning ko‘rsatmalarini olish hamda ish uchun zarur va unga aloqador boshqa holatlarni aniqlash choralari ko‘radi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqish muddatlari. Ma‘muriy huquqbuzarlik ishlari bo‘yicha har bir holatni o‘z vaqtida aniqlash ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Qonunda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqishga doir muddatlar alohida-alohida tartibda belgilangan. Misol uchun, Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksning 36-moddasida ma‘muriy jazo qo‘llanish muddatlari huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab **bir yildan** kechiktirmay qo‘llanishi belgilangan.

Shuni narsaga e‘tibor qaratish kerakki, muddatning boshlanishi ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaat amalga oshirilgan sana bilan emas, balki huquqbuzarlik sodir etilgan kun bilan belgilanmoqda.

Davom etayotgan huquqbuzarliklar bo‘yicha huquqbuzarlik aniqlangan kun deganda, vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi qaror qabul qilingan yoki ma‘muriy bayonnoma tuzilgan sanani tushunish kerak.

Mazkur mantiqdan kelib chiqilsa, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yurituvchi aynan nazarda tutilgan **bir yil muddat** ichida amalga oshirilishi talab etiladi. Muddatning bir yil etib belgilanishiga sabab shuki, amaldagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 269-moddasida «ishni qonun hujjatlariga muvofiq hal etish va chiqarilgan qarorning ijrosini ta‘minlash» ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish vazifalaridan biri sifatida keltirib o‘tilgan va bu qaror ijrosining ta‘minlanishini ish yuritishning tarkibiy qismi tariqasida e‘tirof etishni taqozo etadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab ***bir oydan*** kechiktirmay qo'llanilishi talab etiladi.

Bordi-yu, jinoyat ishini yuritish jarayonida jinoyat ishining bir qismi sifatida ma'muriy huquqbuzarlikka oid hujjatlar ajratilib, IIB Kotibiyati orqali chora ko'rish uchun tuman IIB HOOBga yuborilgan bo'lsa, u holda muddat tergovchining jinoyat ishining ma'muriy huquqbuzarlikka oid qismini ajratish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab hisoblanadi va ***bir oy*** etib belgilanadi.

Xullas, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yurituvchi ma'muriy huquqbuzarlik haqida murojaat yoki boshqacha tarzdagi xabar kelib tushgan yoki ma'muriy huquqbuzarlik aniqlanib, ish qo'zg'atilgan yoxud ma'muriy bayonnoma tuzilgan paytdan boshlanib, vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan qaror qabul qilingunga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga qamrab oladi. Bu isbotlashga doir protsessual harakatlarni amalga oshirish va protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish asosida tekshiruvni amalga oshirish jarayonini ham o'zida mujassam etadi. Ko'rinib turibdiki, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni «yuritish» «ko'rib chiqish»ga qaraganda nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish esa, asosan yuqori turuvchi instansiya yoki sudning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bilan tanishib chiqish va vakolati doirasida qaror qabul qilish jarayonini o'zida ifodalaydi.

Chunonchi, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish mazkur ishni ko'rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab ***o'n besh kunlik*** muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51², 51³, 51⁴, 51⁵, 51⁶, 51⁷, 51⁸, 51⁹, 170, 180, 181, 183, 184, 187, 194-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bir sutka mobaynida, 164-moddasining ikkinchi qismida, 201, 202, 203, 204, 205-moddalarida nazarda tutilgan ishlar ***uch sutka*** ichida va 61-moddasida nazarda tutilgan ishlar esa ***besht sutka*** ichida ko'rib chiqilishi talab etiladi.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibga ko'ra, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 280-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda aniqlan-

gan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha bayonnoma tuzib, dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirgan holda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab ***bir sutkadan*** kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 248-moddasi bo'yicha, ushbu ma'muriy huquqbuzarlikni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxsga yuboradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yurituvining birinchi bosqichi ishni qo'zg'atishdir. Mazkur bosqichda profilaktika inspektori, odatda, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 281-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi IIVning «Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha yo'riqnoma»ga asosan huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadi.

Biroq, ma'muriy bayonnoma tuzish ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atildi degani emas, chunki sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan har doim ham ma'muriy bayonnoma tuzilavermaydi. Masalan, fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa va unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan, yo'l harakati qoidabuzarliklari to'g'risidagi ishlar yuzasidan esa faqat Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 138-moddasi birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda (*transport vositasidan foydalanib sodir etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilganda*) ham ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydi. Ushbu holatda aybdorga jarima to'lash to'g'risida belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi. Bordi-yu, fuqaro o'ziga solinadigan jarimaga e'tiroz bildirsa, u holda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 279-moddasiga muvofiq bayonnoma tuziladi.

Umuman olganda, profilaktika inspektori ushbu bosqichda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishni rad etish, qo'zg'atish yoki qo'zg'atilgan ishni tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Bundan tashqari, qonunlarimizda ayrim ma'muriy huquqbuzarlik turlarining bir yil mobaynida bir shaxs tomonidan takroran sodir etilishi Jinoyat kodeksida belgilangan jinoiy javobgarlikning kelib chiqishini nazarda tutadi. Yana shunday ma'muriy huquqbuzarliklar borki, yetkazilgan moddiy zararining miqdori yoki shaxsga tan jarohati yetkazilgan yoxud yetkazilmaganligiga qarab jinoiy huquqbuzarlikdan farqlanadi. Ushbu holatlarda jinoyat alomatlari bor yoki yo'qligi batafsil tekshirilishi lozim.

Amaliyotda sudlar tomonidan aynan shu kabi holatlar yuzasidan huquqiy to'xtamga kelish va bu haqda nafaqat ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish, balki jinoyat ishini rad qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi ham talab etiladi.

Yuqorida keltirilganlar hamda qonun talablariga asoslanib, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atish masalasiga quyidagicha yondashish talab etiladi.

Birinchisi, sodir etilgan har qanday ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ma'muriy bayonnoma to'ldirish va uning qaror qismini quyidagicha shakllantirish tavsiya etiladi:

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atilsin va ish yurituvga olinsin;

– ma'muriy jazo tayinlansin (yoki ma'muriy huquqbuzarlik ishi tegishligiga ko'ra ko'rib chiqish uchun yuborilsin).

Ikkinchisi, ma'muriy ishlar bo'yicha tuman sudlari ko'rib chiqadigan va tarkibida jinoyat alomatlari bo'lishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan qaror qismini quyidagicha shakllantirish tavsiya etiladi:

– jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilsin;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atilsin va ish yurituvga olinsin.

Yuqorida keltirilgan birinchi holatda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish masalasi ma'muriy bayonnomaning qaror qismida, ikkinchi holatda esa alohida qabul qilinadigan «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ishni qo'zg'atish to'g'risida qaror»da ifodalanishi nazarda tutilmoqda.

Shunday holatlar borki, unda nafaqat jinoyat ishi, balki ma'muriy huquqbuzarlik ishini qo'zg'atishni rad etish talab etiladi. Misol uchun, tuman shifoxonasining xabarnomasiga asosan, shaxs yengil tan jarohati olgan holda shifoxonaga olib kelingan. Natijada ushbu xabarnoma asosida tan jarohati olish hodisasi to'liq o'rganib chiqilishi va hodisa tarkibida ma'muriy huquqbuzarlik alomati bor yoki yo'qligini aniqlab, bu haqda qonuniy to'xtamga kelish, agar hodisa tarkibida ma'muriy huquqbuzarlik alomati yo'q bo'lsa, unda bu haqda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasi 1-qism 1-bandiga asosan «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror» qabul qilish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasiga asosan yana quyidagi holatlar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno etadi:

– ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish paytida shaxsning o'n olti yoshga to'lmaganligi;

– g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxsning aqli norasoligi;

– shaxs qilmishni zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida sodir etganligi;

– ma'muriy jazo chorasi qo'llanishini bekor qilishni nazarda tutuvchi amnistiya aktining chiqishi;

– ma'muriy javobgarlikni belgilovchi hujjatning bekor qilinganligi;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytiga kelib ishni ko'rib chiqish muddatining o'tib ketganligi;

– ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan ma'muriy jazo qo'llanish to'g'risida vakolatli organ (mansabdor shaxs) qaror chiqarganligi yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish to'g'risida chiqarilgan qarorning bekor qilinmaganligi, shuningdek mazkur fakt yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilganligi;

– shaxsning vafot etganligi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilganidan so'ng tekshiruv ishlari amalga oshirilib, qonunda nazarda tutilgan protsessual harakatlar asosida dalillar to'planadi. Dalillar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 276-moddasida ko'rsatilgan vositalar, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risida tuzilgan bayonnoma, shuningdek boshqa materiallar asosida to'planadi.

Murojaatlarga asosan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritish va ko'rib chiqish vaqtida:

– ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganligi;

– huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joy;

– mazkur shaxs uni sodir etishda aybdor-aybdor emasligi;

– uning ma'muriy javobgarlikka tortilish-tortilmasligi;

– javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar bor-yo'qligi;

– mulkiy zarar yetkazilgan-yetkazilmaganligi va ishni to'g'ri hal etishda ahamiyatga loyiq boshqa holatlar aniqlanishi lozim. Aks holda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik prinsiplariga amal qilinmaganlik holati kelib chiqadi.

Profilaktika inspektorlari yuqoridagilar bilan birga, huquqbuzarning shaxsi va ishni to'g'ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni har tomonlama sinchkovlik bilan aniqlashlari shart.

Mansabdor shaxs, surishtiruv organlari va sudyalar huquqbuzarning shaxsi haqidagi ma'lumotlarga alohida e'tibor berishlari, ya'ni huquqbuzarning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, ma'lumoti, doimiy yoki vaqtincha yashash joyi, oilaviy ahvoli, qaramog'ida bo'lgan shaxslar soni va yoshlari, muqaddam sudlangan-sudlanmaganligi, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan kunga qadar oxirgi bir yil davomida ma'muriy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi, mashg'ulot turi, lozim deb topilgan hollarda sog'lig'ining holatini aniqlashlari lozim.

Taqdim etilgan hujjatlarda uning shaxsi haqidagi ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, sudya o'z tashabbusi bilan u haqidagi ma'lumotlarni talab qilib olish choralarini ko'rishi mumkin.

Dalillar to'planib, yuqoridagi holatlarga aniqlik kiritilgach, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish mumkin bo'ladi.

Huquqbuzarlikning sodir etilganligi va unda shaxsning aybdorlik masalasini muhokama qilishda sudya taqdim qilingan hujjatlar bilan cheklanmasdan, zaruratga qarab qo'shimcha dalillar talab qilish, huquqbuzarlik haqida bayonnoma tuzgan mansabdor shaxs, jabrlanuvchi (murojaat etuvchi) va guvohlarni chaqirish, ekspertizalar tayinlash, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish va boshqa harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari tomonidan murojaatlarga asosan yuritilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning quyidagi shakllarda ko'rib chiqilishi kuzatiladi:

- shaxsan profilaktika inspektorlari tomonidan ko'rib chiqilishi;
- ichki ishlar organlari rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilishi;
- ma'muriy ishlar bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi;
- tegishliligi bo'yicha ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari yoki boshqa organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko'rib chiqilishi.

Profilaktika (katta) inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxsni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan vakolat doirasida umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortish choralarini ko'radi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs immunitetga ega bo'lgan chet el fuqarosi bo'lsa, unda unga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bo'lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)larni ko'rib chiqish joyi etib quyidagilar belgilanadi:

- huquqbuzarlik sodir etilgan joy;
- huquqbuzar istiqomat qiladigan joy;
- ayrim turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha transport vositalari ro'yxatga olingan joy.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)lar boshqa joylarda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)ni ko'rib chiqish uchun tayyorlashda tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni hal etishi lozim:

- 1) mazkur ishni ko'rib chiqish o'zining vakolat doirasiga kirish-kirmasligini;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini;
- 3) ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarning uni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida xabardor qilingan-qilinmaganligini;
- 4) zarur qo'shimcha materiallar so'rab olingan-olinmaganligini;
- 5) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat qilgan iltimoslar to'g'risidagi masalalarni hal etadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)larni ko'rib chiqish tartibi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 306-moddasiga muvofiq, shu ishni ko'ruvchi kollegial organning tarkibini e'lon qilish yoki mansabdor shaxsni tanishtirishdan boshlanadi. Ishni ko'rib chiquvchi kollegial organning majlisida raislik qiluvchi yoki mansabdor shaxs qanday ish ko'rib chiqilishi lozimligini, ma'muriy javobgarlikka kim tortilayotganligini e'lon qiladi, ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani o'qib eshittiradi. Majlisda qatnashuvchi shaxslar axboroti tinglanadi, keltirilgan dalillar o'rganiladi va tushgan iltimoslar hal etiladi. Ishni ko'rib chiqishda prokuror qatnashgan taqdirda uning xulosasi tinglanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 2000-yil 15-sentabr qaroriga asosan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda mansabdor shaxs, surishtiruv organi va sudyalari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 307-moddasida sanab o'tilgan holatlar bilan birga, huquqbuzarning shaxsi va ishni to'g'ri hal etishda aha-

miyatga molik boshqa holatlarni ham har tomonlama va sinchkovlik bilan aniqlashlari shart.

Huquqbuzarlik sodir etilganligi va unda shaxsning aybdorlik masalasi-ni muhokama qilishda sudya taqdim qilingan hujjatlar bilan chegaralan-masdan zaruratga qarab qo'shimcha dalillar talab qilish, huquqbuzarlik haqida bayonnoma tuzgan mansabdor shaxs, jabrlanuvchi va guvohlarni chaqirish, ekspertizalar tayinlash, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish va boshqa harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)ning ko'rib chiqilishi haqida tegishli organ tomonidan bayonnoma tuziladi. Mazkur bayonnoma ichki ishlar organlari tomonidan tuziladigan ma'muriy bayonnomadan shakl jihatdan farq qilib, u odatda ma'muriy ishlar bo'yicha sudlar yoki tuman hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar majlisida tuziladi. Ushbu bayonnomada:

1) majlis bo'lgan sana va joy; 2) ishni ko'rib chiquvchi organning nomi va tarkibi; 3) ko'rilayotgan ishning mazmuni; 4) ishda qatnashuvchi shaxslarning hozir bo'lgan-bo'lmaganligi; 5) ishni ko'rishda qatnashuvchi shaxslarning izohlari, ularning iltimoslari va bu iltimoslarning natijalari; 6) ishni ko'rib chiqish paytida o'rganilgan hujjatlar va ashyoviy dalillar; 7) qabul qilingan qarorni e'lon qilish to'g'risidagi ma'lumotlar va uning ustidan shikoyat berish tartibi va muddatlari tushuntirilganligi ko'rsatiladi.

Tegishli organ majlisining bayonnomasi majlisda raislik qiluvchi, kotib va ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)ni ko'rib chiqqan organ (mansabdor shaxs) ish yuzasidan qaror qabul qiladi. Ushbu qaror ham profilaktika inspektorlari tomonidan qabul qilinadigan qarordan shakl va mazmun jihatdan farqlanadi. Chunki, profilaktika inspektorlari bu borada IIV tomonidan ishlab chiqilgan belgilangan shakldagi ma'muriy bayon-noma blankini to'ldiradi va uning qaror qismini shakllantiradi.

Ushbu qaror aksariyat hollarda alohida protsessual hujjat sifatida e'tirof etiladi va unda quyidagilar ko'rsatilishi shart hisoblanadi:

– qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs)ning nomi, ishni ko'rib chiqish vaqti;

– ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs haqidagi ma'lumotlar;

– ishni ko'rib chiqish chog'ida aniqlangan holatlarning bayoni;

– sodir qilingan ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi normativ hujjat;

– ish yuzasidan qabul qilingan qaror.

Agar ma'muriy huquqbuzarlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 242-moddasi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi bandlarida ko'rsatilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan jazo berish to'g'risidagi masalani hal qilish chog'ida aybdordan yetkazilgan mulkiy zararni undirib olish masalasi ham hal qilinadigan bo'lsa, ish yuzasidan chiqarilgan qarorda undirib olinishi lozim bo'lgan shu zararning miqdori, undirib olish muddatlari va tartibi ham ko'rsatilishi lozim.

Agar shaxs bir necha ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, u holda ma'muriy jazo chorasini qo'llashda sodir etilgan huquqbuzarliklarning xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, ayb darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarligini og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar e'tiborga olinishi lozim.

Bundan tashqari, ish yuzasidan chiqarilgan qarorda olib qo'yilgan ashyolar va hujjatlar masalasi ham hal qilingan bo'lishi kerak. Kollegial organning qarori majlisda hozir bo'lgan shu kollegial organ a'zolarining oddiy ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi. Qaror ishni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi, kollegial organning qarori esa majlisda raislik qiluvchi va kotib tomonidan imzolanadi (MJtKning 309-m.).

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim hollarda undirib olish chorasini qo'llash ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga tegishlicha yozib qo'yiladi yoxud bu qaror belgilangan usulda rasmiylashtiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish)ni ko'rib chiqqan organ *ma'muriy jazo berish to'g'risida* yoki ishni *tugatish to'g'risida qaror* qabul qiladi.

Ishni tugatish to'g'risidagi qaror og'zaki ogohlantirish e'lon qilinda, shuningdek Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 271-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda chiqariladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid murojaat (ish) yuzasidan chiqarilgan qaror Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 311-moddasi talabi asosida darhol e'lon qilinishi kerak. Qarorning nusxasi uch kun muhlat ichida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxsga topshiriladi yoki jo'natiladi, shuningdek jabrlanuvchi (murojaat etuvchi)ning iltimosiga ko'ra unga ham yuboriladi. Qarorning nusxasi tilxat bilan beriladi. Qarorning nusxasi jo'natilganda, bu haqda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yig'majildiga yozib qo'yiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 311-moddasi talabiga ko'ra, o'qotar qurollar, shuningdek o'q-dorilar xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan ishonib topshirilgan yoki korxonalar, muassasa, tashkilot tomonidan vaqtincha foydalanish uchun berilgan shaxslar xususida MJtKning 185-moddasi va 220-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarning nusxasi axborot uchun tegishli korxonalar, muassasa yoki tashkilotga yuboriladi va mazkur shaxsning o'qotar quroldan foydalani-shini taqiqlash masalasini ko'rib chiqish uchun (MJtKning 312-moddasiga ko'ra) ichki ishlar organiga yuboriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61, 131, 140, 183, 233, 237-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarga jazo berish to'g'risidagi ma'lumotlar borasida huquqbuzar ishlab, o'qib yoki yashab turgan joyga xabar qiladi (MJtKning 312-m.).

Ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 312-moddasi talablari asosida ushbu kodeksning 61, 131, 140, 183, 187, 233, 237-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanish haqi-da chiqarilgan qarorni shu huquqbuzar ishlab yoki o'qib turgan joydagi ma'muriyat yoxud ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzgan mansabdor shaxs e'tiboriga yetkazish huquqiga ega bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 32-moddasi talablari asosida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar haqida ish (o'qish) joyidagi ish beruvchini (ma'muriyatni), yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini g'ayriijtimoiy xulq-atvor va sodir etilgan huquqbuzarlikning holatlarini, shuningdek ularga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlarni ko'rsatgan holda xabardor qilishga haqli.

Bundan tashqari, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 23-moddasi 4-xatboshisi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 313-moddasiga asosan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqqan organ asoslar mavjud bo'lganda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish uchun huquqbuzarning tegishli o'qish, ish va turar joylariga (rahbariga) taqdimnoma kiritadi.

Rahbar taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum

qilishi shart. Aks holda rahbarning qilmishida amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 196-moddasida nazarda tutilgan «Huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan militsiyaning yozma taqdimnomalarini bajarish choralari ko'rmaslik» huquqbuzarligi tarkibi kelib chiqadi va bu rahbarni javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Mazkur huquqbuzarlik tarkibi rahbar taqdimnomaga belgilangan muddat ichida javob qaytarmagan yoki javob qaytargan bo'lsa-da, amalda huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish choralari ko'rilmagan hollarda kelib chiqadi.

Agar sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lsa, ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 21-moddasida belgilangan talablar asosida huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 31-moddasiga ko'ra «Rasmiy ogohlantirish» bilan kifoyalanishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning qonunga asoslangan holda yuritilishi va ko'rib chiqilishini nazorat qilish va ta'minlash prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarlik holatida jinoyat alomatlari bor degan xulosaga kelsa, u materiallarni prokurorga, dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga qaytarishi shart.

2.4. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda ham, boshqa huquqiy protsesslardagi kabi, qonuniylikning ustuvorligi asosiy prinsiplardan biridir. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda qonuniylik prinsipi yuqori turuvchi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi, prokuror nazorati va shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

Chunonchi, bu borada prokuror nazorati unga berilgan quyidagi huquqlarda o'z aksini topadi:

- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atish;
- ish materiallari bilan tanishib chiqish;
- ish yuritish vaqtida organlar (mansabdor shaxslar)ning harakatlari qonuniyligini tekshirish;
- ishni ko'rib chiqishda qatnashish;

– ishni ko‘rib chiqish vaqtida vujudga kelgan masalalar xususida xulosalar berish;

– ma‘muriy huquqbuzarliklar uchun tegishli organlar (mansabdor shaxslar)ning ta‘sir ko‘rsatish choralari to‘g‘ri qo‘llanganligini tekshirish;

– ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qabul qilingan qarorga yoki shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga protest keltirish;

– qonunda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni qilish.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish chog‘ida ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish qonunda ishga nisbatan bildirilgan alohida-alohida mazmun va shaklga ega e‘tiroznoma sifatida gavdalanadi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs, jabrlanuvchi, shuningdek ularning qonuniy vakillari va advokatlarga berilgan huquqdir (MJtKning 314-moddasi).

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs)ga yoki ma‘muriy ishlar bo‘yicha tuman (shahar) sudyasiga, sudyaning ma‘muriy ishlar bo‘yicha qarori ustidan esa, tuman (shahar) sudi raisi yoki yuqori turuvchi sudga berilishi mumkin.

Shikoyat ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) orqali yoki bevosita sudga yuboriladi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) shikoyatni olgach, uni *uch sutka* ichida ish bilan birga ushbu moddaga muvofiq shikoyatni ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan organga (mansabdor shaxsga) yuboradi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat bergan shaxsga davlat bojini to‘lash majburiyati yuklatilmaydi.

Shikoyat chiqarilgan qaror nusxasini olgan kundan boshlab *o‘n kun* ichida berilishi shart, aks holda qaror qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi. Mazkur muddat faqat uzrli sabablar bilan o‘tkazib yuborilgan taqdirdagina shikoyatni ko‘rib chiqish vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Prokurorning protesti qarorning kuchga kirgan-kirmaganligiga qarab kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rib chiqiladi. Sudya shikoyat yoki protestni olgan kundan boshlab uch kun ichida hujjatlar bilan shikoyat

yoki protestni ko‘rib chiqish uchun sud raisi yoki yuqori turuvi sudga yuborishi lozim.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 320-moddasida belgilangan tartibda kassatsion bosqich sudyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida prokuror:

1) tuman (shahar) sudining ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyasi qarori ustidan – tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga;

2) boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan – qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) shikoyat va protest tushgan kundan boshlab o‘n kun muddat ichida ko‘rib chiqadilar va ko‘rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosliligi va adolatli ekanligini tekshiradilar.

Belgilangan muddatda shikoyat berilishi yoki prokurorning protest bildirishi ma‘muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risidagi qaror ijrosini ish qayta ko‘rib chiqilguniga qadar to‘xtatib turadi (ma‘muriy qamoq jazosi qo‘llanish to‘g‘risidagi qaror va ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda undirib olinadigan jarima solish hollari bundan mustasnodir).

Kassatsion bosqich sudi sudyasi ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki keltirilgan protest bo‘yicha hal qiluv qarori chiqaradi va u chiqarilgan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Kassatsion bosqich sudi sudyasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 321-moddasida qayd qilingan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

– chiqarilgan qarorni o‘zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldiradi;

– chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni qayta ko‘rib chiqish uchun yuboradi;

– chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni yuritishni to‘xtatadi;

– jazo chorasini kuchaytirmagan holda uni ma‘muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normativ hujjatda nazarda tutilgan doirada o‘zgartiradi.

Kassatsion bosqich sudi sudyasi va nazorat bosqichi huquqbuzarning harakatlarini bayonnoma va ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan holatlardan faktik holatlari jiddiy farq qilmaydigan va huquqbuzarning holatini og'irlashtirmaydigan yengillashtiruvchi holatlarni nazarda tutuvchi moddalarga qayta kvalifikatsiya qilishi mumkin.


Kassatsion bosqich sudi sudyasi tomonidan qabul qilingan qaror qabul qilinishi hamono qonuniy kuchga kirishi munosabati bilan ushbu qaror yuzasidan manfaatdor tomonlar nazorat tartibida shikoyat berishlari mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan qarorga «Sudlar to'g'risida»gi va «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining umumiy qoidalarga muvofiq tegishli sud raislari va prokurorlar tomonidan nazorat tartibida protest kiritiladi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratiya, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga to'liq amal qilib, qonuniy talab, tartib-qoidalarga asosan ko'rib chiqilishini nazorat qilish, ushbu sohadagi mavjud amaliyotni muntazam ravishda o'rganish va umumlashtirib borishga bevosita ichki ishlar organlari rahbariyati va prokuratura organlari mas'uldirlar.

Bu borada sudyalar faoliyatini nazorat qilish, o'rganish va umumlashtirish vazifalari Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari zimmasiga yuklatiladi.

**Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash
SXEMASI**



**Profilaktika xizmatlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarlarni ko'rib chiqishga oid
HUQUQIY TARTIB**

Ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish asoslari	Ma'muriy huquqbuzarlik quyidagi manbalarda qayd etilishi mumkin	Profilaktika xizmatlarining ma'muriy huquqbuzarlikni ko'rib chiqishdagi roli	Ko'rib chiqish muddatlari	Qabul qilinadigan qaror
Bevosita aniqlash asosida	Ma'muriy bayonnoma, ma'muriy jazoga tortilgan (protokol tuzilmasdan) shaxslarni hisobga olish № 2-AP shaklidagi kartochkasi	Bevosita ko'rib chiqadi	Ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangandan so'ng 15 kun muddat ichida	1. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish to'g'risida
Murojaatga asosan	MTPning Fuqarolarni qayd qilish kitobi	Dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirib, ko'rib chiqish uchun tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organlariga yuboradi	MJTKning 51 ² , 51 ³ , 51 ⁴ , 51 ⁵ , 51 ⁶ , 51 ⁷ , 51 ⁸ , 51 ⁹ , 170, 180, 181, 183, 184, 187, 194-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bir sutka ichida	2. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishni rad etish to'g'risida
Xabarga asosan	IIB Navbatchilik qismidagi 2-shakl kitobi		MJTKning 164-moddasining ikkinchi qismida, 201, 202, 203, 204, 205-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uch sutka ichida	3. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni tugatish to'g'risida
Jinoyat ishidan ajratilgan qismi bo'yicha	Ma'muriy huquqbuzarliklarni va ularni sodir etgan shaxslarni hisobga olish daftari		MJTKning 61-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar besh sutka ichida	4. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida 5. Ko'rib chiqish uchun tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organlariga yuborish to'g'risida

**Profilaktika (katta) inspektori tomonidan jinoyatga oid ariza va xabarlarni ko‘rib chiqishga oid
HUQUQIY TARTIB**

Jinoyatga oid ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish asoslari	Jinoyatga oid ariza va xabarlar qayd etiladigan manba	Jinoyatga oid ariza va xabarlarni ko‘rib chiqishdagi roli	Ko‘rib chiqish muddatlari	Quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi
Murojaatga asosan	IIB Navbatchilik qismidagi 1-shakl va 2-shakl kitobi	Tergov-tezkor guruhi tarkibida harakatlanadi	Tergov-tezkor guruhi yetib kelguniga qadar funksional vazifani bajaradi, so‘ngra tergovchining topshirig‘iga ko‘ra harakatlanadi.	Profilaktika inspektori tergov-tezkor guruhi tarkibida harakatlan-ganida mustaqil qaror qabul qilmaydi. Barcha harakatlar tergovchining nazorati ostida amalga oshiriladi.
Xabarga asosan		Jinoyatga oid ariza yoki xabarga asosan tergovga qadar tekshiruv o‘tkazadi	Jinoyatga oid ariza yoki xabar ro‘yxatga olingach darhol , jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo‘lganda esa o‘n sutkadan kechikmasdan ko‘rib chiqilishi lozim. JPKning 329-moddasi 3-qismida ko‘rsatilgan hollarda ushbu muddat prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin	1. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida; 2. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida; 3. Jinoyatga oid ariza yoki xabarni tegishliligiga ko‘ra yuborish to‘g‘risida (JPKning 345, 346-moddalariga ko‘ra).
Bevosita aniqlash asosida		Jinoyatga oid ariza yoki xabarga asosan surishtiruvni olib boradi	Jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv surishtiruvchi tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan yoki o‘z ish yurituviga olingan paytdan boshlab o‘n sutkadan oshmagan muddatda olib boriladi	1. Jinoyat ishini tergovchiga o‘tkazish to‘g‘risida; 2. Ishni taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida; 3. Amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida.

Izoh: IIB Navbatchilik qismida mavjud bo‘lgan 2-shakl kitobida qayd etilgan jinoyatga oid ariza yoki xabarlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv muddatlarida asoslantirilgan qarorlardan biri qabul qilinmasa va 1-shakl kitobiga qayd etilmasa, unda xodimning bu harakatlari jinoyatni qasddan yashirish deb baholanishiga asos bo‘lishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qayd etish

KARTOCHKASI

(Old tomoni)

Tartib raqami:	Savol:
Murojaat qiluvchi:	
Manzili:	
Murojaat kelib tushgan sana:	Murojaat qiluvchilar soni:
Murojaatning shakli:	Varaqalar soni:
Qabul shakli:	Dublikat/takroriy
Murojaatning turi:	Oldingi murojaatning sanasi va raqami:
Nazorat turi:	
Murojaatning qisqacha mazmuni:	
Rezolyutsiyani (topshiriqni) imzolagan rahbar	
Rahbarning rezolyutsiyasi (topshirig'i):	Bajarish muddati:
Tarkibiy bo'linma:	Ijrochi:

(Orqa tomoni)

Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:		
Yuborilgan sana:	Qayerga yuborilgan:	Javob xatining raqami va sanasi:
Muddati uzaytirilgan:	Kim tomonidan: (imzo)	
Javob xati kelgan sana:		
Ko'rib chiqish natijalarining qisqacha mazmuni:		
Nazoratdan olindi (kim tomonidan):	Bajaruvchining imzosi:	
Sana:	Bajarilgan sana:	
Murojaatni ko'rib chiqish muddati buzilganligi haqida belgi:		

MTPda yuritiladigan fuqarolarni qayd qilish kitobining ustki qismi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHAR ICHKI ISHLAR BOSH BOSHQARMASI
MIRZO ULUG‘BEK TUMAN ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI**

106-SONLI

MILITSIYA TAYANCH PUNKTINING

FUQAROLARNI QAYD QILISH

K I T O B I

Boshlangan vaqti: «__» _____ 20__ - yil

Tugatilgan vaqti: «__» _____ 20__ - yil

Kitobning ichki qismi: (1-tomon)

t/r	sana	Murojaat qilgan fuqaroning F.I.O. tug‘ilgan yili	Yashash manzili
1.	12.12.2015	Qarshiyev G‘ulomjon Sayfullayevich, 1981-yil 28-dekabr	Mirzo Ulug‘bek tuman Qorasuv 3-dahasi «Katta Qorasuv» mahallasi 20-uy 33-xonadon
2.			

Kitobning ichki qismi: (2-tomon)

Murojaatning qisqacha mazmuni	Ko‘rilgan chora-tadbirlar
G‘.S. Qarshiyev qo‘shnisi Mirzo Ulug‘bek tuman Qorasuv 3-dahasi «Katta Qorasuv» mahallasi 20-uy 35-xonadonda istiqomat qiluvchi Sh.R.G‘ofurov suv toshirib, yaqinda ta‘mirdan chiqqan oshxonasiga moddiy zarar yetkazganligini ma‘lum qilib, ushbu zararni undirishni so‘ragan	Hodisa atroflicha o‘rganilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi va G‘.S. Qarshiyevga ushbu murojaatni ko‘rib chiqish fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqli ekanligi tushuntirildi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHAR ICHKI ISHLAR BOSH BOSHQARMASI
MIRZO ULUG‘BEK TUMAN ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI**

106-SONLI

MILITSIYA TAYANCH PUNKTINING

**FUQAROLARNING TURGAN JOYI BO‘YICHA HISOBGA OLINISHI YUZASIDAN
YOZGAN ARIZALARINI QAYD ETISH**

K I T O B I

Boshlangan vaqti: «__» _____ 20__ -yil

Tugatilgan vaqti: «__» _____ 20__ -yil

Kitobning ichki qismi: (1-tomon)

T/r	Ariza beruvchi va u bilan birga kelgan 16 yoshga to‘lmagan farzandlarining F.I.O., tug‘ilgan sanasi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami	Ariza beruvchining doimiy turar joyi	Ariza qayd etilgan sana	Ariza beruvchi hisobga olingan turar joy
1	Ariza beruvchi: Raximova Saodat Tursunovna 12.09.1978-yilda Qashqadaryo viloyat G‘uzor tumanida tug‘ilgan, fuqarolik pasporti raqami: AV0125346	Qashqadaryo viloyat G‘uzor tumani «Farobiy» ko‘chasi 21-xonadon	12.09.2015	M.Ulug‘bek tuman Qorasuv 3-dahasi 30-uy, 33-xonadon
2.	Qizi: Raximova Manzura Rustam qizi, 25.05.2009-yilda Qashqadaryo viloyat G‘uzor tumanida tug‘ilgan, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma raqami: S 0129341	Qashqadaryo viloyat G‘uzor tumani «Farobiy» ko‘chasi 21-xonadon		M.Ulug‘bek tuman Qorasuv 3-dahasi 30-uy, 33-xonadon

Kitobning ichki qismi (2-tomon)

Turar joy bergan mulkdorning doimiy yashash manzili, telefon raqami	Hisobga olingan shaxsning kelish varaqasi Manzilma'lumotnoma byurosiga yuborilgan sana	Qayd varag‘ining raqami, berilgan sanasi va muddati	Hisobdan chiqarilgan sana	Izoh
M.Ulug‘bek tuman Qorasuv 3-dahasi 30-uy, 33-xonadon. Tel: (93) 580-11-11 (sot), 265-21-48 (uy)	12.09.2015	15/1275-raqamli qayd varag‘i, 22.09. 2015-yilda berilgan		
M.Ulug‘bek tuman Qorasuv 3-dahasi 30-uy, 33-xonadon. Tel: (93) 580-11-11 (sot), 265-21-48 (uy)	12.09.2015	15/1276-raqamli qayd varag‘i, 22.09. 2015-yilda berilgan		

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHAR ICHKI ISHLAR BOSH BOSHQARMASI
MIRZO ULUG‘BEK TUMAN ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI**

106-SONLI

MILITSIYA TAYANCH PUNKTINING

**MILITSIYA TAYANCH PUNKTIDA FUQAROLARNING TAKLIF VA TAVSIYALARINI
QAYD ETISH**

K I T O B I

Boshlangan vaqti: «__» _____ 20__ -yil

Tugatilgan vaqti: «__» _____ 20__ -yil

Kitobning ichki qismi:

T/r	Fuqaroning F.I.O.i	Fuqaroning yashash manzili	Fuqaroning taklifi yoki tavsiyasi	Taklif yoki tavsiya bo‘yicha qabul qilingan qaror
1.	Sobirov O‘tkir Xamidovich	M.Ulug‘bek tuman Qorasuv 1-dahasi 30-uy, 38-xonadon	Mahallada voyaga yetma- ganlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish uchun 2015-yilning 1– 10-oktabr kunlari sport- ning futbol, voleybol va shaxmat turlari bo‘yicha musobaqa tashkil etish va unga homiylik qilish	Taklif 12.09.2015-yilda «Katta Qorasuv» MFYda muhokama qilindi (<i>Bayon- noma № 98</i>) hamda ma‘qullandi. Sport tadbiri rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Izoh: «Fuqarolarning taklif va tavsiyalari kitobi» MTPda fuqarolarga ko‘rinadigan joyga qo‘yiladi va fuqaroning talabi asosida unga beriladi. Fuqaroning taklif va tavsiyasi vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda tegishli qaror qabul qilinadi.

1-shakl kitobining rekvizitlari

**JINOYATLAR TO‘G‘RISIDA ICHKI ISHLAR BO‘LIMIGA
KELGAN ARIZA VA XABARLARNI
HISOBGA OLISH**

K I T O B I

Boshlandi: 2015-yil « 01 » 01 dan

Tugallandi: 2015-yil « 31 » 12 da

(Kitobning ichki qism 1-beti)

1	2	3	4
Tartib raqami	Qachon jinoyat haqida ariza tushdi (kuni, vaqti)	Sodir etilgan jinoyat haqida kim xabar qildi (Familiya, ismi, otasining ismi, yashash manzilgohi, telefon raqami, korxon, birlashma nomi, manzilgohi, telefon raqami). Qayd qilish raqami	Ariza yoki xabarnomaning qisqacha mazmuni (vaqti, manzili, sharoiti). O‘z. Res. Jinoyat kodeksining moddasi
1.	2015-yil 15-noyabr kuni soat 12.00larda	Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman Qorasuv 1-dahasi 20-uy, 30-xonadonda istiqomat qiluvchi Sh.Qurbonov. Tel: 265-60-80.	2015-yilning 15-noyabr kuniga o‘tar kechasi noma‘lum shaxslar uni xonadoniga yashirin ravishda kirib, jami 5.000.000. (besh million) so‘mlik kiyim-kechak, tilla taqinchoqlarni o‘g‘irlab, O‘z. Res. JKning 169-moddasi 2-qism «a» va «g»-bandlarida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etgan.

(Kitobning ichki qism 2-beti)

5	6	7	8
<p>Ariza bo'yicha ko'rilgan choralar. Tergov tezkor guruhi a'zolarining (F.I.O.) jinoyat sodir etilgan joyga chiqqan vaqti. Daliliy ashyolar olinganligi to'g'risida ma'lumot.</p>	<p>Ariza yoki xabarnomani tekshirish kimga topshirilgan? Kim tomonidan?</p>	<p>Tushgan arizani qabul qiluvchining imzosi. Qabul qilingan vaqti va kuni.</p>	<p>Ariza tekshirilganligi natijasi. Jinoyat ishi qo'zg'atilganlik vaqti, kuni. Qo'zg'atilgan jinoyat ishini bekor qilish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kuni. (Qayd qilish raqami № _____ jo'natma raqami, ariza topshirilgan kun. Jamoatchilik orqali ta'sir ko'rsatish uchun hujjatlarni tegishli joyga yuborilganligi haqidagi belgi)</p>
<p>Voqea joyiga tergov-tezkor guruhi tergovchisi, mayor G'.S.Qarshiyev, JQ va UJQKB tezkor vakili mayor R.S.Olimov, Ekspert-kriminalist katta leytenant M.T.Ismoilov, profilaktika inspektori kapitan I.A.Isayevlar chiqishdi. Voqea joyidan 6 (olti) dona barmoq izi olingan</p>	<p>Tergovchi, mayor G'.S.Qarshiyevga</p>	<p>_____ (imzo) (sana) Tergovchi, mayor G'.S.Qarshiyev</p>	<p>O'z. Res. JKning 169-moddasi 2-qism «a» va «g»-bandlari bilan №12-345-sonli jinoyat ishi qo'zg'atildi.</p>

2-shakl jurnalining rekvizitlari

**ICHKI ISHLAR BO‘LIMIGA TELEFON, TELEGRAF, SIGNAL
BERADIGAN QO‘RIQLASH MOSLAMALARINING ISHLAB KETISHI
NATIJASIDA VA BOSHQA SIGNALLAR ORQALI HODISALAR
BO‘YICHA MA‘LUMOTLARNI
HISOBGA OLISH**

J U R N A L I

**Boshlandi: 2015-yil « 01 » 01 dan
Tugallandi: 2015-yil « 31 » 12 da**

(Jurnalning ichki qism 1-beti)

1	2	3	4
Tartib raqami	Qachon (ma'lumotlar) xabar kelib tushdi (kuni, vaqti)	Kim xabar qildi. Ismi, sharifi, yashash manzili, telefon raqami, korxonasi, birlashma nomi, manzilgohi: navbat-chining ismi, otasining ismi, markazlashgan qo'riqlash pultining dispetcheri	Xabarning qisqacha mazmuni (vaqti, manzilgohi, sharoiti).
23/161-13	2015-yil 5-may soat 12.00	Xabar Toshkent shahar Chilonzor tumanida joy- lashgan 16-sonli shahar markaziy shifoxona dis- petcheri Sh.Xakimova tomonidan telefon orqali kelib tushdi	2015-yil 5-may kuni soat 11.45larda Chilonzor tuman 2-daha 15-uy 2-xonadonda yashovchi, 1982-yilda tug'ilgan Ibragimov Sherzod otasi tomonidan kaltaklanib, tan jarohati olganligi sababli tez yordam xizmati orqali 16-sonli shahar shifoxonasiga olib borilgan

(Kitobning ichki qism 2-beti)

5	6	7	8
Xabar bo'yicha navbatchi tomonidan ko'rilgan choralar	Ariza yoki xabar-nomani tekshirish kimga topshirilgan? Kim tomonidan?	Tushgan arizani qabul qiluvchining imzosi. Qabul qilingan vaqti va kuni.	Ariza tekshirilganligi natijasi. Jinoyat ishi qo'zg'atilganlik vaqti, kuni. Qo'zg'atilgan jinoyat ishini bekor qilish to'g'risida qaror chiqarilgan kuni (qayd qilish raqami № _____ jo'natma raqami, ariza topshirilgan kun. Jamoatchilik orqali ta'sir ko'rsatish uchun hujjatlarni tegishli joyga yuborilganligi haqida belgi)
Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'iga xabar berilgan va Chilonzor tumani IIB HOOB 144-sonli MTP profilaktika inspektori, kapitan J.T.Ro'ziyev 16-sonli shifoxonaga yuborilgan.	Xabar o'z tasdiq'ini topdi. O'z. Res. JKning 109-moddasi 2-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.	Jabrlanuvchidan ariza olindi va 1-shakl kitobiga 14-sonli raqam bilan ko'chirildi.	Shu holat bo'yicha tergovchi, mayor S.K.Shokirov 2015-yil 25-mayda O'z. Res. JKning 109-moddasining 2-qismi bilan 7/1524-sonli jinoyat ishini qo'zg'atdi.

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani IIB boshlig‘i, polkovnik

I.I.Xalilovga

1979-yil 26-aprel kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, oliy ma’lumotli, oilali, 2 nafar farzandi bor, «Dunyo» supermarketida sotuvchi bo‘lib ishlovchi, muqaddam sudlanmagan, Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasuv 2-dahasi 18-uyda istiqomat qiluvchi Rashidova Komila Baxodirovnadan

A R I Z A

Rashidova Komila Baxodirovna, ushbu arizani yozishdan oldin O‘zbekiston Respublikasi JKning 237-moddasiga ko‘ra, yolg‘on xabar berganlik uchun javobgarlikka tortilishim mumkinligi haqida ogohlantirildim.

K.B.Rashidova

(imzo)

Arizani yozishimdan maqsad shuki, 2015-yil 23-noyabr kuniga o‘tar kechasi xonadonimizda hech kim yo‘qligi va uy qarovsiz qoldirilganligidan foydalanib, uy eshigini buzib kirib, uydagi shkafda saqlanayotgan jami 25.000.000 (yigirma besh million) so‘mlik buyumlarim va 3200 (uch ming ikki yuz) AQSh dollari miqdoridagi pullarimni o‘g‘irlab ketgan noma’lum shaxslarni topib, qonuniy chora ko‘rishingizni hamda olib ketilgan buyum va pullarimning qaytarilishida amaliy yordam berishingizni so‘rayman.

Arizani o‘z qo‘lim bilan to‘g‘ri yozdim.

Ariza beruvchi

K.B.Rashidova

(imzo)

2015-yil 23-noyabr

Arizani qabul qildim:
Mirzo Ulug‘bek tuman IIB
HOOB profilaktika katta
inspektori mayor

Sh.R. G‘ofurov

(imzo)

2015-yil 23-noyabr

Og‘zaki arzni qabul qilish
BAYONNOMASI

2015-yil 23-noyabr

Toshkent shahri

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman IIB HOOB profilaktika katta inspektori kapitan B.A.Umirzakov O‘zbekiston Respublikasi JPKning 324-moddasi talablariga rioya qilgan holda quyidagi fuqarodan og‘zaki arzni qabul qildim:

- | | |
|-------------------------------------|--|
| 1. Familiyasi, ismi, otasining ismi | Rashidova Komila Baxodirovna |
| 2. Tug‘ilgan yili, oyi va kuni | 1979-yil 26-aprel |
| 3. Millati va fuqaroligi | o‘zbek, O‘z.Res. fuqarosi |
| 4. Ma‘lumoti | o‘rta |
| 5. Oilaviy ahvoli | oilali, 2 nafar farzandi bor |
| 6. Ish joyi | M.Ulug‘bek tuman Qorasuv 2-dahasida joylashgan «Dunyo» supermarketida sotuvchi |
| 7. Yashash joyi | M. Ulug‘bek tumani Qorasuv 2-dahasi, 18-uy |
| 8. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat | 03.03.2004-yilda M.Ulug‘bek tuman IIB tomonidan berilgan SA 334455 seriyali fuqarolik pasporti |

Arzni qabul qilish soat 9²⁵ da boshlandi.

Rashidova Komila Baxodirovna, ushbu arizani yozishdan oldin O‘zbekiston Respublikasi JKning 237-moddasiga ko‘ra, bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun javobgarlikka tortilishim mumkinligi haqida ogohlantirildi.

K.B.Rashidova

(imzo)

Fuqaro Rashidova Komila Baxodirovna og‘zaki ravishda quyidagilarni bayon qildi: «2015-yil 23-noyabr kuniga o‘tar kechasi xonadonimizda hech kim yo‘qligi va uy qarovsiz qoldirilganligidan foydalanib, uy eshigini buzib kirib, uydagi shkafda saqlanayotgan jami 25.000.000 (yigirma besh million) so‘mlik buyumlarim va 3200 (uch ming ikki yuz) AQSh dollari miqdoridagi pullarimni o‘g‘irlab ketgan noma‘lum shaxslarni topib, qonuniy chora ko‘rishingizni hamda olib ketilgan buyum va pullarimni qaytarilishida amaliy yordam berishingizni so‘rayman».

Arzni qabul qilish soat 9.40da tamomlandi.

Ushbu bayonnomani o‘qib chiqdim. Bayonnoma mening so‘zlarimdan to‘g‘ri va aniq yozilgan, qo‘shimcha va e‘tirozlarim yo‘q.

Arz qiluvchi

K.B.Rashidova

(imzo)

Arizani qabul qildim va bayonnoma tuzdim:

M. Ulug‘bek tuman IIB HOOB profilaktika katta inspektori kapitan

B.A.Umirzakov

(imzo)

***Profilaktika inspektori to'plangan materialni tergovga taqdim qilishni so'rab
IIB boshlig'i nomiga yozgan bildirgi namunasi***

**Toshkent shahar M. Ulug'bek
tumani IIB boshlig'i,
polkovnik**

I.I.Haydarovga

B I L D I R G I

Sizga shuni ma'lum qilamanki, joriy yilning 13-may kuni yordam so'rab murojaat qilgan fuqaro Saidov Sanjar Olimovichning arizasi bo'yicha tergovga qadar tekshiruv ishlari olib borilib, quyidagilar aniqlandi: 2015-yilning 12-may kuni soat taxminan 15.40larda fuqaro Saidov Sanjar xonadonida tug'ilgan kunini nishonlab qo'shnisi Ganiyev Suxrob Azamatovich bilan spirtli ichimlik iste'mol qilgan, o'rtalarida o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, janjallashib qolgan, janjal vaqtida Ganiyev Suxrob jahl ustida stolda turgan pichoq bilan uy egasi Saidov Sanjarning o'ng son qismiga tan jarohati yetkazgan va natijada u 16-sonli shahar shifoxonasiga yotqizilgan. Toshkent shahar 2-filial sud-tibbiy ekspertiza byurosining 2015-yil 21-maydagi 216-sonli xulosasiga ko'ra, fuqaro Saidov Sanjar Olimovichga «Sog'liqning buzilishiga sababchi bo'lgan yengil tan jarohati» yetkazilganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, fuqaro Ganiyev Suxrob Azamatovich tomonidan sodir etilgan qilmishda O'zbekiston Respublikasi JKning 109-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jinoyat alomatlari mavjud va shu bois to'plangan hujjatlarni jinoyat ishini qo'zg'atib, dastlabki tergov olib borish uchun IIBning tergov bo'limiga taqdim etishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Ilova: ariza bo'yicha to'plangan hujjatlar 28 (yigirma sakkiz) varaqda

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek
tuman IIB HOOB profilaktika
katta inspektori mayor

(imzo)

A.D.Ernazarov

2015-yil 22-may

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqida
QAROR

2015-yil 25-may

Toshkent shahri

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman IIB HOOB profilaktika katta inspektori mayor G'.S.Qarshiyev, tuman IIB navbatchilik qismining 1-shakl kitobida 2811-son bilan qayd etilgan, 1978-yilda tug'ilgan fuqaro Saidov Sanjar Olimovichning arizasi yuzasidan to'plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib,

A N I Q L A D I M :

2015-yilning 12-may kuni soat taxminan 15⁴⁰larda fuqaro Saidov Sanjar xonadonida tug'ilgan kunini nishonlab qo'shnisi Ganiyev Suxrob Azamatovich bilan spirtli ichimlik iste'mol qilgan, o'rtalarida o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, janjallashib qolgan, janjal vaqtida Ganiyev Suxrob jahl ustida stolda turgan pichoq bilan uy egasi Saidov Sanjarning o'ng son qismiga tan jarohati yetkazgan va natijada u zudlik bilan 16-sonli shahar shifoxonasiga yotqizilgan.

Toshkent shahar 2-filial sud-tibbiy ekspertiza byurosining 2015-yil 21-maydagi 216-sonli xulosasi bilan fuqaro Saidov Sanjar Olimovichga «Sog'liqning buzilishiga sababchi bo'lgan yengil tan jarohati» yetkazilgan deb topilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, fuqaro Ganiyev Suxrob Azamatovich tomonidan sodir etilgan qilmishda O'zbekiston Respublikasi JKning 109-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jinoyat alomatlari mavjud va shu bois to'plangan hujjatlarni jinoyat ishini qo'zg'atib, dastlabki tergov olib borish lozimligini nazarda tutib hamda O'zbekiston Respublikasi JPKning 321, 322-moddasi 1-qismining 1-bandi, 350-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M :

1. Mazkur holat yuzasidan Ganiyev Suxrob Azamatovichga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 109-moddasi 2-qismi alomatlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilsin.

2. Ushbu qaror mazmuni manfaatdor tomonlarga ma'lum qilinsin va O'zbekiston Respublikasi JPKning 338-moddasiga asosan, qaror ustidan Toshkent shahar prokuroriga shikoyat qilishga haqli ekanliklari tushuntirilsin.

3. Qarorning nusxasi tuman prokuroriga yuborilsin.

Mirzo Ulug'bek tuman IIB HOOB
profilaktika katta inspektori mayor

G'.S.Qarshiyev

(ИМЗО)

Jinoyat ishni qo‘zg‘atishni rad qilish haqida QAROR

2016-yil 20-yanvar

Toshkent shahri

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman IIB HOOB profilaktika inspektori katta leytenant S.I. Jumanov, tuman IIB navbatchilik qismining 2-shakl kitobida 1078-son bilan qayd etilgan 1-sonli shahar shifoxonasining Mirzo Ulug‘bek tuman Qorsuv 3-dahasi 11-uy, 4-xonadonda yashovchi fuqaro Zarifa Azizovna Rahimovaning tan jarohati bilan yotqizilganligi bo‘yicha bergan xabari asosida to‘plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib,

A N I Q L A D I M:

2016-yilning 1-yanvar kuni soat taxminan 22.00larda Mirzo Ulug‘bek tumani Qorsuv 3-dahasi 11-uy 4-xonadonda yashovchi fuqaro, 1972-yilda tug‘ilgan Rahimov Sobir Akromovich uyiga mast holda kelib, turmush o‘rtog‘i fuqaro, 1976-yilda tug‘ilgan Rahimova Zarifa Azizovna bilan janjallashib, uni urib-do‘pposlagan. Natijada Rahimova Zarifa Azizovna 2016-yilning 2-yanvar kuni soat 04.00larda tez tibbiy yordam orqali tan jarohati bilan 1-sonli shahar shifoxonasiga yotqizilgan.

Ushbu holat bo‘yicha 2016-yil 15-yanvar kuni Rahimova Zarifa Azizovnaga yetkazilgan tan jarohatini aniqlash maqsadida «Sud-tibbiy ekspertiza tayinlash haqida» qaror qabul qilindi

2016-yil 19-yanvar kuni Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasiga qarashli Sud-tibbiy ekspertiza byurosining 2-filiali taqdim qilgan 2238-sonli xulosasiga ko‘ra, Z.A. Rahimovaga yengil tan jarohati yetkazilganligi aniqlangan.

Tergovga qadar tekshiruv davomida S.A. Rahimovdan tushuntirish talab qilinganda, u o‘z tushuntirish xatida 2016-yilning 1-yanvar kuni hamkasblari bilan «Qorsuv» kafesida yangi yil bayramini nishonlashganligini, bayram dasturxonida tortilgan spirtli ichimlikdan ko‘p iste‘mol qilganligi oqibatida mast bo‘lib qolganligini, uyga hamkasblari tashlab ketganligini, uyga kelganida turmush o‘rtog‘i Z.A. Rahimova mast holda kelganligi uchun janjal boshlaganligini, shunda u jahl ustida turmush o‘rtog‘i Z.A. Rahimovani do‘pposlaganligini, 3 nafar farzandi borligini, hozirda ularning yuziga qarashga uyalayotganligini, qilgan ishidan chin ko‘ngildan pushaymon ekanligini, boshqa bu kabi holat takrorlanmasligini, turmush o‘rtog‘idan ham kechirim so‘raganligini bildirgan.

Holat yuzasidan Rahimova Zarifa Azizovnadandan tushuntirish talab qilinganida, u o‘z tushuntirish xatida 2016-yilning 1-yanvar kuni soat 14.00 larda turmush o‘rtog‘i S.A. Rahimov hamkasblari bilan Yangi yilni nishonlaymiz deb, uydan chiqib ketib, tungi soat 23.50larda mast holatda qaytib kelganligini, unga farzandlari voyaga yetib qolganligini, ulardan uyalish kerakligini, topgan pulini ichishga, bazmlarga sarflayotganligini, uning o‘rniga farzandlarining o‘qishi, uy-joyli qilinishini o‘ylashi kerakligini ta’kidlaganda, turmush o‘rtog‘i uni haqoratlab, «ichishim va yurishim bilan seni nima ishing bor» deb urib-do‘pposlaganligini, kaltaklanganligidan keyin o‘zini yomon his qilganligi uchun tez tibbiy yordamga murojaat qilganligini, ular esa uni shifoxonaga olib borganligini, biroq nima bo‘lganida ham S.A. Rahimov uning turmush o‘rtog‘i, farzandlarining otasi ekanligini, shu bois unga nisbatan hech qanday da’vosi (shikoyat, arzi) yo‘qligini, turmush o‘rtog‘i hozirda qattiq afsuslanayotganligini, undan kechirim so‘raganligini va bu kabi holat boshqa takrorlanmasligiga va’da berganligini bayon etgan.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida Z.A. Rahimovning S.A. Rahimovga qaramlik darajasini o'rganish uchun Z.A. Rahimovning yon qo'shnilari Qorsuv 3-dahasi 11-uy 5-xonadonda yashovchi A.A. Saidova hamda Qorsuv 3-dahasi 11-uy 6-xonadonda yashovchi Sh.N. Xolmurodovlardan tushuntirish xatlari olinganida, ular o'z tushuntirish xatlarida Rahimovlar oilasi janjalkash oilalar safiga kirmasligini, har ikkalasining ham mahalla ahli bilan munosabati yaxshi ekanligini, farzandlari ham tarbiyali ekanligini, 15 yilga yaqin davr mobaynida qo'shni bo'lib turishlariga qaramasdan S.A. Rahimovning Z.A. Rahimovga nisbatan biror-bir tazyig'ini kuzatmagan va eshitmaganliklarini bayon qilganlar.

Pedagog ishtirokida so'rov o'tkazilgan Z.A. Rahimovning qizi, 2005-yilda tug'ilgan N.S. Rahimova ham tushuntirish xatida ota-onasining bir-biriga va farzandlariga bo'lgan munosabati yaxshi ekanligini, biroq otasi S.A. Rahimov so'nggi paytlarda tez-tez spirtli ichimlik iste'mol qilayotganligi va buning uchun onasi Z.A. Rahimova norozi ekanligini bildirgan.

Z.A. Rahimova hamda S.A. Rahimovga nisbatan ularning yashash va ish joyida berilgan tavsifnomalarda Z.A. Rahimova, S.A. Rahimov va ularning oilasi ijobiy tavsiflangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Rahimov Sobir Akromovichning harakatlarida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 109-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud, biroq Z.A. Rahimova o'z tushuntirish xatida S.A. Rahimov uning turmush o'rtog'i, farzandlarining otasi ekanligini, turmush o'rtog'i hozirda qattiq afsuslanayotganligini, undan kechirim so'raganligini va bu kabi holat boshqa takrorlanmasligiga va'da berganligini, shu bois unga nisbatan hech qanday da'vosi (shikoyat, arzi) yo'qligini, qolaversa, S.A. Rahimovning Z.A. Rahimovga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiqi bilan bog'liq, shuningdek Z.A. Rahimovning o'z huquqini va qonuniy manfaatini o'zi himoya qila olmaydigan holda ekanligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlanmaganligini inobatga olib hamda O'zbekiston Respublikasi JPKning 325-moddasi 1-qismiga asoslangan, 83-moddasi 6-bandi va 333-moddalarini qo'llagan holda,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilsin.
2. Ushbu qarorning mazmuni manfaatdor tomonlarga ma'lum qilinsin va O'zbekiston Respublikasi JPKning 338-moddasiga asosan, qaror ustidan Toshkent shahar prokuroriga shikoyat qilishga haqli ekanliklari tushuntirilsin.
3. Qaror nusxasi ma'lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

Profilaktik inspektori:

Katta leytenant

S.I. Jumanov

(imzo)

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman Qorsuv 3-dahasi 11-uy 4-xonadonda
yashovchi fuqaro Zarifa Azizovna Rahimovaga

**Jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi rad qilingani, rad qilish asoslari, shikoyat qilish
huquqi va tartibi to‘g‘risida**

X A B A R N O M A

2016-yilning 2-yanvar kuni soat 04.00larda Mirzo Ulug‘bek tumani IIB navbatchilik qismiga 1-sonli shahar shifoxonasining Sizning tan jarohati bilan shifoxonaga olib kelinganligingiz bo‘yicha bergan xabariga asosan olib borilgan tergovga qadar tekshiruv ishlari tamomlandi.

Mazkur xabar bo‘yicha

2016-yilning 1-yanvar kuni soat taxminan 22.00larda Mirzo Ulug‘bek tumani Qorsuv 3-dahasi 11-uy 4-xonadonda yashovchi fuqaro, 1972-yilda tug‘ilgan turmush o‘rtog‘ingiz Rahimov Sobir Akromovichning mast holda uyga kelib Siz bilan janjallashib, urib-do‘pposlaganligi natijasida tan jarohati olganingiz va bu tan jarohati Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasiga qarashli Sud-tibbiy ekspertiza byurosining 2-filiali taqdim qilgan 2016-yil 19-yanvar kuni 2238-sonli xulosasiga ko‘ra «Yengil tan jarohati» sifatida baholanganligi holati turmush o‘rtog‘ingiz Rahimov Sobir Akromovichning harakatlari tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 109-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq, Sizning S.A. Rahimov turmush o‘rtog‘ingiz, farzandlarining otasi ekanligini, turmush o‘rtog‘ingiz hozirda qattiq afsuslanayotganligini, kechirim so‘raganligini va bu kabi holat boshqa takrorlanmasligiga va‘da berganligini, shu bois unga nisbatan hech qanday da‘vo (shikoyat, arzi)ingiz yo‘qligi, shuningdek tergovga qadar tekshiruv davomida Sizning o‘z huquq va qonuniy manfaatini o‘zi himoya qila olmaydigan holda ekanligingizni ko‘rsatuvchi holatlar aniqlanmaganligi bois O‘zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 6-bandi va 333-moddalarini qo‘llagan holda jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish haqida qaror qabul qilindi.

Shu munosabat bilan, Sizga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 333-moddasiga asosan, qabul qilingan qaror bo‘yicha norozi bo‘lsangiz, mazkur qaror ustidan ushbu xabarnomani olgan vaqtdan boshlab, prokurorga shikoyat qilishga haqli ekanligingizni ma‘lum qilaman.

Profilaktika inspektori
katta leytenant

S.I.Jumanov

(ИМЗО)

Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish haqida QAROR

2015-yil 8-avgust

Toshkent shahri

Toshkent shahar Yashnabod tuman IIB HOOB profilaktika inspektori kapitan S.A.Shokirov, tuman IIB navbatchilik qismining 2-shakl jurnalida 1078-son bilan qayd etilgan Qorsuv 3-dahasi 38-uy 50-xonadonda yashovchi, 1967-yilda tug‘ilgan fuqaro Zilola Keldiyorovna Norboyevaning arizasi asosida to‘plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib,

A N I Q L A D I M:

2015-yilning 8-avgust kuni Yashnabod tumani Qorsuv 3-dahasi 38-uy 50-xonadonda yashovchi fuqaro Zilola Keldiyorovna Norboyeva qo‘shnisi, 55-xonadonda yashovchi, 1970-yilda tug‘ilgan, fuqaro Laylo Haydarovaga xonadonining kalitini qoldirib ketgan. Laylo Haydarovaning o‘g‘illari Alisher va Farhod Usmonovlar onasiga bildirmasdan qo‘shnisi Z.K.Norboyeva qoldirgan kalitni olib, uning xonadoniga kirishgan va unga tegishli bo‘lgan 2.870.000 (ikki million sakkiz yuz yetmish ming) so‘mlik turli xil mol-mulklarga zarar yetkazishgan.

Z.K.Norboyeva o‘z tushuntirish xatida 2015-yil 5-avgust kuni soat 14.00larda telefonga pul to‘lash uchun aloqa bo‘limiga ketayotib, uyining kalitini qo‘shnisi Laylo Haydarovaga berib ketgani, soat taxminan 16.00larda uyga qaytib kelgani, qo‘shnisidan kalitni olib uyiga kirganida uyidagi narsalar sochilib, bir qismi vannaga tashlanganini va ivib yotganini bayon qilgan.

Surishtiruv jarayonida Z.K.Norboyevaning bir dona 1.200.000 (bir million ikki yuz ming) so‘mlik «LG» noutbuki, bir dona 390.000 (uch yuz to‘qson ming) so‘mlik «PANASONIC» videomagnitafoni, bir dona 750.000 (yetti yuz ellik ming) so‘mlik «AIWA» musiqa markazi, umumiy bahosi 500.000 (besh yuz ming) so‘mlik kiyimlari va bahosi 330.000 (uch yuz o‘ttiz ming) so‘mlik kosmetikalari – jami 2.870.000 (ikki million sakkiz yuz yetmish ming) so‘m miqdordagi mol-mulkini qo‘shnisi Laylo Haydarovaning o‘g‘illari Alisher va Farhod nobud qilganliklari aniqlangan.

Alisher va Farhod Usmonovlar bilan onasi Laylo Haydarova ishtirokida suhbat o‘tkazilganda, Alisher onasiga bildirmasdan qo‘shnisining kalitini olgani, so‘ng akasi bilan uning xonadoniga kirgani, u yerdagi videomagnitofon, audiomagnitofon va musiqa markazlarini polda sudrab «mashina» sifatida o‘ynashgani, shundan so‘ng vannaga suv to‘ldirib ularni «paroxod» qilib o‘ynashganini, shkafdan kiyimlarni olib, ularni ham vannaga tashlaganliklarini bildirdi. Farhod Usmonov ham ukasi Alisherning ko‘rsatmalarini tasdiqlagan.

Laylo Haydarova o‘z tushuntirish xatida Z.K.Norboyevaning ko‘rsatmalarini tasdiqlab, haqiqatan ham qo‘shnisi unga kalitni tashlab ketgani, uni uyidagi «stenka»ga qo‘ygani, so‘ng boshqa qo‘shnisinikiga o‘zining ishi yuzasidan chiqib ketganidan foydalanib, o‘g‘illari kalitni olib, Z.K.Norboyevaning xonadonida yuqorida ko‘rsatilgan holatni sodir qilishganini bayon qilgan. U yetkazilgan moddiy

ziyonning bir qismini qoplagani va qolganlarini ham tiklab berish majburiyatini olganini bildirdi.

Garchi, Alisher va Farhod Usmonovlarning harakatlarida O‘zbekiston Respublikasi JKning 173-moddasi 2-qismi «v»-bandida ko‘rsatilgan jinoyat alomatlari formal jihatdan mavjud bo‘lsa-da, ularni bu modda bilan javobgarlikka tortish imkoni yo‘q.

Chunki, Farhod Usmonov 2004-yil 28-yanvar kuni, Alisher Usmonov esa 2008-yil 31-mart kuni tug‘ilgan bo‘lib, hodisa sodir bo‘lgan vaqtda ularning biri 11 yosh, ikkinchisi esa 7 yoshda bo‘lgan. Zero, O‘zbekiston Respublikasi JKning 17-moddasi 3-qismiga ko‘ra, JKning 173-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik bo‘yicha jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to‘lgan aqli raso shaxslar jinoyat subyekti bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, Farhod va Alisher Usmonovlar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmaganligi va jinoyat subyekti bo‘la olmasligini nazarda tutib hamda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 2-bandi va 333-moddalarini qo‘llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilsin va bu haqda manfaatdor taraflarga ma’lum qilinsin.

2. Fuqaro Z.K.Norboyevaga voyaga yetmagan Alisher va Farhod Usmonovlar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni ularning ota-onalaridan undirish to‘g‘risida Mirobod tumanlararo fuqarolik sudiga da’vo arizasi bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi tushuntirilsin.

3. Qaror nusxasi ma’lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

Profilaktika inspektori
kapitan

(imzo)

S.A.Shokirov

Toshkent shahar Yashnabod tuman Qorsuv 3-dahasi 38-uy 50-xonadonda
yashovchi fuqaro Zilola Keldiyorovna Norboyevaga

**Jinoyat ishi qo'zg'atilishi rad qilingani, rad qilish asoslari, shikoyat qilish
huquqi va tartibi to'g'risida
X A B A R N O M A**

Fuqaro Norboyeva Zilola Keldiyorovna, Sizing 2015-yilning 5-avgust kuni soat 17.00larda Yashnabod tuman IIB HOOB 76-sonli MTPga xonadoningizda mulkingizni nobud qilinganligi haqida bergan xabaringizga asosan olib borilgan tergovga qadar tekshiruv ishlari tamomlandi.

Olib borilgan tergovga qadar tekshiruv natijalariga ko'ra, 2015-yil 5-avgust kuni xonadoningizda sodir etilgan hodisada O'zbekiston Respublikasi JKning 173-moddasi 2-qismi «v» bandida ko'rsatilgan jinoyat alomatlari formal jihatdan mavjud bo'lsa-da, qilmishni sodir etgan aka-uka voyaga yetmagan Alisher va Farhod Usmonovlar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganligi va jinoyat subyekti bo'la olmasligi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 2-bandida nazarda tutilgan holat aniqlanib, jinoyat tarkibi yo'q deb topilganligi bois jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilindi.

Shu bois, Sizga O'zbekiston Respublikasi JPKning 333-moddasiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinganligi to'g'risidagi qaror ustidan ushbu xabar-nomani olgan vaqtdan boshlab prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega ekanligingizni ma'lum qilaman.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan Alisher va Farhod Usmonovlar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni ularning ota-onalaridan undirish uchun Mirobod tuman-lararo fuqarolik sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilish huquqiga ham egasiz.

Profilaktika inspektori
kapitan

(imzo)

S.A.Shokirov

Toshkent shahar M. Ulug‘bek
tumani IIB boshlig‘i,
podpolkovnik

I.I.Haydarovga

1976-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, O‘zbekiston
Respublikasi fuqarosi, ma‘lumoti o‘rta,
oilali, 1 nafar farzandi bor, xususiy tadbir-
kor bo‘lib ishlovchi, sudlanmagan, Mirzo
Ulug‘bek tuman «Zulayxo» ko‘chasi 18-
uyda yashovchi Shomahmudov Farhod
Do‘smatovichdan

T U S H U N T I R I S H X A T I

Men, Shomahmudov Farhod Do‘smatovich, yuqorida ko‘rsatilgan manzilda oilam bilan yashayman. Ushbu ish bo‘yicha quyidagilarni ma‘lum qilaman: 2015-yil 22-mart kuni taxminan 21.30 larda uxlashga yotdim. Kechasi mashinalarning gurillashi va odamlar shovqinidan uyg‘onib ketdim. Ko‘chaga chiqsam, Rahim akaning uyi oldida videokamera, fotoapparat ko‘targan, it yetaklagan odamlarni ko‘rib hayron bo‘ldim va ularning oldiga bordim. U yerda militsiya xodimlari, Rahim akaning xotini Lola opa, qo‘shnimiz Xolmirza akalar turishgan ekan. Shunda bir kishi kelib o‘zini tergovchi deb tanishtirdi, keyin u mendan voqea joyini ko‘zdan kechirishda xolis sifatida qatnashishimni so‘radi. Men rozi bo‘ldim. Keyin hammamiz Rahim akaning uyiga kirdik. U yerda tez yordamdan kelgan vrachlar bor ekan, Rahim akaning ahvoli og‘ir bo‘lib, vrachlar unga ukol qilishayotgan edi. Tergovchi bilan birgalikda hamma xonalarni ko‘rib chiqdik, tergovchi bayonnoma tuzdi, biz imzo qo‘ydik. Tergovchilar Rahim akaning uyidagi derazalarning singan oynalarida barmoq izlari, qon dog‘lariga o‘xshash qizil dog‘lar, shuningdek yotoqxonadagi atir shishalarida ham shunga o‘xshash qizil dog‘lar borligini aniqlashdi va ularni tekshirib ko‘rish uchun olishdi. Men o‘shanda Rahim akaning uyiga bosqinchilar kirishganini bildim. Asosan xotining taqinchoqlarini olib ketishibdi. Bu ishlarni kimlar qilganini bilmayman.

Ushbu holat bo‘yicha mening ko‘rgan-bilganlarim shulardan iborat. Tushuntirish xatini o‘z qo‘lim bilan to‘g‘ri va aniq yozdim.

Tushuntirish xatini yozuvchi
2015-yil 23-mart (imzo)

F.D.Shomahmudov

Tushuntirish xatini oldim:

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek
tuman IIB HOOB profilaktika
katta inspektori mayor
2015-йил 23-март

(ИМЗО)

G‘.S.Qarshiyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

О‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., 2014. – 40 б.

Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 10. – Т., 2002. – Б. 34.

Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 56 б.

Каримов И.А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат: О‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza (2015 yil 6 dekabr) // POSTDA. – 2015. – № 49. – В. 1–4.

Ўзбекистон Республикасининг «Электрон рақамли имзо тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – № 4. – 41-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – № 20 (104). – 230-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. – № 39. – 390-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – № 22. – 173-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – № 20. – 221-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний ва юридик шахсларнинг муружатлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – № 49. – 578-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Электрон ҳукумат тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2015. – № 49. – 611-м.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси: (2014 йил 1 октябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. – Т.: Адолат, 2014. – 736 б.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси: (2014 йил 1 октябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. – Т.: Адолат, 2014. – 504 б.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: (2014 йил 1 октябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. – Т.: Адолат, 2014. – 504 б.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Интерактив давлат хизматлари кўрсатишни ҳисобга олган ҳолда интернет тармоғида Ўзбекистон Республикасининг ҳукумат портали фаолиятини янада такомиллаштириш чора-

тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013. – № 2. – 23-м.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Давлат органлари ва давлат муассасаларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўғрисидаги Намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2015. – № 13. – 154-м.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўриш бўйича суд амалиёти ҳақида»ги қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди ахборотномаси. – Т., 2000. – № 5. – Б.16.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 328-сонли «Профилактика инспекторлари томонидан маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритиш тартиби бўйича йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 2001 йил 28 декабрь буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 131-сонли «Профилактика (катта) инспекторлари ва милиция таянч пунктлари фаолиятини ташкил этиш бўйича йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 2014 йил 1 сентябрь буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 72-сонли «Ички ишлар органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлашни такомиллаштириш тўғрисида»ги 2015 йил 5 май буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 64-сонли «Ички ишлар органларида электрон ҳужжат айланиши тизимини жорий этиш ва фойдаланиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 2015 йил 19 апрель буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 82-сонли «Ички ишлар органларида «Ишонч телефонлари» орқали мурожаатларни қабул қилиш, расмийлаштириш ва кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 2015 йил 10 май буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ва Ички ишлар вазирлигининг «*Ички ишлар идораларида жиноят ҳақидаги ариза, шикоят ва бошқа турдаги хабарларни қабул қилиш, ҳисобга олиш қайд этиш ва ҳал этиш тартиби*» тўғрисидаги 1993 йил 5 январь (шунингдек, мазкур буйруққа ўзгартириш ва қўшимча тариқасида 1996 йилнинг 17 июль куни қабул қилинган буйруқ) қўшма буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлигининг 2014 йил 4 ноябрда қабул қилган «Хуқуқбузарликлар фактлари ҳамда хуқуқбузарликлар билан боғлиқ бошқа ҳолатлар ҳақида ички ишлар органларига хабар қилиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 36/18/49/56-сонли қўшма қарори.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2014 йил 26 декабрда қабул қилган «Жиноятчиликнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш фаолиятини мувофиқлаштириш ҳамда терговга қадар текширув, суриштирув, дастлабки тергов ва тезкор-қидирув жараёнида қонунлар ижроси устидан прокурор назорати самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги 120-сонли қарори.

Алимов Ҳ.Р. ва бошқ. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик . – Т., 2003. – Б.117.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
------------------------	----------

I. PROFILAKTIKA XIZMATLARINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLAR MUROJAATLARINI KO‘RIB CHIQISH FAOLIYATI

1.1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tushunchasi, turlari, ularni qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi.....	6
1.2. Profilaktika inspektorlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ko‘rib chiqilishining ta‘minlanishi.....	24
1.3. Profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar.....	34

II. PROFILAKTIKA XIZMATLARINING MA‘MURIY HUQUQBUZARLIKKA OID MUROJAATLARNI KO‘RIB CHIQISH FAOLIYATI

2.1. Profilaktika xizmatlarining ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlarni ko‘rib chiqish faoliyatining mazmun-mohiyati va ushbu faoliyatda qatnashuvchi shaxslarning tutgan o‘rni.....	49
2.2. Profilaktika xizmatlarining ma‘muriy huquqbuzarlikka oid murojaatlarni ko‘rib chiqish faoliyatida dalillar va turlari.....	57
2.3. Profilaktika xizmatlarining murojaatlarga asosan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati.....	71
2.4. Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish.....	83
ILOVALAR.....	87
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	109

Siyovush Baxtiyorovich XO‘JAQULOV

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI PROFILAKTIKA
XIZMATLARINING JISMONIY VA YURIDIK
SHAXSLAR MUROJAATLARINI KO‘RIB CHIQISH
FAOLIYATI**

O‘quv qo‘llanma

*Muharrir B. A. Yarov
Texnik muharrir D. R. Djalilov*

Bosishga ruxsat etildi 01. 03. 2016. Nashr-hisob tabag‘i 7,5.
Adadi 20 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
1000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68